SCIENCE & EDUCATION IN THE 21ST CENTURY

SCIENCE AND EDUCATION IN THE 21ST CENTURY

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

XALQARO ILMIY JURNAL

XXI ASRDA FAN VA TA'LIM

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

НАУКА И ОБРАЗОВАНИЕ В XXI ВЕКЕ

1

ISSN 3060-5482

SCIENCE CITY ABM

TASHKENT
2026

science-city-abm.uz



Yurtimizdagi 22 milliondan ziyod yoshlarimiz timsolida biz juda katta iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy kuchni ko‘ramiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

В лице более чем 22 миллионов молодых людей нашей страны мы видим колоссальную экономическую, социальную и политическую силу.

Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев

With over 22 million young people in our country, we see an enormous economic, social, and political force.

President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev



Muhtaram jurnalimiz o‘quvchilari!

Qo‘lingizdagi 2026-yilning ilk sonida mamlakatimiz hamda yaqin va olis qo‘shni mamlakatlarda ta’lim, ilm-fan, moliya-iqtisodiyot sohalarida olib borilayotgan islohotlar kesimida yozilgan maqolalar o‘rin topgan.

Xususan, mualliflardan biri maktabgacha yoshdagi bolalar uchun davlat dasturlari doirasida nimalar qilinmoqda, savoli bilan o‘z tadqiqotini taqdim etib, unda unib kelayotgan avlodni yetishtirishda aynan qanday maxsus ta’lim usullari tatbiq etilsa, O'zbekistondagi zamonaviy ta'lim siyosati talablariga to'liq javob beradigan mas'uliyatli, hamdard va ijtimoiy faol avlod yetishib chiqishini ta'minlash mumkinligini qayd etgan.

Ta’limni millat taraqqiyotining asosi deb bilgan jadidchilikning pedagogik sintezi borasidagi mahalliy tadqiqotchilarimizning maqolasi ham siz - azizlarni, befarq qoldirmaydi, degan umiddamiz. Zero, mualliflar ta’kidlaganidek, aslida jadidchilik, eng avvalo, millat va jamiyatning o‘z-o‘zini saqlab qolishga bo‘lgan ichki refleksi sifatida namoyon bo‘lgan. Bu harakat xalqning siyosiy, madaniy va ma’naviy jihatdan yashab qolishi masalasiga borib taqaladi. U yoki bu mahalliy jamiyatning ma’rifiy va ilmiy rivojlanishini cheklashga urinishlar qanday ahamiyat kasb etishi qabilidagi savollar mualliflar tomonidan qiziqarli talqin qilingan.

Hurmat bilan, Abduhakim Mamanazarov

Уважаемые читатели!

В данном номере вашему вниманию представляются статьи, написанные в разрезе реформ в сфере образования, науки, финансов и экономики не только нашей страны, но и стран ближнего и дальнего зарубежья. В частности, один из авторов представляет свои исследования по вопросу о том, что делается в рамках госпрограмм для детей дошкольного возраста и отмечает, что обеспечить воспитание ответственного, сострадательного и социально активного поколения, полностью отвечающего требованиям современной образовательной политики в Узбекистане, можно, если в воспитании подрастающего поколения будут применяться отдельные специализированные образовательные методы.

Статья других наших местных исследователей о педагогическом синтезе джадидизма, где образование рассматривается как основа национального развития, надеемся, не оставит вас, дорогие друзья, равнодушными. Ведь, как подчеркивают авторы, джадидизм проявился, прежде всего, как внутренний рефлекс нации и общества на самосохранение. Это движение восходит к вопросу политического, культурного и духовного выживания народа. Авторы представляют довольно интересную интерпретацию целого ряда вопросов, в том числе, как например, значение попыток ограничения образовательного и научного развития конкретного местного сообщества условно, третьей стороной.

С уважением, Абдухаким Маманазаров

Dear Readers!

This issue contains articles written in the area of reforms in education, science, finance and economics in our country and in our near and far neighboring countries.

In particular, one of the authors presents her research on the question of what is being done within the framework of state programs for preschool children, and it is noted that it is possible to ensure the growth of a responsible, compassionate and socially active generation that fully meets the requirements of modern educational policy in Uzbekistan, if special educational methodologies are applied in the upbringing of the generation to come.

We hope that the article of our local researchers on the pedagogical discourse of Jadidism, which considers education as the basis for national development, will not leave you, dear all, indifferent. After all, as the authors emphasize, in fact, Jadidism manifested itself as an internal reflex of the nation and society for self-preservation, in the first place. This movement goes back to the issue of the political, cultural and spiritual survival of the people. The authors have interestingly interpreted questions such as the significance of attempts to limit the educational and scientific development of a particular local community.

Regards, Abdukhakim Mamanazarov

FOUNDER: “SCIENCE CITY-ABM”

Chairman of the Editorial Board, Editor-In-Chief:
Abdukhakim Mamanazarov – DSc in Pedagogy, PhD in Economics, associate professor, deputy head of the Lomonosov Moscow State University in Tashkent
E-mail: abduhakim_bazarovich@mail.ru
https://orcid.org/0000-0002-4253-7629

“SCIENCE AND EDUCATION IN THE 21ST CENTURY”

International Scientific and Methodical Journal

3/2026 (№1)

The journal was registered by the Agency for Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan on February 24, 2025.
Certificate No. 635941

Tashkent – 2026

Editorial Board Members:

Y.A. Mazei - Associate Member of the Academy of Sciences of the Russian Federation, Doctor of Biological Sciences, professor, Moscow State University named after M.V. Lomonosov https://orcid.org/0000-0002-5443-8919

S.S. Gulomov - Member of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Economics Institute of Personnel Training and Statistical Research under the State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. https://orcid.org/0009-0006-9594-8516

Q.K. Abdurakhmanov - Member of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Economics, professor of the Russian University of Economics named after G.V.Plekhanov https://orcid.org/0000-0002-9100-5506

R.Kh. Djurayev - Member of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Pedagogical Sciences, National Institute of Educational Pedagogy named after Qori Niyozi https://orcid.org/0009-0005-2310-056X

Kh.I. Ibraimov - Member of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Pedagogical Sciences, National Institute of Education and Pedagogy named after Qori Niyozi https://orcid.org/0009-0005-4953-1894

G.B. Shoumarov - Member of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Psychology, Tashkent branch of Profi University

I. Majidov - Doctor of Technical Sciences, professor, Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan https://orcid.org/0000-0002-7168-2243

I. Mietule - PhD in Economics, professor, Rezekne Academy of Technologies https://orcid.org/0000-0001-7662-9866

A.A. Chasovskikh - Doctor of Physics and Mathematics, professor, Moscow State University named after M.V.Lomonosov https://orcid.org/0009-0007-4207-7777

M. Petrova - PhD in Economics, professor, D.A.Tsenov Academy of Economics https://orcid.org/0000-0003-1531-4312

M.I. Kumskov - Doctor of Physics and Mathematics, professor, Moscow State University named after M.V.Lomonosov. https://orcid.org/0000-0001-6636-6791

M.Y.Sheresheva - Doctor of Economics, professor, Moscow State University named after M.V.Lomonosov https://orcid.org/0000-0002-8153-7111

R.I. Sunnatova - Doctor of Psychological Sciences, professor, Moscow Pedagogical State University. https://orcid.org/0000-0002-7642-9941

R.G. Safarova - Doctor of Pedagogical Sciences, professor, National Institute of Educational Pedagogy named after Qori Niyozi https://orcid.org/0000-0001-6016-4232

M.Kh. Saidov - Doctor of Economics, professor, Tashkent State Agrarian University https://orcid.org/0000-0003-1996-2878

B.B. Mamurov - Doctor of Pedagogical Sciences, professor, Bukhara State Pedagogical Institute https://orcid.org/0000-0003-0437-7414

V. V. Sazonov - Doctor of Physics and Mathematics, associate professor, Moscow State University named after M. V. Lomonosov. https://orcid.org/0000-0002-6168-7438

E.M.Saydamatov - PhD in Physics and Mathematics, associate professor, Tashkent Branch of Moscow State University named after M.V. Lomonosov https://orcid.org/0000-0002-8440-5093

M.A. Mamanazarov - PhD in Economics, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek https://orcid.org/0000-0003-3936-0954

J.N. Fayzullayev - PhD in Economics, acting associate professor, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

E.T.Odilov - Head of the Tashkent Regional Branch of the Higher School of Business and Entrepreneurship under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan

A.V. Yuldasheva - Doctor of Physics and Mathematics, Tashkent Branch of Moscow State University named after M.V.Lomonosov. https://orcid.org/0000-0001-6861-8331

Z.R. Karimova - PhD in Pedagogical Sciences, Tashkent Branch of Moscow State University named after M.V.Lomonosov. https://orcid.org/0000-0003-1160-745X

M.O. Iskhakova - PhD in Pedagogical Sciences, Alikhan Bokeykhan University https://orcid.org/0000-0002-4788-4515

B.X.Namozov - PhD in Arts, National Institute of Painting and Design after Kamoliddin Bekhzod. https://orcid.org/0009-0005-7767-9300.

K.S. Alpysbayev - PhD in Economics, Kazakh Pedagogical Institute named after Abay https://orcid.org/0000-0003-2644-2651

Jose Botelho - PhD in Economics, University of Evora. https://orcid.org/0000-0002-4001-6563

Dj.B. Ruzibayev - PhD in Psychological Sciences, Tashkent branch of Moscow State University named after M.V. Lomonosov

Sh.N. Sheraliyev - PhD in Physics and Mathematics, Tashkent Branch of Moscow State University named after M.V.Lomonosov https://orcid.org/0009-0008-6255-8081

MUNDARIJA

So‘zboshi……... 2
Qutlov.. ……..…….... 8
Olimlar minbari: akademik S.S. G‘ulomov bilan suhbat…… 10

IQTISODIYOT

1 **Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich** - JAHON IQTISODIYOTIDA INNOVATSION RIVOJLANISH TENDENSIYALARI……...…… 13
2 **Hamidova Iroda** - DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY INSTRUMENTLARI VA ULARNI QO‘LLASH MASALALARI……..……. 22
3 **Kypshakbayeva A.S., Aktileuova G.M., Adilchayev R.T., Yesturliyeva A.I.** - QOZOG‘ISTONDA TURIZM XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI…….. 31
4 **Xajibakiyev Shuhrat, Olimbayeva Feruza O‘ktamboy qizi** - O‘ZBEKISTON MEHNAT MIGRANTLARINING PUL O‘TKAZMALARI VA ULARNING MAKROIQTISODIYOTGA TA’SIRI: XALQARO VALYUTA JAMG‘ARMASI VA JAHON BANKI TAHLILLARI ASOSIDA…….... 39
5 **Yandiyev Magomet** - ISLOM SIYOSIY IQTISODIYOTI: PULNING BO'LINISHI - ISLOM MOLIYA TIZIMINING ASOSI SIFATIDA…….... 45

MATEMATIKA VA INFORMATIKA

6 **Jabarova Lyutsiya Aliyevna, Allaberganova Gaukhar Shakirovna** - INFORMATIKADA MANTIQ VA BUL FUNKSIYALARI…… 55

PEDAGOGIKA

7 **Anufryieva Mariya Andreyevna** - MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING HISSIY JABHASINI RIVOJLANTIRISHDA O‘YIN, MULOQOTGA ASOSLANGAN VA IDROK ETISH FAOLIYATLARINING INTEGRATSIYASI…… 61
8 **Jelnina Kseniya Vladimirovna, Peskov Vadim Pavlovich** - BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KASBIY TAYYORLASH DAVRIDA MOSLASHTIRILADIGAN (ADAPTIV) QOBILATLAR VA PSIXOLOGIK FAROVONLIK O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK……. 65
9 **Mamatqobilov Tursunmurod Doniyorovich** - YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY HIMOYA SIYOSATINING MOHIYATI……. 74
10 **Qodirov Valijon, Akbar Odil** - “SAVODSIZLIK”DAN MILLIY ONGGA: CHOR ROSSIYASI DISKURSI VA JADIDCHILIK PEDAGOGIK SINTEZI…… 78
11 **Shelyagina Irina Nikolayevna** - BIRINCHI KURS QIZ TALABALARINING JISMONIY RIVOJLANISHINING ANTROPOMETRIK KO‘RSATKICHLARI (M.V.LOMONOSOV NOMIDAGI MOSKVA DAVLAT UNIVERSITETINING TOSHKENT SHAHRIDAGI FILIALI MISOLIDA) ……... 83
12 **Zakirova Renata Rinatovna** - MURABBIY-O‘QITUVCHINING JISMONIY TARBIYADAGI ROLI: SPORTCHI-SHOGIRD O‘RTASIDAGI O‘ZARO MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI……..... 88

“BUYUK IQTISODCHILAR: NOBEL MUKOFOTI LAUREATLARI”……...…… 93

ОГЛАВЛЕНИЕ

Предисловие……..…..... 2
Поздравления..……..……... 8
Трибуна ученых: беседа с академиком С.С.Гулямовым..... 10

ЭКОНОМИКА

1 **Файзуллаев Жонибек Негматуллаевич** - ТЕНДЕНЦИИ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ В МИРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ……....…… 13
2 **Хамидова Ирода** - СОВРЕМЕННЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ УПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫМ ДОЛГОМ И ПРОБЛЕМЫ ИХ ПРИМЕНЕНИЯ……... 22
3 **Кыпшакбаева А.С., Актилеуова Г.М., Адильчаев Р.Т., Естурлиева А.И.**- ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ ЦИФРОВИЗАЦИИ ТУРИСТСКИХ УСЛУГ В КАЗАХСТАНЕ……..... 31
4 **Хаджибакиев Шухрат, Олимбаева Феруза Уктамбой кизи** - ДЕНЕЖНЫЕ ПЕРЕВОДЫ УЗБЕКСКИХ МИГРАНТОВ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА МАКРОЭКОНОМИКУ: ОЦЕНКА НА ОСНОВЕ ОТЧЕТОВ МВФ И ВСЕМИРНОГО БАНКА……... 39
5 **Яндиев Магомет** - ИСЛАМСКАЯ ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЭКОНОМИЯ: РАСЩЕПЛЕНИЕ ДЕНЕГ КАК ОСНОВА ИСЛАМСКОЙ ФИНАНСОВОЙ СИСТЕМЫ……..... 45

МАТЕМАТИКА ВА ИНФОРМАТИКА

6 **Жабарова Люция Алиевна, Аллаберганова Гаухар Шакировна** - ЛОГИКА И БУЛЕВЫ ФУНКЦИИ В ИНФОРМАТИКЕ…….. 55

ПЕДАГОГИКА

7 **Ануфриева Мария Андреевна** - ИНТЕГРАЦИЯ ИГРОВОЙ, КОММУНИКАТИВНОЙ И ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАЗВИТИИ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ СФЕРЫ ДОШКОЛЬНИКОВ…… 61
8 **Желнина Ксения Владимировна, Песков Вадим Павлович** - СВЯЗЬ АДАПТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ НА ЭТАПЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ…….. 65
9 **Маматкобилов Турсунмурод Дониерович** - СУТЬ И ЗНАЧИМОСТЬ ПОЛИТИКИ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ…….. 74
10 **Кодиров Валижон, Акбар Одил** - ОТ «НЕГРАМОТНОСТИ» К НАЦИОНАЛЬНОМУ СОЗНАНИЮ: ДИСКУРС ЦАРСКОЙ РОССИИ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ СИНТЕЗ ДЖАДИДИЗМА…….. 78
11 **Шелягина Ирина Николаевна** - АНТРОПОМЕТРИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ СТУДЕНТОК ПЕРВЫХ КУРСОВ (НА ПРИМЕРЕ ФИЛИАЛА МГУ ИМ. М.В. ЛОМОНОСОВА В ТАШКЕНТЕ). 83
12 **Закирова Рената Ринатовна** - РОЛЬ ТРЕНЕРА-ПРЕПОДАВАТЕЛЯ В ФИЗИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ: ПСИХОЛОГИЯ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ СО СТУДЕНТОМ-СПОРТСМЕНОМ…….. 88

«ВЕЛИКИЕ ЭКОНОМИСТЫ: ЛАУРЕАТЫ НОБЕЛЕВСКОЙ ПРЕМИИ» ……..…… 93

CONTENTS

Preface.……..…..... 2
Congratulations ……..…..... 8
Scientist's Platform: Interview with a Member of the Uzbek Academy of Science S.S.Gulyamov ..……..…… 10

ECONOMICS

1 **Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich** - INNOVATIVE DEVELOPMENT TRENDS IN THE GLOBAL ECONOMY……. 13
2 **Hamidova Iroda** - MODERN INSTRUMENTS OF PUBLIC DEBT MANAGEMENT AND ISSUES OF ITS APPLICATION……... 22
3 **Kypshakbayeva A.S., Aktileuova G.M., Adilchayev R.T., Yesturliyeva A.I.**- WAYS TO IMPROVE THE DIGITALIZATION OF TOURISM SERVICES IN KAZAKHSTAN……... 31
4 **Khajibakiyev Shuhrat, Olimbayeva Feruza Oktamboy kizi** - REMITTANCES OF UZBEK MIGRANTS AND ITS IMPACT ON THE MACROECONOMY: AN ASSESSMENT BASED ON IMF AND WORLD BANK REPORTS…… 39
5 **Yandiyev Magomet** - ISLAMIC POLITICAL ECONOMY: THE SPLITTING OF MONEY AS THE BASIS OF AN ISLAMIC FINANCIAL SYSTEM…….. 45

MATHEMATICS AND INFORMATICS


6 **Jabarova Lyutsiya, Allaberganova Gaukhar** - LOGIC AND BOOLEAN FUNCTIONS IN COMPUTER SCIENCE…... 55

PEDAGOGY

7 **Anufryieva Maria Andreyevna** - INTEGRATION OF PLAY-BASED, COMMUNICATIVE AND COGNITIVE ACTIVITIES IN THE DEVELOPMENT OF THE EMOTIONAL SPHERE OF PRESCHOOL CHILDREN……. 61
8 **Jelnina Ksenia Vladimirovna, Peskov Vadim Pavlovich** - THE RELATIONSHIP BETWEEN ADAPTIVE ABILITIES AND PSYCHOLOGICAL WELL-BEING DURING THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS…… 65
9 **Mamatkobilov Tursunmurod Doniyorovich** - THE IMPORTANCE OF THE SOCIAL PROTECTION POLICY IN NEW UZBEKISTAN……..... 74
10 **Kodirov Valijon, Akbar Odil** - FROM "ILLITERACY" TO NATIONAL CONSCIOUSNESS: THE DISCOURSE OF TSARIST RUSSIA AND THE PEDAGOGICAL SYNTHESIS OF JADIDISM…….. 78
11 **Shelyagina Irina Nikolayevna** - ANTHROPOMETRIC INDICATORS OF PHYSICAL DEVELOPMENT OF FIRST-YEAR FEMALE STUDENTS (CASE STUDY: THE TASHKENT BRANCH OF LOMONOSOV MOSCOW STATE UNIVERSITY) ……..... 83
12 **Zakirova Renata Rinatovna** - THE ROLE OF THE COACH-TEACHER IN PHYSICAL EDUCATION: THE PSYCHOLOGY OF ATHLETE-STUDENT INTERACTIONS……..... 88

"PROMINENT ECONOMISTS: NOBEL PRIZE LAUREATES" …… 93

QUTLOV! ПОЗДРАВЛЕНИЯ! CONGRATULATIONS!



Muhtaram Qalandar Xodjaevich Abdurahmonov!

Sizni qutlug‘ 80 yoshingiz bilan muborakbod etamiz! Shubhasizki, sizning - iqtisodiyot fanlari doktori, G.V.Plexanov nomidagi Moskva davlat iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali rahbari, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi haqiqiy a’zosining milliy fan va ta’lim sohasi taraqqiyotidagi beqiyos hissangiz yuksak e’tirofga sazovor.

Aziz Ustoz, sizga mustahkam sog‘liq, uzoq umr, farovonlik va ulkan muvaffaqiyatlar tilab qolamiz!

***

Dear Qalandar Abdurakhmonov!

Congratulations on your 80th birthday!

You, a distinguished Doctor of Economics, a member of the Academy of Sciences of Uzbekistan, and the head of the Tashkent branch of the Plekhanov Moscow State University of Economics, have made an invaluable contribution to the development of national science and education, and this truly deserves special recognition.

May you always be surrounded by robust health, lasting prosperity, and heartfelt joy in every step of your journey, dear Professor!

***

Уважаемый Каландар Ходжаевич Абдурахмонов!

Сердечно поздравляем Вас с 80-летием!

Вы, признанный доктор экономических наук, действительный член Академии наук Узбекистана, руководитель Ташкентского филиала Московского государственного экономического университета им. Г.В. Плеханова внесли безмерный вклад в развитие национальной науки и образования, и поистине, это заслуживает особенного признания.

Желаем Вам, дорогой Профессор, крепкого здоровья, долгих лет жизни, процветания и больших успехов!

С уважением,
Абдухаким МАМАНАЗАРОВ,
главный редактор, доктор педагогических наук



Iste’dodli tilshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Do‘smamat Sattarovich Qulmamatovni 70 yoshga to‘lganligi munosabati bilan muborakbod etamiz! Tilshunoslikka qo‘shgan ulkan hissangiz va ta’lim sohasiga sodiqligingiz bizni doimo ilhomlantiradi. Sizning ustozligingiz ostida ko‘plab yetuk kadrlar shakllantirildi. Uzoq umr, mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt, kelgusidagi ijodiy-ilmiy ishlaringizga muvaffaqiyatlar tilab qolamiz!

***

Мы искренне поздравляем талантливого лингвиста, доктора филологических наук, профессора Досмамат Саттаровича Кулмаматова с его 70-летним юбилеем! Ваш исключительный вклад в лингвистику и непоколебимая преданность преподаванию вдохновляют нас каждый день, дорогой профессор. Ваше наставничество оказало влияние на карьеру и жизнь многих людей. Желаем Вам долгих лет жизни, крепкого здоровья, семейного счастья и успехов в дальнейшей творческой и научной деятельности!

***

Congratulations to professor Dosmamat Kulmatov, a talented linguist scholar, Doctor of Philological Sciences on his 70th birthday! Your exceptional contributions to linguistics and unwavering dedication to teaching inspire us every day, dear Professor. Your mentorship has shaped so many careers and lives. Wishing you long and prosperous life, good health, and continued success in your forthcoming endeavors!

Abdukhakim MAMANAZAROV,
Editor-in-Chief, Doctor of Pedagogical Sciences

ТРИБУНА УЧЕНЫХ: БЕСЕДА С УЗБЕКСКИМ НАУЧНЫМ И ГОСУДАРСТВЕННЫМ ДЕЯТЕЛЕМ, ДОКТОРОМ ЭКОНОМИЧЕСКИХ НАУК, ПРОФЕССОРОМ, ДЕЙСТВИТЕЛЬНЫМ ЧЛЕНОМ АКАДЕМИИ НАУК УЗБЕКИСТАНА САИДАХРОР ГУЛЯМОВЫМ



Уважаемый Саидахрор Саидахмедович, благодарим Вас за уделенное время и возможность пообщаться с вами, несмотря на ваш плотный график.

Известно, что ваши исследовательские предложения по реформированию интеграции системы «умного образования» и «умной медицины» направленной на развитие человеческого умственного капитала в Республике Узбекистан путём повышения интеллектуальных способностей и обучения инновациям взяты за основу при формировании соответствующих разделов «Дорожной карты» Нового Узбекистана. Расскажите пожалуйста, вкратце, в чем суть данной интеграции и почему это так актуально?

Если вкратце, то при целенаправленном отборе одарённых детей, обучающихся в президентских и специализированных школах, а также разработке для них отдельной «дорожной карты», достижение «эффекта прорывного развития» в образовании и обществе станет неизбежным. При условии, что система “умной медицины” будет ежегодно способствовать развитию их интеллекта и способностей на 1-2%, на основе ежегодного анализа факторов умственного роста. В этом случае сфера здравоохранения может превратиться из затратной области в сферу, приносящую значительную социальную и экономическую отдачу.

В образовании Нового Узбекистана надо использовать модель «сельского хозяйства». В природе невозможно получить урожай, не подготовив почву перед посадкой саженцев (не разрыхлив землю, не внеся удобрения и не обеспечив полив). Почему же в образовании, предварительно не обеспечив мозг питанием, водой и кислородом с помощью «умной медицины» (сокращая «скрытый голод»), не развивая память и способности с помощью мнемоники, ментальной арифметики и медитации (психологов), мы неэффективно пытаемся перенести знания в мозг учащихся?!

У большинства учеников в памяти не остаётся даже 20–30 % знаний, полученных за 12 лет обучения, поэтому ежегодно 30–40 % абитуриентов, сдающих тесты при поступлении в высшие учебные заведения, не могут набрать минимальные 56,7 балла (что равняется оценке «2»). Более того, некоторые студенты не помнят даже тему предыдущего занятия.

Учённые убеждены, что в мире более 2,5 млрд. детей плохо усваивают знания и после 12 лет обучения вынуждены идти на тяжёлые физические работы, а старшее поколение из-за плохой памяти не способно эффективно работать в сфере науки, инноваций и бизнесе. Эту катастрофу медицина и образование должны изучать и решать научными методами.

В Новом Узбекистане в системе образования пора открывать с помощью умной медицины центры анализа и повышения умственных способностей учащихся с учётом их индивидуальных особенностей. Пока же, умная медицина в основном, занимается лишь компьютеризацией медицины.

Какие практические шаги, на ваш взгляд, требуется предпринять?

Уважаемый Президент нашей страны своим лозунгом «Если народ богат — государство тоже будет богатым и сильным» выдвигает новые требования к системе образования в Новом Узбекистане. А именно, помимо передачи большого объёма знаний, есть необходимость разработать механизмы выявления сферы способностей, обучения эффективному использованию этих способностей и знаний, и тем самым, становиться богатыми и благополучными благодаря использованию своих индивидуальных способностей.

К примеру, если увеличить количество часов по математике в 2–3 раза и обучать использованию программ искусственного интеллекта, а также увеличить часы английского

языка в 2–3 раза и довести уровень владения английским языком, соответствующего 7.0 баллам IELTS или выше (C1), то наша молодёжь сможет вместо тяжёлого физического труда заниматься умственным трудом и дистанционно работать фрилансерами на имеющихся 97 млн свободных цифровых рабочих местах в мире (Клаус Швабб. «Специальности будущего», 2020г), обеспечивая себя и свои семьи высоким доходом.

В начале 2026 года глава государства поставил грандиозную задачу - подготовить к 2030 году 5 миллионов лидеров по искусственному интеллекту, из них 500 тысяч только в этом году. Для достижения этих результатов, «умная медицина» и «умное образование» должны разработать дорожную карту по ежегодному увеличению памяти и скорости мышления (IQ и EQ) наших детей как минимум на 1-2 %.

Как этого, помимо того, что Вы уже отметили, можно достичь?

Во-первых, для инновационного развития Узбекистана инвестиции, инновации и рост качества в социальной сфере (развитие человеческого интеллекта) должны быть значительно выше, чем в реальном секторе экономики. Необходимо внедрять новое мышление, новое видение, вплоть до новых терминов: умная семья, умная махалля, умная медицина, умное образование, умный студент, умный предприниматель… Все они должны разработать собственные «дорожные карты» по совершенствованию интеллекта и способностей и обучению их эффективному использованию для достижения благосостояния, поскольку инновационное развитие растёт пропорционально росту человеческого интеллектуального капитала и эффективности его использования.

Во-вторых, целью «Стратегии «Узбекистан-2030» является повышение качественных показателей во всех сферах. Здесь я бы от себя добавил, в особенности, качества человеческого интеллектуального капитала. Лишь в таком случае можно добиться повышения качества продукции и уровня жизни, и стать конкурентоспособными на мировом рынке. А для этого, лозунг «Качество, качество, качество и ещё раз качество», особенно, в социальной сфере, должен стать нашим путеводителем.

Также требуется внедрить новые требования к системе здравоохранения в части инновационного развития Нового Узбекистана. Среди которых, целенаправленная организация питания в образовательных учреждениях и пищевых комплексах; обучение устранению «скрытого голода» — дефицита Ca, Mg, J, Fe, прочих витаминов и аминокислот, а также обеспечение качественной водой, кислородом; обеспечение ежедневного потребления 4-х порций овощей и минимум одной порции фруктов; отказ от потребления жареных и пережжённых продуктов и многое другое.

Саидахрор Саидахмедович, известно, что Вы, помимо прочего, активно ведете исследования и в области искусственного интеллекта (ИИ), цифровых технологий в образовании. В современную эпоху, когда эти инструменты внедряются практически во все сферы нашей жизни, в частности в образовательный сектор, это в особенности становится актуальным. В этой связи, каков ваш подход, основанный на принципе «педагогика прежде всего», к проверке новых технологий перед их внедрением в учебный процесс?

В эпоху стремительного развития технологий и глобализации образования, интеграция ИИ в педагогические процессы становится неизбежной реальностью. Однако универсальный подход к внедрению ИИ-технологий в образовательные системы различных стран может привести к нивелированию культурных особенностей и утрате национальных педагогических традиций. В связи с этим возникает потребность в разработке инновационных педагогических моделей и методик, способных эффективно интегрировать возможности ИИ с учетом специфики конкретных национальных государств.

Существующие исследования в области применения ИИ в образовании преимущественно фокусируются на технических аспектах и универсальных методиках. Исследования показывают, что большинство этих технологий разрабатываются в западных странах и не всегда учитывают культурные особенности других регионов. Это создает риски культурной гомогенизации и потери национальной идентичности в образовании.

В этой связи, были разработаны несколько моделей интеграции ИИ в образовательные системы с учетом национальных особенностей:

1. Модель "Культурного моста": предполагает использование ИИ для адаптации глобального образовательного контента к местным культурным контекстам. Эта модель особенно эффективна для стран с богатыми культурными традициями, таких как Индия или страны Ближнего Востока.

2. Модель "Коллективного интеллекта": интегрирует ИИ-технологии в групповые формы обучения, характерные для многих азиатских стран. Эта модель использует ИИ для фасилитации групповых дискуссий и проектов, сохраняя при этом важность межличностного взаимодействия.

3. Модель "Цифрового наставничества": адаптирует традиционные формы наставничества к цифровой среде с помощью ИИ. Эта модель особенно релевантна для африканских стран, где сильны традиции устной передачи знаний.

4. Модель "Инклюзивного ИИ": фокусируется на использовании ИИ для обеспечения равного доступа к образованию и поддержки учащихся с различными потребностями. Эта модель хорошо соответствует ценностям скандинавских стран и может быть адаптирована для других регионов.

Модель "Культурного моста" продемонстрировала потенциал для увеличения релевантности глобального образовательного контента на 30-40% в контексте локальных культур. Модель "Коллективного интеллекта" показала возможность повышения эффективности групповой работы на 25% при сохранении традиционных форм взаимодействия. Модель "Цифрового наставничества" позволила расширить охват традиционных форм обучения на 50-60% за счет использования ИИ-технологий. Модель же "Инклюзивного ИИ" продемонстрировала потенциал для увеличения доступности образования для учащихся с особыми потребностями на 35-45%.

Такой подход к локализации глобальных образовательных технологий открывает новые перспективы для развития образования в эпоху цифровизации.

А существуют ли какие-либо препятствия для полноценной реализации этого подхода?

Действительно, реализация предложенных моделей сталкивается с рядом вызовов. К ним относятся вопросы этики использования ИИ в образовании, необходимость развития цифровой инфраструктуры в развивающихся странах и потребность в подготовке педагогов к работе с ИИ-технологиями в контексте национальных образовательных традиций.

Вопросы приватности данных учащихся, прозрачности алгоритмов ИИ и потенциальной предвзятости в оценивании должны быть адресованы при внедрении этих моделей.

И тем не менее, невзирая на эти вызовы, потенциальные преимущества локализованных ИИ-моделей в образовании значительны. Особого внимания заслуживает потенциал предложенных моделей в преодолении цифрового разрыва и обеспечении более равного доступа к качественному образованию. Модель "Цифрового наставничества" показывает, как традиционные формы передачи знаний могут быть расширены и усилены с помощью ИИ, что особенно актуально для регионов с ограниченным доступом к образовательным ресурсам.

В целом, ИИ-модели могут способствовать не только повышению качества образования, но и сохранению культурного разнообразия в глобальном образовательном ландшафте. Это особенно важно в контексте Целей устойчивого развития ООН, которые подчеркивают важность инклюзивного и качественного образования для всех.

Беседовал: основатель и главный редактор журнала
Абдухаким Базарович Маманазаров

JAHON IQTISODIYOTIDA INNOVATSION RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti,
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha PhD, dotsent v.b.
e-mail: j.fayzullaev@nuu.uz
ORCID ID: 0000-0002-2870-307X
https://doi.org/10.5281/zenodo.18976967

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jahon iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish tendensiyalari, ustuvor yo‘nalishlari va omillari tahlil qilingan.

KALIT SO‘ZLAR

innovatsion rivojlanish, milliy innovatsion tizim, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari (ITTKI), innovatsion klasterlar, texnologik ukladkalar, sanoat inqiloblari, venchur moliyalashtirish, intellektual mulk.

ТЕНДЕНЦИИ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ В МИРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

Файзуллаев Жонибек Негматуллаевич

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
PhD, и.о. доцента.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются тенденции, приоритетные направления и факторы инновационного развития мировой экономики.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

инновационное развитие, национальная инновационная система, научно-исследовательские и опытно-конструкторские разработки (НИОКР), инновационные кластеры, технологические уклады, промышленные революции, венчурное финансирование, интеллектуальная собственность.

INNOVATIVE DEVELOPMENT TRENDS IN THE GLOBAL ECONOMY

Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich

National University of Uzbekistan after named Mirzo Ulugbek
PhD in Economics, acting associate professor

ABSTRACT

This article analyzes the innovative development trends, priority areas and factors of the world economy.

KEYWORDS

innovative development, national innovation system, research and development (R&D), innovative clusters, technological paradigm, industrial revolutions, venture financing, intellectual property.

Kirish. Bugungi globallashuv va shiddatli texnologik o‘zgarishlar davrida innovatsion rivojlanish jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi yetakchi omilga aylanmoqda. Iqtisodiyotning barqaror o‘sishi masalasi bilan birgalikda global darajadagi ijtimoiy va ekologik muammolarga yechim topishda yangi g‘oyalar, texnologiyalar va boshqaruv usullarini yaratish hamda joriy etishning ahamiyati ortib bormoqda. Innovatsiyalar milliy iqtisodiyotlarning tuzilishini tubdan o‘zgartirib, mehnat unumdorligini oshirmoqda, yangi bozorlarni ochmoqda va aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Ma’lumki, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish modeli bilimlar va inson kapitali resurslaridan keng foydalanib, fan-texnika taraqqiyoti va innovatsiyalar shaklidagi o‘sish omillari asosida milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish yo‘lidir [9]. Bunday rivojlanish modeliga o‘tishda jahon iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish tendensiyalarini chuqur tahlil qilish, innovatsion jarayonlarning asosiy yo‘nalishlarini, shakllarini va ularning iqtisodiy samaralarini o‘rganish hozirgi va kelajakdagi iqtisodiy siyosatni shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, sun’iy intellekt, “yashil” texnologiyalar, raqamli platformalar kabi innovatsiyalar global iqtisodiy makonni qayta belgilayotgan bir paytda, ushbu jarayonlarni ilmiy asosda tushunish dolzarb hisoblanadi.

Mazkur ilmiy maqola, jahon iqtisodiyotidagi innovatsion rivojlanishning zamonaviy tendensiyalarini aniqlash orqali iqtisodiyotni innovatsion yo‘lga o‘tkazishning nazariy asoslarini boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari. Jahonda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda innovatsiyalar va fan-texnika yutuqlarining iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishdagi o‘rnini tizimli tahlil qilish masalasi global muammo sifatida o‘rganilmoqda. Jumladan, milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish modeliga o‘tkazgan mamlakatlarda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish jarayonlarini innovatsion jihatdan texnik va texnologik qurollantirish, sun’iy intellekt, mikrochiplar, nanotexnologiyalar, biotexnologiyalar, qayta tiklanuvchi resurslar, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish orqali istiqbolda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash masalasi ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Fan-texnika va texnologiyalarning turli davrlardagi rivojlanishi natijasida iqtisodiy munosabatlarining tubdan o‘zgarishiga va iqtisodiy rivojlanish sifatining yanada oshishiga ta’siri bo‘yicha tendensiyalar bir qator tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan. Jumladan, N.D. Kondratyev [1], G.G. Golovenchik [2], K. Shvab [2], D.S. Lvov va S.Y. Glazyev [4] kabi tadqiqotchilar jahon iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishini turli bosqichlardagi texnologik o‘zgarishlariga, sanoat inqiloblariga va texnologik ukladlarga bog‘lab tahlil qilishgan. Jahon intellektual mulk tashkilotining (JIMT) har yillik hisobotlarida muntazam ravishda jahon iqtisodiyotida innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlari dinamikasi bo‘yicha keng qamrovli statistik ma’lumotlar va mamlakatlarning innovatsion rivojlanish darajasi bo‘yicha “Global innovatsiya indeksi” reytingi e’lon qilib boriladi [5, 6, 7, 8].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tadqitotlarda jahon iqtisodiyoti innovatsion rivojlanishining nazariy-uslubiy asosini ishlab chiqish va global tendensiyalarni tahlil qilishga qaratilgan. Biroq, jahon iqtisodiyoti innovatsion rivojlanishining bugungi ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash dolzarb ilmiy muammo bo‘lib qolmoqda.

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi turli bosqichlardagi sanoat inqiloblariga va texnologik ukladlarga bog‘lab tahlil qilgan G.G. Golovenchik “sanoat inqilobi o‘zidan oldingi inqilob yutuqlariga tayangan holda keyingi inqilob uchun shart-sharoitlar yaratib, jahon hamjamiyatini va alohida mamlakatni, jumladan, davlatni, tadbirkorlik subyektlarini va ular o‘rtasidagi munosabatlarni, davlatning boshqaruv va tartibga solish mexanizmlarini, iqtisodiyot va ijtimoiy tizimni, insonning ichki va tashqi dunyosini, oilani va oila ichidagi munosabatlarni tubdan o‘zgartiruvchi inqilob, texnologik uklad esa iqtisodiyotning texnologik tarkibiy tuzilishida ajralib turadigan, bir xil turdagi texnologik zanjirlar orqali bir-biri bilan bog‘langan va takrorlanadigan yaxlitlikni tashkil etuvchi texnologik agregatlar guruhi” [1] deb ta’rif bergan. Shuningdek, sanoat inqiloblari va texnologik

ukladlarning rivojlanish davrlari va xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilib, ularning farqli jihatlarini ajratib ko‘rsatadi (1-jadval).

Birinchi sanoat inqilobi davrida avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish qo‘l mehnatiga asoslangan ishchi kuchini siqib chiqara boshladi, inson mehnatining mashinalar bilan uyg‘unlashish jarayonlari boshlangan. Ikkinchi sanoat inqilobi davridan boshlab innovatsion jarayonlar tizimli va boshqariluvchan xususiyatlarga ega bo‘la boshlagan.

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish modelining zamonaviy xususiyatlari uchinchi sanoat inqilobidan boshlab namoyon bo‘la boshladi. Aynan shu davrdan boshlab bilimlarning keng tarqalishi va ishlab chiqarish bilan birlashishi iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi asosiy omilga aylandi. Mutaxassislarning baholashlaricha, XX asrning ikkinchi yarmida insoniyat ega bo‘lgan bilimlar hajmi har 20 yilda ikki baravardan oshib borgan, shuningdek, 2010-yilgacha bo‘lgan davrda insoniyatning tarixan egallagan bilimlari hajmining 90 foizi uchinchi sanoat inqilobi davrining so‘nggi 30 yili ichida o‘zlashtirilgan [10]. Mehnat unumdorligi ko‘rsatkichi 1870-1920-yillarda ikki baravar oshgan bo‘lsa, undan keyingi davrlarda har 25 yil ichida ikki baravard an oshib bordi [7].

1-jadval

Texnologik ukladlar va sanoat inqiloblari [1]

Texnologik ukladlar	Sanoat inqiloblari	Asosiy o‘sish manbasi	Omillar umumiy mahsuldorligining o‘rtacha yillik o‘sishi, %
I	**1-sanoat inqilobi:** 1770-1840-yillar: bug‘ va yigiruv ishlab chiqarishi davri	bug‘ mashinalari, yigiruv va to‘quv mashinalari, metallurgiya, tokarlik uskunalari	≈ 1,5–2,0
II	**2-sanoat inqilobi:** 1860-1900-yillar: po‘lat va to‘xtovsiz ishlab chiqarish davri	telegraf,temir yo‘llar, ichki yonuv dvigateli, konveyer usuli	
III	1900-1910-yillar: elektr davri	qora metallurgiya, og‘ir muhandislik, elektr, noorganik kimyo, avtomobilsozlik	≈ 1,0
	1920-yillar: elektr davri		≈ 2,0
IV	1930-yillar: neft davri	neft va gazni ishlab chiqarish va qayta ishlash, organik kimyo, aviasozlik, ichki yonuv dvigateli	≈ 3,0
	1940-yillar: neft davri		≈ 2,5
	3-sanoat inqilobi: 1950-1970-yillar: avtomatlashtirish davri	kompyuterlar, mikroelektronika, atom energetikasi, robotlar	≈ 2,0
V	1970-2010-yillar: shaxsiy kompyuterlar va internet davri		≈ 1,5
VI	**4-sanoat inqilobi:** 2010-2060-yillar: raqamli iqtisodiyot va NBIC-texnologiyalari davri	NBIC (nano-, bio-, info- va kogno-) texnologiyalar, genetika, 3D printerlar, dronlar, qayta tiklanuvchi energiya, internet buyumlar, sun’iy intellekt	-

K. Shvab 2010-yildan boshlangan to‘rtinchi sanoat inqilobi va oltinchi texnologik ukladning mazmuni va xususiyatlarini quyidagicha tavsiflaydi: “to‘rtinchi sanoat inqilobi mobil internetning keng tarqalishi, ishlab chiqarish vositalari narxining arzonlashishi va o‘lchamlarining kichrayishi, sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar, jismoniy, raqamli va biologik innovatsiyalarning uyg‘unlashuvi bilan tavsiflanadi, oltinchi texnologik uklad mahsulotning butun hayotiylik sikli davomida qiymat zanjiri tashkil etishning va boshqarishning yangi darajasini, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida yangi bilimlar va texnologiyalarning rivojlanishi va integratsiyalashuvini ifodalovchi yangi konsepsiyadir” [3].

To‘rtinchi sanoat inqilobining dastlabki o‘tgan qisqa muddatli davrida barqaror innovatsion rivojlanish hisobiga mehnat unumdorligi ko‘rsatkichining 2010-2024-yillarda o‘rtacha yillik o‘sishi 1,79 %ni tashkil etdi. Joriy texnologik ukladning ustuvor yo‘nalishlaridan bo‘lgan raqamli iqtisodiyot va qayta tiklanuvchi energetika barqaror rivojlanib bormoqda. Jumladan, ushbu davrda elektron batareyalar narxi yiliga o‘rtacha 16,9 %ga

arzonlashib bordi, elektr transport vositalari hajmi yiliga o‘rtacha 69,12 %dan o‘sdi. 2010-2023-yillarda robotlar va avtomatlashtirish texnologiyalari o‘rtacha yillik 10,99 %dan o‘sdi, qayta tiklanadigan energiya tannarxi tushib bordi, jumladan, quyosh fotoelektrik energiyasi tannarxi yiliga o‘rtacha 15,3 %dan, shamol energiyasi tannarxi esa o‘rtacha 7,3 %dan pasaydi [5, 6, 7, 8].


Jahon iqtisodiyoti innovatsion rivojlanishining joriy bosqichida innovatsion yetakchilik Shimoliy Amerika va Yevropa mamlakatlaridan Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlariga o‘tib bormoqda. Jumladan, jahondagi “Top 100 innovatsion klasterlar”ning 24 tasi Xitoyda, uchtasi Yaponiyada va yana uchtasi Koreya Respublikasida joylashgan bo‘lib, ushbu klasterlarning to‘rttasi “top beshlik”dan joy olgan. Osiyo innovatsion klasterlari jahondagi umumiy patent arizalari sonidagi va global ilmiy nashlar sonidagi ulushi bo‘yicha yaqqol yetakchilik qilib kelmoqda. Venchur moliyashtirish bo‘yicha yetakchilik AQSh va Buyuk Britaniya innovatsion klasterlarida bo‘lsa-da, Xitoy, Yaponiya va Koreya Respublikasi klasterlari ham salmoqli ulushlarga ega (2-jadval).

2-jadval

Jahonning “Top 10 innovatsion klasterlari” va ularning asosiy ko‘rsatkichlari [5]

Reyting	Klaster nomi	Jahon ilmiy nashrlaridagi ulushi	Jahon patent arizalaridagi ulushi	Jahon venchur bitimlaridagi ulushi
1	Shenzhen–Hong Kong–Guangzhou	2,4%	9,0%	2,9%
2	Tokyo–Yokohama	1,4%	10,3%	2,2%
3	San Jose–San Francisco	0,7%	3,9%	6,9%
4	Beijing	4,0%	3,8%	2,9%
5	Seoul	1,7%	5,4%	3,1%
6	Shanghai–Suzhou	2,5%	3,3%	3,7%
7	New York City	0,9%	1,0%	4,8%
8	London	0,7%	0,5%	4,4%
9	Boston–Cambridge	0,9%	1,5%	2,0%
10	Los Angeles	0,5%	0,9%	2,5%


Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan 2021-yilgacha jahonda jami ITTKIga xarajatlar va korxonalarning ITTKI xarajatlari hajmi global YaIMga nisbatan yuqori sur’atlarda o‘sish tendensiyasiga ega bo‘ldi. 2020-yilda global YaIM 3,3 %ga pasaygan bo‘lsa-da, ITTKI xarajatlari AQSh va Xitoydagi yuqori o‘sish hisobiga 3,2 %ga o‘sdi. 2023-yilgacha ITTKIga sarflangan jami va korxonalarning ITTKI xarajatlari hajmi global YaIM hajmiga nisbatan yuqori sur’atlarda o‘sishda davom etgan bo‘lsa-da, 2022-yildan xarajatlar hajmlarining o‘sish sur’atlari sekinlashib bordi va 2024-yilga kelib, jahon YaIMi o‘sish sur’atidan pastroq ko‘rsatkichlar kuzatildi (1-rasm).



1-rasm. Jahonda ITTKIga yalpi xarajatlar va YaIM hajmining o‘sish sur’atlari, o‘tgan yilga nisbatan, foizda [5]

Koronavirus pandemiyasi davrida global YaIM hajmi pasaygan bo‘lsa-da, innovatsion faoliyat sohalariga va innovatsiyalarni yuqori o‘zlashtirgan tarmoqlarga sanitar inqirozning salbiy ta’siri kam bo‘ldi. COVID-19 pandemiyasining innovatsion jarayonlarga ta’siri innovatsion faoliyatning turli yo‘nalishlariga har xil ta’sir ko‘rsatdi. Jumladan, transport va turizm tarmoqlarida innovatsion xarajatlar kamaygan holda farmatsevtika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) tarmoqlarida innovatsion investitsiyalar hajmi ikki baravar oshdi [8].

Jahonda amalga oshirilgan ITTKI xarajatlarining tarmoqlar bo‘yicha o‘sish sur’atlari tahlil qilinganda, dasturiy ta’minot va AKT xizmatlari sohasida juda yuqori darajadagi o‘sish suratlari kuzatilayotganligini, jumladan, 2018-2024-yillar davomida 2 baravardan ko‘proqqa oshganligini ko‘rish mumkin. Qurilish va sanoat metallari tarmoqlarida ham 2018-2023-yillarda juda yuqori o‘sish sur’atlari qayd etilgan bo‘lsa-da, 2024-yilda pasayish kuzatilgan. Shuningdek, sayohat, dam olish va shaxsiy buyumlar, avtomobillar bo‘yicha ham ITTKI xarajatlari 2024-yilda kamaygan (2-rasm).




2-rasm. Jahonda ITTKIga xarajatlarning tarmoqlar bo‘yicha o‘sish tendensiyalari, 2018-yilga nisbatan, foizda [5]

To‘rtinchi sanoat inqilobining dastlabki bosqichidagi tendensiyalardan kelib chiqib, innovatsiyalar va fan-texnika yutuqlarining kelgusi istiqbolda barqaror iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlariga aylanishi borasidagi pessimistik va optimistik qarashlar shakllanmoqda.

Ayrim texnologik pessimistlarning fikriga ko‘ra, innovatsiyalar taklifi kamayib bormoqda, innovatsiyalarga aylanadigan g‘oyalarni topish esa tobora qiyinlashmoqda, mavjud innovatsiyalar omillar mahsuldorligining oshishiga oldingi texnologik ukladlardagi innovatsiyalar kabi yuqori ta’sir ko‘rsatmayapti [11].


Innovatsiyalarga yo‘naltirilayotgan katta hajmdagi investitsiyalarga qaramasdan yangi innovatsiyalarni ishlab chiqish va rivojlantirish ko‘p xarajat talab qiluvchi ishga aylanib borayotganligi, fan-texnika taraqqiyoti sur’atlari sekinlashib va ITTKIning mahsuldorligi pasayib borayotganligi haqidagi yondashuvlar ham mavjud [12].

Xalqaro valyuta jamg‘armasi ma’lumotlari ham fan-texnika taraqqiyoti sur’atlari sekinlashib borayotganligini tasdiqlaydi. Jumladan, fan-texnika taraqqiyoti sur’atlarini ifodalovchi omillar umumiy mahsuldorligining global iqtisodiy o‘sishga qo‘shgan hissasi 2001-2007-yillarda +1,5 %dan yuqori bo‘lgan bo‘lsa, 2020-2023-yillarga kelib +0,6 %gacha pasayib ketdi. Tahlil qilingan davr davomida kapital hajmi jahonda iqtisodiy o‘sishdagi hissasi bo‘yicha yetakchi omil bo‘lib, omillar umumiy mahsuldorligi mehnat omiliga nisbatan ko‘proq hissa qo‘shib kelgan (3-rasm).



3-rasm. Jahon YaIMi o‘sishida omillar hissalari, %da [13]

ITTKI mahsuldorligi ITTKIga qilingan xarajatlarning YaIMdagi ulushi sifatida aniqlanishidan kelib chiqib, uning dinamikasi bo‘yicha tahlillar amalga oshirilganda ITTKI mahsuldorligi pessimistik yondashuvlardagidek emas, aksincha, 2010-yilgacha bo‘lgan davrda pasayib, 2010-yildan so‘ng oshib borayotganligi aniqlandi. Ushbu ko‘rsatkichning jahondagi o‘rtacha qiymati 2010-2024-yillarda 2,01 %dan 2,67 %gacha, yuqori daromadli mamlakatlarda 2,32 %dan 2,92 %gacha, o‘rta yuqori daromadli mamalakatlarda 1,20 %dan 2,14 %gacha oshib borgan. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha Koreya Respublikasi jahonda yetakchilik qilib kelmoqda. Dunyoning eng yirik iqtisodiyotlari bo‘lgan AQSh va Xitoy jahonda ITTKIga eng ko‘p xarajatlar qiladigan mamlakatlar (jahon ITTKI xarajatlaridagi ulushi mos ravishda 47% va 18%) bo‘lsalar-da, ushbu xarajatlarning YaIMdagi ulushi ko‘rsatkichi bo‘yicha Koreya Respublikasidan sezilarli darajada past ko‘rsatkichga ega bo‘lib kelishmoqda, jumladan eng yaqin ta’qibchi AQSh +1,62 %bandga past ko‘rsatkichga ega bo‘lib turibdi. Xitoyda ushbu ko‘rsatkich 2010-2022-yillarda 1,71 %dan 2,56 %gacha oshgan bo‘lsa-da, jahondagi o‘rtacha darajadan past qiymatda bo‘lib kelmoqda (4-rasm).



4-rasm. Jahonda ITTKI xarajatlarining YaIMdagi ulushi, %da[1]

[1] Jahon banki ma’lumotlari (https://data.worldbank.org/indicator/GB.XPD.RSDV.GD.ZS) asosida muallif tomonidan tuzildi.

Bundan tashqari, ayrim texnologik pessimistlar bugungi innovatsion tizimlarni oldingidek samarali emas deb hisoblashmoqda. Buni jahonda ITTKIga sarflanayotgan yalpi xarajatlar hajmi ortib borayotgan bo‘lsa-da, ixtirolar soni kamayib borayotganligi asoslashmoqda [14]. Yirik firmalar o‘zlarining ITTKIni amalga oshirishdan ko‘ra universitetlarning tadqiqot loyihalarini litsenziyalashni afzal ko‘rishayotgani, xususiy tadqiqot imkoniyatlarining pasayishi oqibatida bozordagi innovatsiyalar va labaratoriyadagi ilmiy kashfiyotlar o‘rtasidagi bog‘liqlik zaiflashishi natijasida innovatsiyalarni yaratish, o‘zlashtirish va uning iqtisodiyotga ta’sir qilish tezligi va samaradorligi pasayayotganligi borasidagi qarashlar ham mavjud [15].


Shuningdek, ayrim mutaxassislar fikriga ko‘ra, yaratilayotgan yangi innovatsion texnologiyalar oldingi davrlardagidek inqilobiy xususiyatga ega emas. Jumladan, o‘tgan texgologik ukladlardagi ichki yonuv dvigateli, elektr, samolyotlar kabi buyuk ixtirolar agrar iqtisodiyotdan sanoatlashgan iqtisodiyotga qisqa muddatda o‘tish imkonini berdi va keyinchalik xizmatlarga asoslangan iqtisodiyotning rivojlanishiga olib kelgan edi. Bugungi innovatsiyalar bu borada hanuzgacha tarixiy innovatsiyalar kabi katta natijalar keltirmadi [16].

Albatta, texnologik pessimistlarning yondashuvlariga qo‘shilmasdan, bir qator optimistik qarashlarni ilgari surayotgan ko‘plab mutaxassislar ham mavjud. Ayrim texnologik optimistlar omillar umumiy mahsuldorligining eksponensial o‘sish ko‘rsatkichini turli davrlarning innovatsion rivojlanish samaradorligini baholash uchun noto‘g‘ri yondashuv deb hisoblashadi va buning o‘rniga jon boshiga YaIM yoki mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlaridan foydalanishadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, iqtisodiyotdagi mahsuldorlik eksponensial oshmasligi takidlanadi, shuningdek 1970-yillargacha bo‘lgan o‘sish sur’atlarini kelajak uchun mezon sifatida qo‘llash noto‘g‘ri bo‘lib, XIX-XX asrlardagi o‘sish sur’atlari me’yor emas, balki istisno ekanligi aytib o‘tiladi [17].

JIMT ma’lumotlariga ko‘ra, aholi jon boshiga YaIM ko‘rsatkichi 1300-1819-yillarda o‘rtacha 0,2 % dan, 1820-1949-yillarda 1,1 %dan oshgan bo‘lsa, 1950-2021-yillarda 1,9 %dan o‘sgan [7]. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra esa ushbu ko‘rsatkich 2010-2024-yillarda 1970-2009-yillardagi 1,6 %lik o‘rtacha o‘sishdan biroz bo‘lsa-da yuqoriroq 1,9 %lik real o‘sishga erishdi[2]. Ushbu tendensiyalar yuqoridagi optimistik qarashlarning o‘rinli ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, dunyoning bir qator yirik iqtisodiyotga ega mamlakatlarida 1970-yilga qaraganda mehnat unumdorligi o‘sish suratlari sekinlashgan bo‘lsa-da, bugungi kunga qadar bir necha baravar oshgan (5-rasm).

[2] Jahon banki ma’lumotlari (World Bank national accounts data, and OECD National Accounts data files. https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.PCAP.KD.ZG) asosida muallif tomonidan hisoblandi .



5-rasm. Dunyoning ayrim yirik iqtisodiyotlarida 1970- va 2021-yillarda mehnat unumdorligi (xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha 2021-yildagi xalqaro dollarda ifodalangan real YaIMning bir ishchiga to‘g‘ri keluvchi nisbati) [7]

Jahonda mehnat unumdorligi 2024-yilda 2,5% oshdi va 2010-2024-yillardagi o‘rtacha o‘sish sur’atlaridan yuqori darajadir [5].

Ushbu tendensiyalardan bugungi kunda past sur’atlarda o‘sayotgan mehnat unumdorligi kelajakda sezilarli yaxshilanishlarga olib kelishini kutish mumkin va yuqorida ko‘rib chiqilgan optimistik qarashlarni haqiqatda ilmiy asosga ega deb hisoblash mumkin.

Ayrim optimist mutaxassislarning fikriga ko‘ra, yirik fan yutuqlari allaqachon katta natijalarga erisha boshlagan, ularning barcha sanoat tarmoqlaridagi innovatsiyalarga aylanish potensiali avvalgi innovatsiyalar va mahsuldorlik sur’atlari bilan teng yoki undan yuqoridir. Ular bunday yutuqlarga qayta tiklanuvchi energiya (shamol, quyosh, geotermal energiya bilan bog‘liq va batareya texnologiyalari) tannarxining pasayib borayotganligini, raqamli (sun’iy intellekt) va nanotexnologiyalarning jadal rivojlanib borayotganligi, kosmik tadqiqotlar tannarxining pasayishini misol keltirishadi [18].

Texnologik optimistlar keltirayotgan asosiy mezonlardan yana biri innovatsiyalarning firma, tarmoq, mintaqa va xalqaro darajada notekis tarqalishi bilan bog‘liq muammolar mavjudligi sharoitida ularning tarqalishi bo‘yicha ulkan potensial ham mavjud bo‘lib, bu orqali erishilmagan mahsuldorlik o‘sishiga erishish uzoq vaqtni talab etadi. Sun’iy intellekt, kvant hisoblash, yangi materiallar yoki bioinformatika yutuqlari istiqbolli bo‘lib, iqtisodiy mahsuldorlikning yuqori sur’atlarda o‘sishiga o‘z hissasini qo‘shishiga o‘nlab yillar ketishi mumkin.

Yana bir guruh optimistlar fikriga ko‘ra, bugungi kundagi iqtisodiy mahsuldorlik to‘liq baholanmayotganligi yoki butunlay noto‘g‘ri baholanayotgan bo‘lishi mumkin. YaIMni hisoblash metodologiyasi tarixan turlicha bo‘lgan va yillar davomida takomillashtirib borilgan. Ikkinchi jahon urushidan keyingi dastlabki davrlarda iqtisodiyot asosan mahsulot ishlab chiqarishga asosalangan bo‘lsa, bugungi kunda iqtisodiyot tarkibida xizmatlar sohasi ulushi yuqoridir. Bugun xizmatlarning turli innovatsion shakllari yo‘lga qo‘yilayotgan sharoitda, ularning qiymati, shuningdek, nomoddiy aktivlarga investitsiyalar qiymatlarini baholash bilan bog‘liq masalalar murakkablashib bormoqda [19]. Bunday sharoitda to‘la baholanmagan xizmatlar hisobiga YaIM to‘liq baholanmaydi va YaIM asosida aniqlanadigan mahsuldorlik ko‘rsatkchilari qiymati ham pasayadi.

Xulosa. Jahon iqtisodiyotida innovatsion rivojlanish jarayonlari so‘nggi o‘n yillikda tubdan yangi bosqichga ko‘tarilib, global iqtisodiy o‘sishning asosiy drayveriga aylanmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, to‘rtinchi sanoat inqilobi va oltinchi texnologik uklad sharoitida raqamli texnologiyalar, NBIC-texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya, sun’iy intellekt va biotexnologiyalar ta’siri jadal kuchayib bormoqda. Mazkur jarayonlar innovatsion mahsulotlar tannarxining pasayishi, yangi sanoat tarmoqlarining shakllanishi, mehnat unumdorligi va iqtisodiy samaradorlikning bosqichma-bosqich oshishiga sabab bo‘lmoqda.

Global statistik ma’lumotlarning tahlili innovatsion yetakchilikning geografik dinamikasida sezilarli siljishlar kuzatilayotganini tasdiqlaydi: AQSh va Yevropa o‘rnini tobora ko‘proq Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya hamda Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari egallamoqda. Venchur moliyalashtirish, ITTKI xarajatlari va patent faolligi bo‘yicha aynan ushbu mintaqa klasterlari jahon innovatsion manzarasini qayta shakllantirmoqda.

Shu bilan birga, global ilmiy hamjamiyatda innovatsion rivojlanishning kelajak istiqbollari borasida ikki asosiy yondashuv — texnologik pessimizm va texnologik optimizm — mavjud. Pessimistik yondashuvlar fan-texnika taraqqiyotining sekinlashuvi, ITTKI mahsuldorligining pasayishi va inqilobiy innovatsiyalar kamayganini asos qilsa, optimistik yondashuvlar qayta tiklanuvchi energiya, sun’iy intellekt, nanotexnologiyalar, genetika va raqamli platformalarning ulkan potensialini ta’kidlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pessimistlarning ayrim farazlariga qaramay, mehnat unumdorligi, aholi jon boshiga YaIM, YaIMda ITTKI ulushi kabi ko‘rsatkichlarda so‘nggi yillarda ijobiy dinamika kuzatilmoqda. Bu esa kelgusida global innovatsion rivojlanishning yuqori salohiyatga egaligidan dalolat beradi.

Umuman olganda, jahon iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish tendensiyalari iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyalashuvini, bilim talab qiluvchi tarmoqlarning kengayishini va ilm-fan bilan ishlab chiqarish integratsiyasining chuqurlashuvini tezlashtirmoqda. To‘rtinchi sanoat inqilobining hozirgi erta bosqichi shuni ko‘rsatadiki, kelgusi o‘n yilliklarda innovatsion texnologiyalarning iqtisodiy taraqqiyotga ta’siri keskin kuchayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кондратьев Н.Д. Большие циклы конъюнктуры и теория предвидения. Избранные труды Н.Д Кондратьев; Международный фонд Н.Д. Кондратьева и др.; Ред. колл.: Абалкин Л.И. (пред.) и др.; сост. Яковец Ю.В. [Текст] — М.: ЗАО "Издательство "Экономика". 2002. - 767 с.
2. Головенчик, Г.Г. Цифровизация белорусской экономики в современных условиях глобализации / Г.Г. Головенчик. – Минск: Изд. центр БГУ, 2019. – 257 с. Ст. 35.
3. Шваб, К. Четвертая промышленная революция / К. Шваб. – М.: Эксмо, 2016. – 138 с.
4. Львов, Д. С. Теоретические и прикладные аспекты управления НТП / Д. С. Львов, С. Ю. Глазьев // Экономика и математические методы. – 1986. – № 5. – С. 793–804.
5. World Intellectual Property Organization (WIPO) (2024). Global Innovation Index 2025: Innovation at a Crossroads. Geneva: WIPO. DOI: 10.34667/tind.58864.
6. World Intellectual Property Organization (WIPO) (2024). Global Innovation Index 2024: Unlocking the Promise of Social Entrepreneurship. Geneva: WIPO. 10.34667/tind.50062.
7. World Intellectual Property Organization (WIPO) (2022). Global Innovation Index 2022: What is the future of innovation-driven growth? Geneva: WIPO. – 87 p. P-65. // DOI 10.34667/tind.46596.
8. WIPO (2021). Global Innovation Index 2021: Tracking Innovation through the COVID-19 Crisis. Geneva: World Intellectual Property Organization.
9. Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi: mohiyati va xususiyatlari // “Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti” ilmiy-amaliy jurnali, №5 (7), 2025. 52-57.
10. Глазьев С.Ю. Стратегия опережающего развития российской экономики в условиях глобального кризиса. — М., Экономика. 2010. – 287 с.
11. Bloom, Nicholas, Charles I. Jones, John Van Reenen, and Michael Webb. 2020. "Are Ideas Getting Harder to Find?"// American Economic Review #110 (4): 1104–44. DOI: 10.1257/aer.20180338.
12. Collison, P. and M. Nielsen (2018). Science Is Getting Less Bang for Its Buck //The Atlantic, November 16, 2018. www.theatlantic.com/science/archive/2018/11/diminishing-returns-science/575665/.
13. International Monetary Fund. 2024. World Economic Outlook— Steady but Slow: Resilience amid Divergence. Washington, DC. April.
14. Arora, A., S. Belenzon and A. Patacconi (2018). The decline of science in corporate R&D// Strategic Management Journal, 39(1): 3–32.
15. Arundel, A., S. Athreye and S. Wunsch-Vincent (eds) (2021). Harnessing Public Research for Innovation in the 21st Century: An International Assessment of Knowledge Transfer Policies (Intellectual Property, Innovation and Economic Development). Cambridge: Cambridge University Press. doi:10.1017/9781108904230.
16. Gordon, R. (2012). Is US Economic Growth Over? Faltering Innovation Confronts the Six Headwinds. NBER Working Paper No. 18315. National Bureau of Economic Research.
17. Philippon, T. (2022). Additive Growth. NBER Working Paper No. w29950. National Bureau of Economic Research: https://ssrn.com/abstract=4086241.
18. Cowen, T. (2020). What might an end to the Great Stagnation consist of? Marginal Revolution: https://marginalrevolution.com/marginalrevolution / 2020/12/why-did-the-great-stagnation-end.html.
19. Brynjolfsson, E. and G. Petropoulos (2021). The coming productivity boom. //MIT Technology Review.

DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY INSTRUMENTLARI VA ULARNI QO‘LLASH MASALALARI

Hamidova Iroda

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, magistrant
https://doi.org/10.5281/zenodo.18977344

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekistonning davlat qarzini boshqarish tizimi, uning zamonaviy instrumentlari hamda ularni qo‘llashda yuzaga kelayotgan masalalar chuqur tahlil qilinadi. Global foiz stavkalari o‘sishi, tashqi moliyalashtirish shartlarining murakkablashuvi va valyuta xavflarining kuchayishi sharoitida davlat qarzining barqarorligini ta’minlash dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqotda xalqaro tajribalar, O‘zbekistonning joriy makroiqtisodiy holati, qarz portfeli tarkibi, joriy operatsiyalar hisobi dinamikasi hamda risk-menejment mexanizmlari kompleks tahlil qilindi. Shuningdek, suveren obligatsiyalar, “yashil” va tematik obligatsiyalar, ichki bozor instrumentlari, xedjlash vositalari kabi zamonaviy moliyaviy instrumentlarning afzalliklari va cheklovlari yoritildi. Muallif tomonidan davlat qarzini boshqarishni modernizatsiya qilish, risklarni kamaytirish va qarzdan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy takliflar ilgari surilmoqda.

KALIT SO‘ZLAR

davlat qarzi, qarz barqarorligi, suveren obligatsiyalar, qarz portfeli, MTDS strategiyasi, valyuta xavfi, xedjlash, joriy hisob, risk-menejment, ichki obligatsiyalar bozori, refinanslash, tematik obligatsiyalar.

СОВРЕМЕННЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ УПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫМ ДОЛГОМ И ПРОБЛЕМЫ ИХ ПРИМЕНЕНИЯ

Хамидова Ирода

Ташкентский международный университет Кимё, магистрант

АННОТАЦИЯ

В данной статье всесторонне анализируется система управления государственным долгом Узбекистана, современные инструменты долговой политики и возникающие при их применении проблемы. На фоне роста глобальных процентных ставок, усложнения условий внешнего финансирования и усиления валютных рисков обеспечение долговой устойчивости становится одной из ключевых экономических задач. В исследовании рассмотрены международный опыт, текущее макроэкономическое положение Узбекистана, структура портфеля государственного долга, динамика счета текущих операций и механизмы управления рисками. Особое внимание уделено применению суверенных облигаций, “зелёных” и тематических облигаций, инструментов внутреннего рынка и хеджирования. В заключение предложены практические рекомендации по модернизации системы управления государственным долгом, снижению рисков и повышению эффективности использования заёмных средств.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

государственный долг, устойчивость долга, суверенные облигации, портфель долга, стратегия MTDS, валютный риск, хеджирование, текущий счет, управление рисками, внутренний рынок облигаций, рефинансирование, тематические облигации.

MODERN INSTRUMENTS OF PUBLIC DEBT MANAGEMENT AND ISSUES OF ITS APPLICATION

Hamidova Iroda

Kimyo International University in Tashkent, master's student

ABSTRACT

A comprehensive analysis of Uzbekistan's public debt management system, focusing on modern debt instruments and the key challenges associated with its implementation has been conducted. In the context of rising global interest rates, tightening external financing conditions, and increasing currency risks, maintaining debt sustainability has become a critical policy priority. The study examines international best practices, Uzbekistan's macroeconomic environment, the structure of the public debt portfolio, the dynamics of the current account, and risk-management mechanisms. Special attention is given to contemporary financial instruments such as sovereign bonds, green and thematic bonds, domestic market tools, and hedging instruments. The article concludes with practical recommendations aimed at modernizing debt management, reducing vulnerabilities, and improving the efficiency and sustainability of public borrowing.

KEYWORDS

Public debt, debt sustainability, sovereign bonds, debt portfolio, MTDS strategy, currency risk, hedging, current account, risk management, domestic bond market, refinancing, thematic bonds.

Kirish. Bugungi global va milliy iqtisodiy sharoitlarda davlat qarzini boshqarish masalalari har qancha muhim va dolzarb bo'lib qolmoqda. Jahon miqyosida davlat va xususiy sektor qarzlari bo'yicha og'ir yuklama kundan-kunga oshib bormoqda: 2025-yil holatiga global davlat qarzlari qiymati taxminan 111 trillion AQSh dollarini tashkil etgan[1].

Shu bilan birga, umumiy jahon qarzlari 2024–2025-yillarda qayta o'sishga o'tdi va global yalpi qarz hajmi 251 trillion dollarga yetdi, natijada jahon iqtisodiyotida qarzga bog'liqlik va fiskal barqarorlik xavfi qayta ko'tarildi.

Bu holatlar davlat qarzini boshqarish bo'yicha samarali va zamonaviy instrumentlar zarurligini keskin oshirmoqda. Chunki qarzlar dinamik, murakkab va ko'p omillarga bog'liq bo'lib qolmoqda: global makroiqtisodiy vaziyat, valyuta kurslari, foiz stavkalari, investitsiya ehtiyojlari, infratuzilma loyihalari va ijtimoiy xarajatlarning barchasi qarz siyosatini mos, puxta va oldindan rejalashtirilgan bo'lishini talab etadi.

2025-yil 1-oktabr holatiga kelib, O'zbekiston xususan, uning davlat qarzi bo'yicha ham dolzarb vaziyat paydo bo'ldi, ya'ni mamlakatning jami davlat qarzi 43,97 milliard dollarni tashkil etdi, shundan 36,7 milliard dollar tashqi qarz, 7,2 milliard dollar ichki qarz[2].

Ushbu ko'rsatkichlar nafaqat davlat byudjeti, balki iqtisodiy o'sish, investitsiya salohiyati, ijtimoiy xarajatlar va moliyaviy barqarorlik uchun ham sezilarli sinovdir. Qarz hajmining Yalpi Ichki Mahsulotga (YaIM) nisbati, tashqi kreditlar strukturasidagi valyuta xatarlari, foiz yuki va qaytarish jadvali kabi omillar davlat moliyasining samarali boshqaruvini talab qilishini ko'rsatadi.

Shuning uchun ham, bugungi kunda davlat qarzini boshqarish maydonida eski yondoshuvlar bilan emas, balki zamonaviy instrumentlarga tayanadigan integratsiyalashgan, prognozga asoslangan, xavf-minimalizatsiyali strategiyalarni ishlab chiqish va joriy etish zarurati tug'ildi. Davlat qarzini boshqarish barqaror bo'lmasa, shakllantirilgan qarz yuklama, foiz to'lovlari va valyuta risklari mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish sur'atini pasaytirishi, investitsiyalar oqimini qisqartirishi va ijtimoiy xarajatlarning byudjetga bosimini oshirishi mumkin.

Shu jihatdan, davlat qarzini boshqarishda zamonaviy instrumentlar joriy etish va ularni puxta boshqarish - mamlakat moliyaviy salomatligini, iqtisodiy mustaqillikni va barqaror rivojlanish yo'lini ta'minlashda demokratik, mas'uliyatli hamda ilg'or siyosat demakdir.

Adabiyotlar sharhi. So'nggi yillarda davlat qarzini boshqarish masalalari global ilmiy hamjamiyatning asosiy tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xalqaro moliya institutlari, iqtisodchi olimlar va davlat moliyasi bo'yicha mutaxassislar davlat qarzining barqarorligi, uning iqtisodiy

[1] https://www.visualcapitalist.com/111-trillion-of-global-debt-in-2025

[2] https://www.uzdaily.uz/uz/o%CA%BBzbekistonning-davlat-qarzi-44-milliard-dollarga-yetdi

o‘sishga ta’siri hamda zamonaviy risk-menejment mexanizmlarini chuqur o‘rganib kelmoqda. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ/IMF, 2023, 2024) va Jahon banki (World Bank, 2022, 2023) hisobotlarida ta’kidlanishicha, davlat qarzi hajmining jadal o‘sishi, foiz stavkalarining ko‘tarilishi, global makroiqtisodiy beqarorlik va geosiyosiy keskinliklar qarz barqarorligini saqlashni yanada murakkablashtirmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar uchun qarz portfelining diversifikatsiyasi va risklarni boshqarishning ilg‘or instrumentlari dolzarblik kasb etmoqda.

Davlat qarzi bo‘yicha nazariy asoslar Reinhart va Rogoff (2010, 2023) tomonidan chuqur tahlil qilingan bo‘lib, ular davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbati oshgan sari iqtisodiy o‘sish potensiali kamayishini empirik dalillar asosida ko‘rsatadi. So‘nggi tadqiqotlarda Panizza va Presbitero (2021, 2022) davlat qarzining iqtisodiy faollik, investitsiyalar va fiskal barqarorlikka ta’sirini qayta ko‘rib chiqib, qarzning o‘zi muammo emas, balki uni boshqarish sifati hal qiluvchi omil ekanini ta’kidlaydi.

Zamonaviy qarz instrumentlari suveren obligatsiyalar, qarzni qayta moliyalashtirish strategiyalari, mamlakatning kredit reytingi bilan bog‘liq mexanizmlar, derivativ vositalar hamda valyuta risklarini xedjlash instrumentlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar ko‘paygan. Eichengreen (2021, 2023) suveren obligatsiyalar bozorining kengayishi va davlatlar uchun xalqaro kapital bozorlariga chiqishning afzalliklarini tahlil qilgan. Muallifning fikricha, ochiq bozor instrumentlari davlatning fiskal ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi, biroq risk-menejment tizimi yetarli bo‘lmasa, qarz yuki yanada og‘irlashishi mumkin.

So‘nggi yillarda davlat qarzini boshqarishda risklarni raqamli modellashtirish, qarz portfeli simulyatsiyasi, foiz stavkalari bo‘yicha stress-testlar va makroprudensial yondashuvlar faol joriy qilinmoqda. Allen va Carletti (2022) davlat moliyasi barqarorligini baholashda makroprudensial tartibga solish mexanizmlarining ahamiyatini asoslab, davlat qarzining tarkibi, muddat tuzilishi va foiz riskini birgalikda boshqarish zarurligini qayd etadi.

Rivojlanayotgan davlatlar bo‘yicha tadqiqotlar (Aizenman va Jinjarak, 2021; Gelos va b., 2022) davlat qarzi natijasida yuzaga keladigan fiskal bosim, valyuta xavfi va tashqi bozorga bog‘liqlik darajasi yuqoriligini ta’kidlaydi. Ushbu ishlar qarzni jalb qilishdan ko‘ra, uni samarali boshqarishning o‘zi rivojlanish uchun hal qiluvchi kuchga egaligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston bo‘yicha o‘tkazilgan so‘nggi tadqiqotlar (Abdurahmanov, 2023; Rahimov, 2024) davlat qarzining o‘sish dinamikasi, uning tarkibi, byudjetga yuklamasi va iqtisodiy barqarorlikka ta’sirini tahlil qilgan. Tadqiqotlar mamlakatning tashqi qarz portfelida valyuta riskining yuqoriligi, foiz stavkalarining o‘zgaruvchanligi va muddatlarning konsentratsiyalashganligi sababli zamonaviy risklarni kamaytirish instrumentlarini keng qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Davlat qarzini boshqarish masalalari bo‘yicha O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan biri Tohir Malikovning so‘nggi yillardagi tadqiqotlari ham mazkur mavzuning nazariy va amaliy asoslarini boyitishga xizmat qilmoqda. Malikov (2022, 2024) o‘z izlanishlarida davlat qarzi dinamikasi, fiskal barqarorlik, qarzga xizmat ko‘rsatish yuklamasi hamda tashqi moliyaviy manbalarning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini chuqur tahlil qiladi. Muallifning fikricha, davlat qarzi iqtisodiy rivojlanish uchun muhim moliyaviy manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin, biroq uning samarali boshqaruvi yetarli bo‘lmasa, foiz to‘lovlari oshishi, valyuta xavflari kuchayishi va fiskal bosim ortishi kabi xavflar yuzaga keladi.

Malikov davlat qarzini boshqarishda qarzning muddat tuzilishini optimallashtirish, ichki obligatsiyalar bozorini chuqurlashtirish, valyuta risklarini minimallashtirish, hamda qarz barqarorligini baholashning integratsiyalashgan metodikasidan foydalanish zarurligini taklif qiladi. Uning tadqiqotlarida davlat qarzini boshqarish tizimida raqamli monitoring mexanizmlarini joriy etish, qarz risklari bo‘yicha stress-testlar o‘tkazish, va qarz portfelini diversifikatsiya qilish muhim strategik yo‘nalishlar sifatida ta’kidlanadi.

Xalqaro ekspertlar (Blanchard, 2022; Wyplosz, 2020; Obstfeld, 2023) fikricha, davlat qarzini samarali boshqarishning asosiy yo‘nalishlari qarz portfelini diversifikatsiyalash, ichki bozorni rivojlantirish, uzoq muddatli arzon resurslar ulushini oshirish, raqamli nazorat mexanizmlarini kuchaytirish hamda shaffoflikni ta’minlashdan iborat. Bu yondashuvlar fiskal barqarorlikni saqlash, iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash va tashqi tavakkalchiliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, davlat qarzini boshqarishning zamonaviy instrumentlari nafaqat moliyaviy mexanizmlar yig‘indisi, balki strategik yondashuv, shaffof boshqaruv, tavakkalchiliklarni real baholash va raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etishni talab qiladigan kompleks tizimdir. So‘nggi ilmiy manbalar davlat qarzini faqat jalb qilish emas, balki uni oqilona, barqaror va uzoq muddatli rivojlanishga mos tarzda boshqarish eng muhim vazifa ekanini ilmiy asoslaydi.

Metodoligiya. Ushbu tadqiqotda davlat qarzini boshqarishning zamonaviy instrumentlarini aniqlash, ularning samaradorligini baholash hamda O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini

asoslash maqsadida kompleks ilmiy yondashuv qo‘llaniladi. Tadqiqot, avvalo, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki, Xalqaro Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Xalqaro hisob-kitoblar banki(BIS) kabi xalqaro moliyaviy institutlarning so‘nggi yillarda e’lon qilingan statistik ma’lumotlari, global qarz bo‘yicha yillik hisobotlar va davlat qarzi dinamikasiga oid ochiq ma’lumotlar bazasi asosida kontent tahlili usuli orqali o‘rganiladi. Reinhart va Rogoff, Panizza va Presbitero, Eichengreen, Blanchard kabi yetakchi iqtisodchilarning davlat qarzining barqarorligi, qarz risklari va suveren obligatsiyalar bozoriga oid ilmiy ishlari komparativ tahlil asosida solishtirilib, zamonaviy yondashuvlarning o‘zaro farqi va umumiyliklari aniqlanadi.

Shuningdek, O‘zbekistonning davlat qarzi bo‘yicha rasmiy statistik manbalari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Moliya vazirligining Davlat qarzini boshqarish agentligi, Markaziy bank hisobotlari, normativ-huquqiy hujjatlar, davlat qarzini jalb qilish siyosatiga doir strategik yo‘nalishlar tizimli tarzda tahlil qilinadi. Qarzdorlikning YaIMga nisbati, qarzning valyuta tarkibi, muddat tuzilishi, foiz yuki, qaytarish grafigi, ichki va tashqi qarz o‘rtasidagi mutanosiblik ko‘rsatkichlari tahlili yordamida baholanadi. Qarz portfeli xavflarini aniqlashda risk-menejment modeli, foiz stavkalari bo‘yicha ehtimoliy o‘zgarishlarni baholashda esa stress-test yondashuvi qo‘llaniladi.

Metodologiya doirasida sifat jihatidan (qualitative) va miqdoriy (quantitative) tadqiqot usullari uyg‘unlashtirilib, davlat qarzini boshqarishning zamonaviy instrumentlari - suveren obligatsiyalar, qarzni qayta moliyalashtirish, diversifikatsiya strategiyalari, xedjlash vositalari, raqamli monitoring tizimlari, ularning nazariy asoslari va amaliy qo‘llanishi nuqtai nazaridan baholanadi. Global tajriba va mahalliy sharoitlar o‘rtasidagi bog‘liqlik kompleks tizimli yondashuv asosida tahlil qilinib, O‘zbekiston uchun mos bo‘lgan optimal strategik yo‘nalishlar ishlab chiqiladi.

Ushbu metodologik yondashuv tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta’minlaydi, zamonaviy qarz boshqaruvi instrumentlarining afzalliklari, cheklovlari va qo‘llash shart-sharoitlarini aniqlashga imkon yaratadi hamda O‘zbekiston davlat moliyasida barqaror qarz siyosatini shakllantirish uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tahllil va natijalar muhokamasi. 2025-yil birinchi choragi yakuniga ko‘ra, O‘zbekistonning umumiy tashqi qarz hajmi 68,4 mlrd dollarni tashkil qilib, shundan davlat tashqi qarzi hajmi 35,8 mlrd dollar hamda korporativ tashqi qarz hajmi esa 32,6 mlrd dollarga teng bo‘ldi.[3]

So‘nggi yillarda jahon miqyosida davlat qarzini boshqarish masalalari global moliyaviy kun tartibining eng sezgir yo‘nalishlaridan biriga aylandi. BMTning Savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasining (UNCTAD) 2025-yilda e’lon qilingan “A World of Debt 2025”(Qarzlar dunyosi-2025) hisobotiga ko‘ra, 2024-yil oxirida global davlat qarzi 102 trillion AQSH dollariga yetib, 2023-yilga nisbatan 5 trillion dollarga oshgani qayd etilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich ko‘plab davlatlarda fiskal barqarorlik va qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlarining keskin ortishi bilan kechmoqda.

XVJning 2025-yil aprel oyidagi tahlillarida global davlat qarzi 2025-yilda YaIMga nisbatan 95 foizdan oshishi, o‘n yillik oxiriga borib esa 100 foizga yaqinlashishi prognoz qilinib, davlatlar uchun fiskal “zaxiralar”ni qayta tiklash va qarz barqarorligini ta’minlash bo‘yicha qat’iy chora-tadbirlar zarurligi ta’kidlanadi.

Jahon bankining xalqaro qarz bo‘yicha so‘nggi hisobotlari ham rivojlanayotgan davlatlarda qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlari rekord darajaga chiqqanini, foiz to‘lovlari keskin oshgani va yangi moliyalashtirish ancha qimmatlashganini ko‘rsatmoqda, bu esa zamonaviy qarz boshqaruvi instrumentlarini joriy etish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Shu bilan birga, XVJ va Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan o‘rta muddatli qarz boshqaruvi strategiyasi (MTDS) konsepsiyasi ko‘plab davlatlar amaliyotiga joriy qilinib, qarz portfelini valyuta, muddat va foiz stavkalari bo‘yicha diversifikatsiya qilish, turli qarz strategiyalarining “xarajat–xavf” muvozanatini modellash va simulyatsiya qilish bo‘yicha metodik asos bo‘lib xizmat qilmoqda; mazkur yondashuvlar bo‘yicha maxsus treninglar, texnik ko‘mak dasturlari va analitik vositalar orqali davlatlar institutsional salohiyatini oshirish ishlari olib borilmoqda.

Rivojlangan va ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar suveren obligatsiyalar bozoridagi qatnashuvini kengaytirish, “yashil” va ijtimoiy obligatsiyalar, sukuk kabi tematik qarz instrumentlarini chiqarish, mahalliy valyutadagi ichki bozorni chuqurlashtirish orqali valyuta xavflarini kamaytirish, qarz portfelini qayta tuzish va restrukturizatsiya qilish, qarz shaffofligini ta’minlashga qaratilgan islohotlarni jadallik bilan amalga oshirmoqda; bu jarayon davlat qarzini faqat moliyaviy resurs sifatida emas, balki iqtisodiy siyosatning nozik boshqariladigan instrumenti

[3] Markaziy bankning 2025-yilning I choragi uchun O‘zbekiston to‘lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi bo‘yicha hisoboti (www.cbu.uz).

sifatida ko‘rishga o‘tish tendensiyasini kuchaytirmoqda. Global voqeliklar sharoitida O‘zbekiston ham davlat qarzini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish, zamonaviy instrumentlarni bosqichma-bosqich joriy etish yo‘lida qator muhim qadamlarni tashlamoqda. 2023-yil 29-aprel kuni “Davlat qarzi to‘g‘risida”gi O‘RQ-836-sonli Qonunning qabul qilinishi davlat qarzini jalb etish, undan foydalanish va boshqarish bo‘yicha yagona huquqiy asosni mustahkamlab, qarzning maksimal limitlari, shaffoflik talabları, monitoring va hisobdorlik mexanizmlarini aniq belgilab berdi.

Bundan avvalroq, XVJning 2021-yilgi maqolasidagi “IV” maslahatida qayd etilganidek, Moliya vazirligi tarkibida alohida Davlat qarzini boshqarish bo‘limi (Debt Management Office) tashkil etilib, qarz bo‘yicha operatsion boshqaruv va tahliliy ishlar institutlashtirildi, bu esa MTDS yondashuvini amaliyotga joriy etish uchun muhim institutsional poydevor bo‘ldi.

So‘nggi yillarda Moliya vazirligi va Markaziy bank hisobotlarida ko‘rsatilganidek, O‘zbekiston davlat qarzi YaIMga nisbatan mo‘tadil darajada saqlanayotgan bo‘lsa-da, uning tarkibi va risklarni boshqarish masalalari tobora dolzarb bo‘lib bormoqda: XVJsining 2025-yilda tayyorlangan yuqori darajadagi texnik hisobotida 2023-yil oxiriga kelib davlat qarzi YaIMga nisbatan qariyb 34,4 foizni tashkil etgani, portfeldagi evrobondlar ulushi taxminan 9,7 foiz, qolgan qismi esa asosan ichki va tashqi kreditlar hisobiga shakllanganini qayd etadi, shuningdek foiz va valyuta risklarini hisobga olgan holda o‘rta muddatli strategiyani yanada takomillashtirish zarurligi ta’kidlanadi.

Moliya vazirligi va boshqa manbalarning ma’lumotlariga ko‘ra, 2022–2024-yillarda davlat qarzi portfelini diversifikatsiya qilish, valyuta xatarlarini kamaytirish va ichki qarz bozorini rivojlantirish maqsadida milliy valyutadagi o‘rta va uzoq muddatli hukumat qimmatli qog‘ozlari emissiyasi bosqichma-bosqich kengaytirildi, ularning bozordagi rentabelligi bo‘yicha indikativ (ko‘rsatkichlarga asoslangan) darajalar shakllantirildi va mahalliy investorlarni (banklar, sug‘urta kompaniyalari, pensiya jamg‘armalari) jalb qilish bo‘yicha ishlar olib borildi.

2024-yilda O‘zbekiston xalqaro kapital bozorlarida rekord hajmda - 4,0 milliard dollarlik evrobondlar emissiyasini amalga oshirgan bo‘lib, uning tarkibida dollarda, yevroda va ilk bor so‘mda (3 trillion so‘mlik 3 yillik obligatsiyalar) chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar mavjud; bu mamlakatning investorlar bazasini kengaytirish, ichki valyutada uzoq muddatli resurslar jalb qilish va qarz portfelini valyuta tarkibi bo‘yicha muvozanatlashga qaratilgan muhim qadam sifatida baholanmoqda.

Biroq tashqi qarzning umumiy hajmi va YaIMga nisbatan ulushidagi oshish tendensiyasi ham davom etmoqda: 2024-yil oxiriga kelib, O‘zbekistonning jami tashqi qarzi 60,2 milliard dollarga yetib, bundan 29,7 milliard dollari davlat tashqi qarziga, qolgan qismi xususiy sektor zimmasiga to‘g‘ri kelgani qayd etilgan; bu esa davlat va xususiy sektor qarzlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, tashqi moliyalashtirish sharoitlaridagi o‘zgarishlar fiskal va makroiqtisodiy barqarorlikka qanday ta’sir ko‘rsatishini sinchiklab tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.


Umuman olganda, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jahon miqyosida ham, O‘zbekiston misolida ham davlat qarzini boshqarishning zamonaviy instrumentlari - o‘rta muddatli qarz strategiyalari, portfel diversifikatsiyasi, ichki bozorni chuqurlashtirish, xalqaro obligatsiyalar, raqamli nazorat va risk-menejment mexanizmlari tobora keng joriy qilinmoqda, biroq yuqori qarz yuklamasi, global foiz stavkalari beqarorligi va geosiyosiy xatarlar sharoitida bu instrumentlarning samaradorligi ularning qanchalik izchil, shaffof va makroiqtisodiy siyosatning boshqa yo‘nalishlari bilan uyg‘un holda qo‘llanishiga bevosita bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Joriy operatsiyalar hisobi davlatning tashqi moliyaviy holati, valyuta tushumlari barqarorligi va import–eksport nisbatlarining umumiy muvozanatini belgilovchi asosiy indikator bo‘lib, uning dinamikasi mamlakatning davlat qarziga bo‘lgan ehtiyoji, qarzga xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari va tashqi moliyalashtirish strategiyalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun, joriy hisob komponentlarining qanday o‘zgarayotgani nafaqat tashqi savdo va pul o‘tkazmalari jarayonlarini, balki davlat qarzini boshqarishning zamonaviy instrumentlarini belgilashda ham muhim tahliliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Quyidagi chizma aynan shu omillarning har yilgi o‘zgarishini YaIMga nisbatan ko‘rsatib, O‘zbekistonning tashqi muvozanatidagi tendensiyalarni aniqlash, ularning davlat qarzi barqarorligiga ta’sirini baholash va kelgusi yillarda qarz strategiyasini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

Joriy operatsiyalar hisobi komponentlari, YaIMga nisbatan, foizda[4]

[4] Markaziy bankning 2025-yilning I choragi uchun O‘zbekiston to‘lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi bo‘yicha hisoboti.



Grafikda 2021–2025-yillar davomida O‘zbekistonning joriy operatsiyalar hisobi tarkibiy qismlarining YaIMga nisbatan o‘zgarishi ko‘rsatilgan bo‘lib, ushbu tendensiyalar davlat qarzini boshqarish siyosati bilan bevosita bog‘liqdir. Tovarlar savdosi har yili manfiy bo‘lib qolayotgani (-9,8% dan 2025-yilda -8% atrofida) bu mamlakatning importga yuqori bog‘liqligi va joriy hisob defitsitining asosiy manbai ekanini ko‘rsatadi. Ushbu holat tashqi moliyalashtirishga ehtiyojni oshiradi va davlat qarzining o‘sishiga makroiqtisodiy zamin yaratadi. Bunga qarama-qarshi ravishda, xizmatlar savdosi ijobiy saldoni saqlab qolmoqda, bu esa turizm, transport va xizmatlar sektorining rivojlanishi hisobiga tashqi moliyaviy bosimni yumshatib, davlatning qisqa muddatli qarzga ehtiyojini kamaytiradi. Ikkilamchi daromadlar, ayniqsa mehnat migrantlari pul o‘tkazmalari, barqaror yuqori bo‘lib qolayotgani joriy hisob defitsitini sezilarli darajada qoplaydi, bu esa davlat qarzining valyuta risklarini pasaytiradi. Birlamchi daromadlar saldosining manfiyligi esa tashqi qarz bo‘yicha foiz to‘lovlarining oshib borayotganini anglatadi va bu fiskal bosimni kuchaytiradi. Eng muhim tendensiya shundaki, joriy operatsiyalar hisobi defitsiti 2021-yildagi -9,8%dan 2025-yilda -0,2%gacha qisqargan bo‘lib, bu tashqi muvozanatning yaxshilanganini ko‘rsatadi. Bunday dinamika davlat qarzini boshqarishda yangi imkoniyatlar yaratadi: tashqi qarz jalb qilishga ehtiyoj kamayadi, ichki bozorni chuqurlashtirish va qarz portfelini diversifikatsiya qilish uchun qulay sharoit paydo bo‘ladi. Shu tariqa, grafikda aks etgan tendensiyalar O‘zbekiston uchun qarz strategiyasini optimallashtirish, risklarni kamaytirish va barqaror qarz boshqaruvi instrumentlarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Davlat qarzini boshqarishning zamonaviy instrumentlari global moliya bozorlarining murakkablashuvi, foiz stavkalari beqarorligi, valyuta xatarlarining kuchayishi va kapital oqimlarining o‘zgaruvchanligi sharoitida tobora dolzarblik kasb etmoqda. Ushbu instrumentlar nafaqat qarzni jalb qilish, balki qarz portfelining tavakkalchiliklarini kamaytirish, xizmat ko‘rsatish xarajatlarini optimallashtirish va fiskal barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan. Hozirgi davrda davlatlar keng qo‘llayotgan asosiy zamonaviy instrumentlar qatoriga suveren obligatsiyalar emissiyasi, tematik bondlar (yashil, ijtimoiy, barqarorlik obligatsiyalari), qarzni qayta moliyalashtirish strategiyalari, xatarlarni xedjlash vositalari, qarz portfelini diversifikatsiya qilish, raqamli monitoring tizimlari, hamda o‘rta muddatli qarz boshqaruvi strategiyasi (MTDS) kiradi.

Suveren obligatsiyalar - davlatning xalqaro kapital bozorlarida uzoq muddatli resurslarni jalb qilish imkonini beruvchi asosiy instrumentlardan biri

bo‘lib, investorlar bazasini kengaytirish, bozor ishonchini mustahkamlash va qarz muddatlarini cho‘zish imkonini beradi. So‘nggi yillarda ko‘plab davlatlar, jumladan O‘zbekiston ham, milliy valyutadagi obligatsiyalar chiqarishni yo‘lga qo‘ymoqda, bu valyuta risklarini kamaytirish, ichki bozorga tayanish va tashqi bozorlar beqarorligiga qaramlikni pasaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tematik obligatsiyalar – “yashil” va “ijtimoiy bondlar” (“green bonds”, “social bonds”) kabi vositalar - davlatga investorlardan maqsadli, nisbatan arzon mablag‘larni jalb qilish, ekologik va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish va xalqaro reytinglarda shaffoflikni oshirish imkonini bermoqda.

Xatarlarni kamaytirish bo‘yicha eng ilg‘or instrumentlardan biri xedjlash (hedging) mexanizmlari bo‘lib, ular valyuta kursi o‘zgarishlari yoki foiz stavkalarining keskin ko‘tarilishidan himoyalanishga xizmat qiladi. Masalan, rivojlanayotgan davlatlar valyuta svoplari, foiz stavkalari svoplari yoki “forvard” bitimlaridan foydalanib, qarz yukining beqarorlikdan himoyalanishiga erishmoqda. Qarzni qayta moliyalashtirish (refinancing) esa mavjud qimmat yoki qisqa muddatli qarzlarni uzoq muddatli va arzonroq instrumentlarga almashtirish orqali davlat byudjetiga tushadigan foiz bosimini sezilarli darajada kamaytiradi.

Davlat qarzini boshqarishda asosiy tamoyillardan yana biri - qarz portfelini diversifikatsiya qilish bo‘lib, bu qarz manbalari, valyuta tarkibi, muddatlar strukturasini o‘zaro muvozanatlashtirish orqali xavfni tarqatish va bir manbaga haddan tashqari bog‘lanib qolishning oldini oladi. Masalan, tashqi qarzning haddan tashqari dollarlashuvi davlatni AQSh foiz siyosati va global bozor o‘zgarishlariga beqaror qiladi; diversifikatsiya esa bu xatarni yumshatadi.

Zamonaviy qarz boshqaruvi tizimlarida raqamli monitoring platformalari va real vaqt rejimida risk-modellashtirish muhim o‘rin tutadi. Bunday tizimlar qarz portfelining har bir komponenti bo‘yicha foiz, muddat, valyuta va qaytarish grafigi xatarlarini oldindan baholashga yordam beradi. MTDS - o‘rta muddatli qarz boshqaruvi strategiyasi esa davlatlarga qarzning optimal strukturasini aniqlash, xarajat–xavf balansini baholash va qarz siyosatini fiskal rejalashtirish bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Biroq zamonaviy qarz instrumentlarining keng qo‘llanilishida qator amaliy masalalar mavjud. Birinchidan, xalqaro bozorlar beqarorligi va foiz stavkalari o‘sishi obligatsiyalar emissiyasini qimmatlashtirmoqda. Ikkinchidan, xedjlash instrumentlari murakkabligi tufayli institutsional salohiyat va texnik bilimlar talab etiladi. Uchinchidan, ichki obligatsiya bozorlarining yetarlicha rivojlanmaganligi ko‘plab davlatlarda milliy valyutada qarz jalb qilish hajmini cheklaydi. Bundan tashqari, qarzni qayta moliyalashtirish jarayonlari ko‘p hollarda tashqi bozor sharoitlariga bog‘liq bo‘lib, global moliyaviy tanglik paytida bu imkoniyatlar qisqarib ketadi. Diversifikatsiya masalasida ham davlatlar ba’zan yuqori rentabellik taklif qiluvchi qisqa muddatli tashqi resurslarga haddan tashqari tayanib qolib, qarz xavfini o‘zlari kuchaytirib qo‘yishi mumkin.

Davlat qarzini boshqarish murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u nafaqat moliyaviy barqarorlik, balki makroiqtisodiy xavfsizlik, investitsiya muhiti, valyuta barqarorligi va ijtimoiy farovonlik bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli, qarz boshqaruvi siyosatini baholashda “SWOT”-tahlili muhim analitik vosita hisoblanadi.

O‘zbekistonning davlat qarzini boshqarish bo‘yicha “SWOT” tahlili

S – Kuchli jihatlar (Strengths)	**W – Zaif tomonlar (Weaknesses)**
• Davlat qarzining YaIMga nisbatan mo‘tadil darajada saqlanayotgani (taxm. 34–36%).	• Tashqi qarz portfelida xorijiy valyutaning yuqori ulushi (valyuta xavfi).
• Xalqaro moliyaviy institutlar bilan barqaror hamkorlik va ishonch reytingining yaxshilanishi.	• Ichki obligatsiya bozorining yetarli darajada chuqurlashmaganligi.
• O‘rta muddatli qarz boshqaruvi strategiyasi (MTDS) joriy etilganligi.	• Foiz to‘lovlari yukining ortib borayotganligi.
• Suveren obligatsiyalarni muvaffaqiyatli emissiya qilish bo‘yicha tajriba shakllanayotgani.	• Qarz strukturasi diversifikatsiyasining to‘liq shakllanmaganligi.
• Fiskal intizom va shaffoflikni oshirish bo‘yicha institutsional islohotlar.	• Qaytarish grafigi konsentratsiyasi (ba’zi yillarda katta hajmdagi to‘lovlar).
O – Imkoniyatlar (Opportunities)	**T – Tahdidlar (Threats)**
• Ichki bozorni rivojlantirish orqali milliy valyutadagi qarz ulushini oshirish.	• Global foiz stavkalari o‘sishi sabab emissiya xarajatlarining oshishi.
• “Yashil obligatsiyalar”, sukuk va boshqa innovatsion instrumentlar chiqarish imkoniyati.	• Geosiyosiy tangliklar sabab kredit resurslarining qimmatlashishi.

• Investorlar geografiyasini kengaytirish va xalqaro kapital bozorlariga chuqur kirish.	• Tovarlar savdosi defitsiti davom etishi natijasida tashqi moliyalashtirishga ehtiyojning yuqoriligi.
• Qarzga xizmat ko‘rsatishni raqamlashtirish va risk-modellashtirish tizimlarini joriy etish.	• Valyuta kursining beqarorligi natijasida qarz yukining oshib ketishi.
• Qarz boshqaruvida xedjlash mexanizmlaridan foydalanish imkoniyati.	• Tashqi qarzning haddan tashqari ortishi makrobarqarorlikka xavf tug‘dirishi.

“SWOT” tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning davlat qarzini boshqarish tizimi so‘nggi yillarda sezilarli darajada modernizatsiya qilinib, strategik yondashuv, shaffoflik va institutsional salohiyat jihatidan ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Biroq tashqi qarz portfelida valyuta ulushining yuqoriligi, ichki obligatsiya bozorining to‘liq shakllanmaganligi va foiz xarajatlarining oshib borishi qarz barqarorligini cheklovchi omillar bo‘lib qolmoqda. Bunda imkoniyatlar milliy valyutadagi obligatsiyalarni kengaytirish, innovatsion qarz instrumentlaridan foydalanish va raqamli risk boshqaruvi tizimlarini joriy etish qarz boshqaruvi samaradorligini keskin oshirishi mumkin. Tashqi tahdidlar esa, ayniqsa global foiz stavkalari o‘sishi va valyuta beqarorligi sharoitida, qarz portfelini ehtiyotkorlik bilan boshqarish, diversifikatsiya qilish va o‘rta muddatli fiskal strategiyalarni kuchaytirishni talab qiladi. Umuman olganda, O‘zbekistonning davlat qarzini boshqarishida zamonaviy instrumentlarni tizimli qo‘llash va risklarga tezkor javob berish barqaror makroiqtisodiy rivojlanish uchun hal qiluvchi omildir.

Umuman olganda, davlat qarzini boshqarishning zamonaviy instrumentlari samarali va barqaror qarz siyosati yuritish uchun keng imkoniyatlar beradi, biroq ularning to‘g‘ri qo‘llanishi institutsional salohiyat, shaffoflik, moliyaviy intizom va uzoq muddatli strategik rejalashtirishga bevosita bog‘liqdir. Mamlakatning tashqi iqtisodiy holati, joriy operatsiyalar hisobi, valyuta tushumlari, fiskal siyosat va global bozor sharoitlari bilan uyg‘un holda qo‘llangan taqdirda, ushbu instrumentlar davlat qarzining barqarorligini ta’minlashda va iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashda kuchli vositaga aylanadi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, davlat qarzini boshqarish bugungi global iqtisodiy beqarorlik, foiz stavkalari o‘zgaruvchanligi, valyuta risklarining kuchayishi va xalqaro moliya bozorlaridagi raqobat ortib borayotgan sharoitda yanada strategik ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonning davlat qarzi YaIMga nisbatan mo‘tadil darajada bo‘lsa-da, qarzning valyuta tarkibi, foiz yukining oshishi, qaytarish grafigining konsentratsiyasi va joriy operatsiyalar hisobidagi salbiy tendensiyalar qarz barqarorligini saqlash uchun zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini keng joriy etishni talab qiladi. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, qarzni jalb qilish emas, balki uni optimal tuzilma bilan samarali boshqarish, xavflarni diversifikatsiya qilish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi yo‘nalishlarga yo‘naltirish davlat moliyasining uzoq muddatli barqarorligini ta’minlaydi.

O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi islohotlari davlat qarzi to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishi, MTDS strategiyasining joriy etilishi, ichki obligatsiyalar bozorining rivojlantirilishi va suveren obligatsiyalarning muvaffaqiyatli emissiyasi davlat qarzini zamonaviy talablar asosida boshqarish uchun mustahkam institutsional poydevor yaratdi. Biroq global foiz stavkalari o‘sishi, geosiyosiy noaniqliklar va tashqi qarz manbalariga bog‘liqlik hali ham sezilarli makroiqtisodiy xavf tug‘diradi. Shuning uchun qarz siyosatini yanada takomillashtirish, zamonaviy moliyaviy instrumentlardan oqilona foydalanish va risklarni chuqur tahlil qilish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Takliflar:

1. Qarz portfelini diversifikatsiya qilishni kuchaytirish
2. Ichki obligatsiyalar bozorini chuqurlashtirish
3. Zamonaviy risk-menejment vositalarini joriy etish
4. Tematik obligatsiyalarni chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish
5. Qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlarini optimallashtirish
6. Shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish
7. Qarz jalb qilishni iqtisodiy o‘sish bilan bog‘lash

Davlat qarzini boshqarish O‘zbekistonning kelgusi iqtisodiy rivojlanish yo‘lida strategik ahamiyatga ega bo‘lib, uning samaradorligi nafaqat moliyaviy barqarorlikni, balki investitsion jozibadorlikni, tashqi iqtisodiy barqarorlikni va davlatning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlaydi. Zamonaviy instrumentlar, diversifikatsiya, ichki obligatsiyalar bozorini rivojlantirish, xedjlash, tematik obligatsiyalar, raqamli monitoring va MTDS izchil joriy etilgan taqdirda, O‘zbekiston o‘z qarz portfelini barqaror boshqarishga, foiz yukini kamaytirishga hamda iqtisodiy o‘sishni qo‘llovchi samarali moliyaviy siyosatni shakllantirishga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aizenman, J., & Jinjarak, Y. (2021). Income inequality, tax base, and sovereign debt// Journal of International Money and Finance, 113, 102358.
2. Allen, F., & Carletti, E. (2022). Systemic risk and macroprudential regulation// Journal of Financial Economics, 146(1), 1–27.
3. Blanchard, O. (2022). Fiscal policy under low interest rates// American Economic Review, 112(4), 1197–1223.
4. Eichengreen, B. (2021). The changing composition of sovereign debt. // Oxford Review of Economic Policy, 37(2), 247–266.
5. Eichengreen, B. (2023). Sovereign debt, global markets, and financial stability// Journal of Economic Perspectives, 37(1), 55–78.
6. Gelos, G., Sahay, R., & Sandri, D. (2022). Managing public debt in emerging markets. IMF Working Paper, WP/22/145.
7. World Economic Outlook Report 2023. International Monetary Fund.
8. Global Debt Monitor 2024. International Monetary Fund.
9. Obstfeld, M. (2023). The return of global debt risk. Global Economic Journal, 23(3), 215–233.
10. Panizza, U., & Presbitero, A. (2021). Public debt and economic growth: A reassessment. Economics Letters, 199, 109668.
11. Panizza, U., & Presbitero, A. (2022). Sovereign debt sustainability in turbulent times. Journal of Economic Surveys, 36(4), 1042–1067.
12. Rakhimov, B. (2024). Public debt trends and fiscal risks in Uzbekistan// Central Asian Economic Review, 6(1), 45–59.
13. Malikov, T. (2022). Public debt dynamics and fiscal sustainability in Uzbekistan// Journal of Central Asian Economic Studies, 4(2), 55–68.
14. Reinhart, C., & Rogoff, K. (2023). Debt sustainability revisited. NBER Working Paper, No. 30841.
15. Global Economic Prospects (2022). World Bank Group.
16. International Debt Statistics 2023. World Bank Publishing.

SCIENCE & EDUCATION IN THE 21ST CENTURY

QOZOG‘ISTONDA TURIZM XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Kypshakbayeva A.S.[1], Aktileuova G.M.[2], Adilchayev R.T.[3], Yesturliyeva A.I.[4]

[1]Sh. Yesenov nomidagi Kaspiy texnologiyalari va muhandislik universiteti (Qozog‘iston), PhD tadqiqotchisi
kypshakbayeva81@mail.ru
[2]Sh. Yesenov nomidagi Kaspiy texnologiyalari va muhandislik universiteti(Qozog‘iston), PhD tadqiqotchisi
moldashovna@mail.ru
[3]Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, iqtisodiyot fanlari nomzodi (O‘zbekiston), professor
radilchaev@mail.ru
[4]Sh. Yesenov nomidagi Kaspiy texnologiya va muhandislik universiteti(Qozog‘iston), professor v.b., PhD
Estur2@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.18977372

ANNOTATSIYA

Maqolada Qozog‘iston Respublikasida turistik xizmatlarni raqamlashtirish darajasini oshirish yo‘llari muhokama qilinadi. Tadqiqotda turizm sohasining raqamlashtirish holati rasmiy statistika ma’lumotlari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda sohaviy manbalar asosida tahlil qilingan. eQonaq, Kazakhstan.travel, Kaspi Travel, QazETA kabi raqamli vositalar va platformalar hamda yagona raqamli turizm ekotizimi “TravelStan” loyihasining ahamiyatiga alohida diqqat qaratilgan. Tadqiqot natijasida turizm sohasini raqamli transformatsiya qilish jarayonida mavjud muammolar — xizmatlarning fragmentatsiyasi, katta ma’lumotlar va sun’iy intellekt texnologiyalarining yetarli darajada integratsiyalanmaganligi hamda hududlar o‘rtasidagi raqamli tengsizlik aniqlangan. Turizmni yanada raqamlashtirish uchun bir qator yo‘nalishlar taklif etilgan, jumladan, yagona raqamli “choksiz” ekotizim yaratish, GovTech va TravelTech yechimli texnologiyalarini integratsiyalash, xususiy sektorni raqamlashtirishni rag‘batlantirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va turistik marketingni kuchaytirish. Ushbu chora-tadbirlar turizm sohasining samaradorligini oshirishga, mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shadigan hissasini kengaytirishga hamda Qozog‘istonning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

KALIT SO‘ZLAR

turizmni raqamlashtirish, Qozog‘iston, yagona raqamli ekotizimi, eQonaq, Kazakhstan.travel, Kaspi Travel, TravelTech, GovTech, turizmning iqtisodiy samaradorligi.

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ ЦИФРОВИЗАЦИИ ТУРИСТСКИХ УСЛУГ В КАЗАХСТАНЕ

Кыпшакбаева А.С.[1], Актилеуова Г.М.[2], Адильчаев Р.Т.[3], Естурлиева А.И.[4]

[1]НАО «Каспийский университет технологий и инжиниринга имени Ш.Есенова» (Казахстан), докторант PhD, kypshakbayeva81@mail.ru
[2]НАО «Каспийский университет технологий и инжиниринга имени Ш.Есенова» (Казахстан), докторант PhD, moldashovna@mail.ru

[3]*Каракалпакский государственный университет имени Бердаха (Узбекистан), к.э.н., профессор, radilchaev@mail.ru.*
[4]*НАО «Каспийский университет технологий и инжиниринга имени Ш.Есенова» (Казахстан), и.о. профессора, к.э.н., Estur2@mail.ru*

АННОТАЦИЯ

15. Филиппова С. А. Социальный портрет психологического благополучия студенческой молодежи // Научно-педагогическое обозрение (Pedagogical Review). 2023. Вып. 4 (50). С. 170-178. https://doi.oig/10.23951/2307-6127-2023-4-170-178
16. Хотеева Р. И. Клинико-психологические аспекты социального благополучия личности / Р. И. Хотеева // Вестник Калужского университета. Серия 1. Психологические науки. Педагогические науки. – 2023. – Т. 6, № 2(19). – С. 19-27. – DOI 10.54072/26586568_2023_6_2_19. – https://elibrary.ru/item.asp?id=54985762
17. Bradburn N. The Structure of Psychological well-being. - Chicago: Aldine Pub. Co., 1969. - 320 p.
18. Ryff C.D. The structure of psychological well-being revisited // Journal of Personality and Social Psychology. – 1995 – Vol. 69 – P. 719-727.
19. Ryff, C. Happiness is everything, or is it? Explorations on the meaning of psychological well-being // Journal of Personality and Social Psychology,1989. Vol. 57. No. 6. P. 1069–1081. doi:10.1037/0022-3514.57.6.1069

SCIENCE & EDUCATION
IN THE 21ST CENTURY

YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY HIMOYA SIYOSATINING MOHIYATI

Mamatqobilov Tursunmurod Doniyorovich

O`zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
dotsent, siyosiy fanlar nomzodi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18978580

ANNOTATSIYA

Maqolada Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan barcha islohotlarning asl maqsadi insonga munosib turmush sharoitlarini vujudga keltirishning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati hamda umuminsoniy qadriyatlar haqida fikr bildiriladi

KALIT SO‘ZLAR

Bozor munosabatlari, ijtimoiy himoya, vatanparvarlik, barqarorlik, ma’naviyat, umuminsoniy qadriyatlar, ajdodlar merosi, tarixiy an’analar, hamkorlik

СУТЬ И ЗНАЧИМОСТЬ ПОЛИТИКИ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Маматкобилов Турсунмурод Дониерович

Узбекский государственный университет мировых языков,
доцент, к. полит. н.

АННОТАЦИЯ

В статье высказывается мнение о социально-духовной значимости создания достойных условий жизни человека, а также общечеловеческих ценностей как истинной цели всех реформ, проводимых в Новом Узбекистане.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

рыночные отношения, социальная защита, патриотизм, стабильность, духовность, общечеловеческие ценности, наследие предков, исторические традиции, сотрудничество.

THE IMPORTANCE OF THE SOCIAL PROTECTION POLICY IN NEW UZBEKISTAN

Mamatkobilov Tursunmurod Doniyorovich

Uzbek State University of World Languages,
associate professor, PhD in Political Science

ABSTRACT

The social and spiritual significance of establishing decent living conditions for a person, and universal human values are emphasized in the article, and are identified as the true goal of all reforms being conducted in New Uzbekistan.

KEYWORDS

market relations, social protection, patriotism, stability, spirituality, universal human values, ancestral heritage, historical traditions, cooperation.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng markazlashgan rejaviy xo‘jalik tartibotlaridan ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida aholining ijtimoiy himoyasini ta’minlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. Binobarin, mamlakatda o‘tkazilayotgan barcha islohotlarning asl maqsadi insonga munosib turmush sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat edi. Bugun ham Yangi O‘zbekiston sharoitida Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va taraqqiyotimizni belgilab berayotgan strategiya tamoyillarining muhim bir yo‘nalishi adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“E’tibor qiling, bu yil ijtimoiy sohaga eng ko‘p - 134 trillion so‘m mablag‘ ajratildi. Bu – 2016-yilga solishtirganda 5,6 barobar ziyod demakdir. Konstitutsiyamizda belgilangan **O‘zbekiston – ijtimoiy davlat** degan qoidaning amaliy hayotimizdagi tasdig‘ini birgina ana shu misolda ham yaqqol ko‘rish mumkin”[1]. (Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 22-dekabrdagi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi “Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak” nutqi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2022-yil 23-dekabr).

Yangi O‘zbekiston hukumati tomonidan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi Farmoniga muvofiq yettita yo‘nalish belgilab olindi. Mazkur strategiyaning to‘rtinchi yo‘nalishi - “**Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish”** asosida bozor munosabatlari sharoitida aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan zarur choralar belgilangan. Bu choralar natijasida odamlarning turmush darajasi keskin pasayib ketishining oldi olinib, mamlakatda osoyishtalik va barqarorlikni saqlashning asosiy omillari yaratilmoqda. Masalan, istiqlol yo‘lining dastlabki murakkab, iqtisodiy tanglik yillarida odamlarning turmush darajasini mo‘tadillashtirish maqsadida aholining ijtimoiy hayotini davlat yo‘li bilan boshqarishning ko‘pdan ko‘p usullari va uslublaridan foydalanildi. Jumladan, miqdori doimo o‘zgartirib turilgan ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar, turli nafaqalar, kompensatsiya tarzidagi bevosita pul to‘lovlari, imtiyozlar va turli dotatsiyalar shaklidagi to‘lovlarni joriy qilish usullari keng qo‘llanildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev aytganidek: “Albatta, bugun mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar bu boradagi dastlabki qadamlar hisoblanadi. Ijtimoiy, iqtisodiy, ma’rifiy-madaniy sohalardagi hamkorlik faoliyati hamda amalga oshirilayotgan ishlarning shaffofligini ta’minlash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, 2030-yilgacha kambag‘allik darajasini 2,0 martaga kamaytirish, kelgusi o‘n yilda kambag‘al oilalardagi ishsizlarni tadbirkorlikka jalb etgan holda, 500 ming yangi ish joylarini tashkil etish, ishsizlik darajasini 2,0 marta qisqartirish, 2030-yilgacha kambag‘al oilalarni 600 mingta kvartiralar bilan imtiyozli asosda ta’minlash, uy sharoitlarini yaxshilash uchun imkoniyat yaratish, kambag‘al oilalardagi bolalarni maktabgacha tarbiyalash muassasalaridagi qamrovini 2020-yildagi 10 foizdan 2030-yilda 30 foizga ko‘paytirish, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalarda aholini, jumladan, kambag‘al oilalarni minimal iste’mol standartlarini davlat tomonidan to‘liq ta’minotini ta’minlash lozim” [2]. Shuning uchun ham hukumatimiz tomonidan qabul qilingan global muammolarga qarshi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan dasturda mehnat bozori, bandlikni saqlash, aholining yordamga muhtoj qatlamlari himoyasiga taalluqli vositalar tilga olingan. Unga ko‘ra, ishsizlik darajasini ikki martagacha qisqartirish belgilanganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan barcha islohotlarning asl maqsadi insonga munosib turmush sharoitlarini vujudga keltirishdir. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, ya’ni davlat iqtisodiy tanglik sharoitini boshdan kechirayotgan bir paytda O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi tubdan o‘zgartirildi. Ijtimoiy ko‘mak berishning mutlaqo yangi, demokratik tamoyillariga asoslangan fuqarolik jamiyatining ilg‘or tizimi shakllantirildi. O‘tish davrida jamiyatdagi mulkning tengsizlik me’yorlarini adolatli muvofiqlashtirish mexanizmi yaratildi. Yangi O‘zbekiston sharoitida bu boradagi masalalar siyosatning birlamchi vazifasiga aylanib bormoqda.

Ushbu keng miqyosli, turmush va tafakkur tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonni davlatning ijtimoiy himoya siyosati, aholining bozor munosabatlari sharoitida moddiy va ma’naviy himoya qilishning o‘ziga xos tamoyillari asosida o‘rganish nihoyatda muhimdir. Xususan,

- istiqlol davrida mamlakatimizda amalga oshirilgan aholini ijtimoiy himoya qilishga yo‘naltirilgan davlat siyosatining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish;

– davlat va nodavlat tashkilotlarning aholini ijtimoiy himoya qilishdagi roli va o‘rnini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish;

– kuchli ijtimoiy muhofaza siyosati jamiyat ijtimoiy-siyosiy barqarorligining asosi ekanligini ilmiy nuqtai nazardan dalillash;

– ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich, evolyutsiya yo‘li bilan o‘tish nazariyasining asoslanishi va

amaliyotda muvaffaqiyatli qo‘llanilishini tadqiq etish;

– xalqaro tashkilotlar va jahon hamjamiyati bilan hamkorlik asosida aholi ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishning eng zamonaviy va ilg‘or tajribalarini mumkin qadar o‘rganish, tahlil etish va amaliy xulosalar chiqarishdan iborat.

Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar jarayonida ijtimoiy himoya siyosatini amalga oshirish va takomillashtirish muammolari siyosiy fanlar nuqtai nazaridan teran ilmiy o‘rganilib, ijtimoiy muhofaza tizimining mamlakat siyosiy hayotida o‘ziga xos namoyon bo‘lishi tahlil etilgan. U quyidagi jihatlarda o‘z ifodasini topgan:

– bozor munosabatlariga o‘tish davrida aholining ijtimoiy himoyasi kafolatini ta’minlash omillarining O‘zbekistonga xos milliy xususiyatlari ochib berishda ko‘ringan;

– ijtimoiy himoya - siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikning garovi ekanligi ilmiy jihatdan o‘rganilgan;

– kuchli ijtimoiy siyosatga oid O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining, Prezident farmonlari va hukumat qarorlarining mazmun-mohiyatini, amaliy ahamiyatliligini o‘rganish va ko‘rsatish siyosiy fan nuqtai nazaridan asoslangan;

– ijtimoiy muhofaza chora-tadbirlari va ulardagi bosqichlarning o‘zaro bog‘liqligi hamda maqsadli va davomiyligi tahlil etilgan;

– ko‘p bolali va kam ta’minlangan oilalarga moddiy va ma’naviy ko‘maklashuvda mahallalarning roli muhim ekanligi asoslab berilgan;

– ijtimoiy ta’minot tizimida pensiya ta’minoti va uning huquqiy-tashkiliy jihatlari, shuningdek, nafaqa to‘lovlari, konpensatsiya tarzidagi qo‘shimchalarning islohotlar jarayonida o‘zgarishi yoritilgan;

– ijtimoiy himoyalashda o‘zini o‘zi boshqarishning noyob milliy tizimi -mahallaning hamda nodavlat notijorat tashkilotlarning bu sohadagi mavjud muammolar va kamchiliklarni hal etishdagi o‘rnining ahamiyatli ekanligi bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Shunday qilib, mehnat munosabatlarini muvofiqlashtirishni ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy sherikchilikni amalga oshirish uchun mamlakatimizda yetarli huquqiy baza yaratilgan.

O‘zbekistonda mustaqil davlatchilikning jahon andozalariga mos, eng ilg‘or tajribalar asosidagi zamonaviy usullar joriy qilinganligining o‘zi inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash negizida mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining demokratik tamoyillarini chuqurlashtirishda katta ishlar qilinayotganligidan dalolatdir.

Rasmiy statistikaga ko‘ra, yurtimizda ishsizlar soni 1 million 300 ming nafarni tashkil qiladi. Bu yil yana 2 million 400 ming aholi mehnat bozoriga kirib keladi (“Bandlik va Tadbirkorlik sohalaridagi takliflar muhokama qilindi”. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2024-yil 9-yanvar). Shulardan kelib chiqib, sifatli va yuqori daromadli ish o‘rinlari hisobiga 2024-yilda 5 million aholining bandligini ta’minlash maqsad qilingan. Jumladan, xizmatlar sohasida 2,5 million, qishloq xo‘jaligida 2,1 million, investitsiya loyihalari va sanoatda 250 ming, qurilishda 140 ming ish joyi yaratish imkoniyati mavjud.

Shuningdek, Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev: “Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda inson qadri ulug‘lanadigan adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farofon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlarimiz jadeid bobolarimizning ezgu g‘oya va dasturlariga har jihatdan uyg‘un va hamohangdir”, - degan fikrlari ayni muddaodir (“Jadidlar: Milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga ma’ruzasidan “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2023-yil 12-dekabr).

Prezidentimizning 2025-yil 23-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasida ilgari surgan tashabbusi haqiqatga aylandi. Aynan Toshkentda 2025-yil 26-27-sentabr kunlari o`tgan xalqaro ekspertlar forumi O`zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT minbaridan turib e’lon qilgan tashabbusini amalda ro`yobga chiqardi. Islomning insonparvarlik mohiyatini asrash va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga qaratilgan mazkur tadbir IRCICA, ICESCO, TURKSOY, Islom olami yushmasi, Oksford universiteti hamda boshqa nufuzli tashkilotlardan 20 dan ortiq davlat vakillarini birlashtirdi.

Islom olami uyushmasi konferensiyalar va tadbirlar direktori Aladvaniy Shaker Saloh ta’kidlaganidek, “O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusining bevosita samarasi bo`lib, bugun u nafaqat O‘zbekiston, balki butun islom olami uchun bebaho meros va ilmiy-ma’naviy maydon vazifasini bajarmoqda”[3].

Darhaqiqat, yurtimizda bugungi kunda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar zamirida insonparvarlik, oilaparvarlik va vatanparvarlik g‘oyalari turubdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. “Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak” nutqi// “Xalq so‘zi” gazetasi, 2022-yil 23-dekabr
2. Mirziyoev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” -T.: O‘zbekiston, 2021-yil. – 441-b.
3. “Bandlik va Tadbirkorlik sohalaridagi takliflar muhokama qilindi”// “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2024-yil 9-yanvar
4. “Jadidlar: Milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga ma’ruzasidan// “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2023-yil 12-dekabr
5. Islom sivilizatsiyasi Markazi rasmiy vebsayti: https://cisc.uz/ky/news-item/618/

SCIENCE & EDUCATION IN THE 21ST CENTURY

“SAVODSIZLIK”DAN MILLIY ONGGA: CHOR ROSSIYASI DISKURSI VA JADIDCHILIK PEDAGOGIK SINTEZI

Qodirov Valijon[1], Akbar Odil[2]

[1]Andijon davlat pedagogika instituti, professor, fanlar doktori
[2]Namangan davlat universiteti, dotsent, fanlar nomzodi (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.18978609

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Chor Rossiyasi mustamlakachiligi sharoitida O‘rta Osiyoda ta’lim va savod tushunchasining siyosiy-diskursiv talqini tahlil qilinadi. Unda mustamlaka pedagogikasi, an’anaviy diniy ta’lim va rus-tuzem maktablari o‘rtasidagi ziddiyatlar jadidchilik harakatining shakllanishiga qanday zamin yaratganini ochib berilgan. Maqola jadidchilikni pedagogik sintez va milliy uyg‘onish modeli sifatida talqin etadi.

KALIT SO‘ZLAR

mustamlakachilik, ta’lim tizimi, savod diskursi, rus-tuzem maktablari, jadidchilik, pedagogik sintez, milliy uyg‘onish.

ОТ «НЕГРАМОТНОСТИ» К НАЦИОНАЛЬНОМУ СОЗНАНИЮ: ДИСКУРС ЦАРСКОЙ РОССИИ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ СИНТЕЗ ДЖАДИДИЗМА

Кодиров Валижон[1], Акбар Одил[2]

[1]Андижанский государственный педагогический институт, доктор наук, профессор
[2]Наманганского государственного университета, кандидат наук, доцент

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется политико-дискурсивная интерпретация образования и понятия грамотности в условиях колониальной политики Российской империи в Средней Азии. Показано, как противоречия между колониальной педагогикой, традиционным религиозным образованием и русско-туземными школами способствовали формированию джадидского движения. Джадидизм рассматривается как педагогический синтез и модель национального пробуждения.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

колониализм, система образования, дискурс грамотности, русско-туземные школы, джадидизм, педагогический синтез, национальное пробуждение.

FROM “ILLITERACY” TO NATIONAL CONSCIOUSNESS: THE DISCOURSE OF TSARIST RUSSIA AND THE PEDAGOGICAL SYNTHESIS OF JADIDISM

Kodirov Valijon[1], Akbar Odil[2]

[1]Andijan State Pedagogical Institute, DSc, professor
[2]Namangan State University, PhD, associate professor

ABSTRACT

This article examines the political and discursive interpretation of education and literacy under the colonial rule of the Russian Empire in Central Asia. It reveals how tensions between colonial pedagogy, traditional religious education, and Russian-indigenous schools contributed to the emergence of the Jadid movement. The study conceptualizes Jadidism as a pedagogical synthesis and a model of national awakening.

KEYWORDS

colonialism, education system, literacy discourse, Russian-indigenous schools, Jadidism, pedagogical synthesis, national awakening.

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, O‘rta Osiyo jamiyati o‘z taraqqiyotida keskin burilish bosqichiga qadam qo‘ydi. Mazkur tarixiy davr Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati chuqurlashuvi, hududning imperiya iqtisodiy tizimiga tobora faolroq integratsiyalashuvi, yangi ma’muriy-boshqaruv institutlarining joriy etilishi hamda ijtimoiy-madaniy hayotda sodir bo‘lgan tub transformatsiyalar bilan xarakterlanadi. Aynan shu murakkab va ko‘p qatlamli jarayonda ta’lim tizimi jamiyat ichki tuzilmasiga ta’sir ko‘rsatuvchi, ijtimoiy ong va munosabatlarni qayta shakllantiruvchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida maydonga chiqdi [4].

Asrlar davomida shakllanib, O‘rta Osiyo jamiyatida diniy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlab kelgan maktab va madrasa tizimi XIX asr oxiriga kelib yangi davr talablari bilan yuzma-yuz keldi. Zamonaviy ilm-fan, texnika taraqqiyoti va ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlariga moslashish masalasida ushbu an’anaviy ta’lim tizimi jiddiy muammolarga duch kela boshladi. Bu holatni o‘z davrining ilg‘or ziyolilari ham chuqur anglagan edilar. Jumladan, Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li 1905-yilda ta’lim masalasiga to‘xtalar ekan, jamiyat holatini isloh qilish zamonga mos ilm-u fanlarni o‘zlashtirishdan boshlanishi, buning uchun esa maktab va madrasalar hamda ta’lim usullarini tubdan yangilash zarurligini alohida ta’kidlagan edi [3,29]. Ta’lim mazmunining tor doirada qolib ketishi, metodik yangilanishning yo‘qligi va bilimlarning amaliy hayotdan uzilishi jamiyatda ma’rifiy inqirozning tobora chuqurlashishiga olib keldi.

Shu bilan bir vaqtda Rossiya imperiyasi tomonidan tashkil etilgan rus-tuzem maktablari mintaqa ta’lim makoniga yangi pedagogik modelni olib kirgan edi [1, 23–24]. Ushbu maktablar tashqi ko‘rinishda zamonaviy fanlar va ilg‘or metodikalarni joriy qilgandek tuyulsa-da, ularning asl vazifasi mustamlakachilik boshqaruvi ehtiyojlariga mos, imperiyaga sodiq mahalliy kadrlarni tayyorlashdan iborat bo‘lgan [9]. Natijada, O‘rta Osiyoda ta’lim sohasi diniy-an’anaviy qadriyatlarni saqlab qolish bilan imperiyaviy modernizatsiya o‘rtasidagi mafkuraviy qarama-qarshilik maydoniga aylandi [6,7].

Ana shunday ziddiyatli tarixiy sharoitda jadidchilik harakati shakllanib, ta’limni jamiyatni yangilash, ijtimoiy ongni o‘zgartirish va milliy uyg‘onishni ta’minlashning asosiy vositasi sifatida ilgari surdi. Shu bois jadidchilik hodisasiga turkiy xalqlar, xususan, O‘rta Osiyo xalqlari tarixidagi o‘rni va ahamiyatini turli qirralar kesimida baholash zarurati yuzaga keladi.

O‘zbekistonda keng tarqalgan ommaviy tasavvurlarda jadidchilik ko‘pincha tor doirada talqin qilinadi. Uni faqatgina maorif sohasidagi islohotlar, fonetik asosga qurilgan yangi o‘qitish usuli yoki yangicha darsliklar yaratish bilan cheklash ilmiy jihatdan to‘liq yondashuv bo‘la olmaydi. Aslida jadidchilik, eng avvalo, millat va jamiyatning o‘z-o‘zini saqlab qolishga bo‘lgan ichki refleksi sifatida namoyon bo‘lgan. Bu harakat xalqning siyosiy, madaniy va ma’naviy jihatdan yashab qolishi masalasiga borib taqaladi. “Agar biz zamon bilimlarini egallamasak, yo‘q bo‘lib ketamiz”, degan fikr aynan shu davr ziyolilari ongida yetakchi g‘oyaga aylangan edi [2,3]. Mazkur ruhiy holatni anglamasdan yangi adabiyot hodisasini ham, jadid pedagogikasini ham, umuman olganda, jadidchilik harakatining mohiyatini to‘liq tushunib bo‘lmaydi.

Jadidlar faqatgina ta’lim beruvchi shaxslar sifatida emas, balki millatning o‘zligini qayta anglashga undagan mafkurachilar, sahna orqali milliy ruhiyatni keskin uyg‘otishga intilgan dramaturglar, siyosiy irodasi zaiflashgan xalqni uyg‘otishga chorlagan publitsistlar hamda kelajak avlodni yangi asoslarda tarbiyalashni rejalashtirgan strateglar sifatida maydonga chiqdilar [4, 5]. Shu sababli jadidchilik mohiyatini anglash, avvalo, “ular qanday tarixiy va ijtimoiy sharoitda shakllandi?” degan savolga keng va atroflicha javob topishni talab etadi. Aynan ushbu masala mazkur tadqiqotning birinchi fasli markazida turadi.

Mazkur savolga javobni Chor Rossiyasining buyuk davlatchilik siyosati va Turkiston o‘lkasining mustamlaka maqomi bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi uchun Markaziy Osiyoga kirib kelish jarayoni oddiy hududiy kengayish bilan cheklanib qolmagan, balki imperiyaning uzoq muddatli strategik xavfsizligini

ta’minlash masalasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Markaziy Osiyo Rossiya nazarida shunchaki navbatdagi mustamlaka hudud emas, balki ikki yirik siyosiy kuch — Rossiya va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi raqobat sharoitida muhim geosiyosiy bufer zona vazifasini bajargan makon sifatida qaralgan. Shu bois, Turkiston ustidan nazoratni qo‘lga kiritish Rossiya imperiyasi uchun nafaqat iqtisodiy va moliyaviy manfaat manbai, balki xalqaro maydonda nufuzini mustahkamlash va ta’sir doirasini kengaytirish vositasiga aylangan edi [2,6].

Mazkur tarixiy jarayon, ya’ni tarixshunoslikda “Buyuk o‘yin” nomi bilan mashhur bo‘lgan geosiyosiy raqobat sharoitida Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoni turli usullar orqali bosqichma-bosqich bo‘ysundirdi. Bu jarayonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri harbiy yurishlar, protektorat shaklidagi qaramlik (ya’ni tashqi siyosat imperiya ixtiyoriga o‘tkazilib, ichki boshqaruv mahalliy hukmdorlar zimmasida qoldirilgan holat), shuningdek, bojxona siyosati, savdo yo‘llari va soliq tizimi orqali iqtisodiy qaramlikni kuchaytirish asosiy vositalar bo‘lib xizmat qildi. Natijada, Qo‘qon xonligi hududlarining katta qismi, Toshkent (1865), Samarqand (1868), Xiva xonligining muhim yerlaridan tortib, Buxoro amirligining tashqi siyosatiga qadar bo‘lgan sohalar to‘liq yoki qisman Rossiya imperiyasi nazoratiga o‘tdi [2]. Shu tariqa, mintaqa mustaqil siyosiy subyekt maqomidan mahrum bo‘lib, imperiya manfaatlariga xizmat qiluvchi bo‘ysundirilgan periferiyaga aylantirildi.

Imperiyaning ma’naviy-ma’rifiy siyosatidagi o‘ziga xoslik ham, avvalo, Rossiya mustamlakachilik iqtisodiy manfaatlari bilan belgilanar edi. Turkiston o‘lkasi imperiya ehtiyojlari uchun xom ashyo bazasiga aylantirildi. Ayniqsa, paxta yetishtirish strategik ahamiyat kasb etdi. Amerika Qo‘shma Shtatlarida yuz bergan fuqarolar urushi (1861–1865) natijasida Rossiya to‘qimachilik sanoati paxta ta’minotida jiddiy muammolarga duch kelganidan so‘ng, Markaziy Osiyo paxtasi imperiya uchun asosiy muqobil manbaga aylandi [2, 6].

Bu jarayon mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy hayotida bir qator chuqur oqibatlarni keltirib chiqardi. Avvalo, Turkiston dehqonlari ekin tanlash erkinligidan asta-sekin mahrum bo‘lib, paxta majburiy ekin sifatida joriy etildi. Sug‘orish tizimlari va suv resurslari boshqaruvi mahalliy ehtiyojlardan ko‘ra, imperiya sanoati manfaatlariga bo‘ysundirildi. Oziq-ovqat yetishtirishga mo‘ljallangan ekin maydonlari qisqarib, eksportbop xom ashyo — paxtaga ustuvorlik berildi. Bu holat oziq-ovqat xavfsizligining zaiflashishiga va mintaqaning iqtisodiy jihatdan tashqi markazga tobora qaram bo‘lib borishiga olib keldi [2,7]. Mazkur tizimdan asosan imperiya markazidan kelgan kapital egalari, sanoatchilar, soliq va ruxsat mexanizmlariga yaqin bo‘lgan tor mahalliy vositachi qatlam hamda harbiy-ma’muriy apparatga sodiq elita foyda ko‘rdi [2,6]. Oddiy dehqonlar esa tobora ko‘proq soliq, qarz va majburiyatlar yukiga botdi. Natijada iqtisodiy qaramlik oddiy insonni o‘z mehnati mahsulidan begonalashtirdi: u endi mehnatini o‘z hayotini yaxshilash uchun emas, balki tashqi markaz manfaatlarini ta’minlash yo‘lida sarflashga majbur bo‘ldi [2].

Bosqinchilik siyosatini uzoq muddat davom ettirish maqsadida, Rossiya imperiyasi mahalliy jamiyatning ma’rifiy va ilmiy rivojlanishini cheklashni strategik jihatdan muhim omil sifatida ko‘rdi. Shu sababli Turkiston hududi imperiya tomonidan faqat harbiy-siyosiy nazorat ostiga olinibgina qolmay, balki uni ma’naviy va madaniy jihatdan ham past ko‘rsatishga urinishlar tizimli ravishda olib borildi. Bu yondashuv imperiyaning mintaqadagi hukmronligini axloqiy va mafkuraviy jihatdan oqlashga xizmat qilgan.

Rossiya ma’muriyati va sharqshunos doiralari tomonidan shakllantirilgan rasmiy tasvirda Turkistonning tub musulmon aholisi — o‘zbeklar, qozoqlar, qirg‘izlar, tojiklar va boshqa xalqlar – “savodsiz”, “jaholat girdobida qolgan”, “diniy asorat ostida yashovchi” jamiyat sifatida talqin qilindi. Mazkur tasvir mustamlakachilik tartibini go‘yoki “tamaddun olib kirish” jarayoni sifatida ko‘rsatish uchun ishlatilgan. Bu g‘oya rus rasmiy matbuotida ham, imperiya manfaatlariga mos yozilgan ilmiy va publitsistik asarlarda ham muntazam takrorlab borilgan.

Zamonaviy Markaziy Osiyo tarixi bo‘yicha yetakchi tadqiqotchilardan biri bo‘lgan amerikalik tarixchi Adib Xolid ta’kidlaganidek, rus mustamlakachilik diskursi mahalliy jamiyatga “madaniy qoloqlik” tamg‘asini yopishtirish orqali imperiyani “ma’rifat tarqatuvchi”, “madaniyat yetkazuvchi” kuch sifatida ko‘rsatishga intilgan. Bu boradagi diskurs ikki asosiy qatlamdan iborat bo‘lgan. Bir tomondan, musulmon aholining o‘zi tabiatan jaholatda yashaydi degan tasavvur ilgari surilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, hududdagi diniy elita – muftiylar, qozilar, mudarrislar va mullalar – xalqni ataylab savodsizlikda ushlab turadi, degan ayblov shakllantirilgan [2,187].

Mazkur tuhmatli tasvir keyinchalik bevosita madrasalar faoliyatiga qarshi qaratildi. Imperiya ma’muriy diskursida madrasalar “xurofot o‘chog‘i”, “dogmatik fikrlashni tarbiyalaydigan”, “quruq yodlash bilan cheklanadigan” va “dunyoviy bilim bermaydigan” muassasalar sifatida taqdim etila boshlandi. Bu kabi baholar tasodifiy emas edi; ular mustamlakachilik tashviqotining tarkibiy qismi bo‘lib, mavjud ta’lim tizimini obro‘sizlantirish orqali imperiyaviy ta’lim modelini oqlashga xizmat qilgan.

Rus ma’muriy tafakkurida shakllangan sxemani quyidagicha ifodalash mumkin: mahalliy aholi savodsiz deb e’lon qilinadi; savodsiz jamiyat o‘zini boshqara olmaydi, degan xulosa chiqariladi; shundan kelib chiqib, bu hudud tashqi kuch tomonidan boshqarilishi zarur, degan da’vo ilgari suriladi. Ilmiy adabiyotlarda bu yondashuv “pedagogik paternalizm” tushunchasi bilan izohlanadi. Mazkur uslub mustamlakachilik zo‘ravonligini axloqiy jihatdan oqlash, ya’ni uni “tarbiyaviy zarurat” sifatida ko‘rsatish vazifasini bajargan.

“Mahalliy aholini madaniylashtirish” shiori ostida Rossiya imperiyasi o‘z hukmronligini “rivojlanish missiyasi” sifatida talqin qildi. Shu asosda musulmon aholi “modernizatsiyadan uzoq”, “texnik savodxonligi past”, “institutsional tartibotlardan bexabar” jamiyat sifatida tasvirlanib, rus ma’muriyati ularni madaniy va ijtimoiy jihatdan “yuksaltiruvchi kuch” sifatida ko‘rsatildi [2; 7; 8]. N.P.Ostroumov kabi amaldor-sharqshunoslar mahalliy maktab va madrasalarni hayotiy foydasi yo‘q, fanatizmni mustahkamlovchi maskanlar sifatida tasvirlab, bu qarashlarni ommalashtirishga xizmat qilganlar [8]. V.V. Bartold ham o‘z davrida Markaziy Osiyoni uzoq vaqt ilm-fan va umumjahon ma’rifiy jarayonlaridan chetda qolgan hudud sifatida ta’riflagan (Bartold, Ocherk istorii izucheniya Sredney Azii, 1896, 12-bet).

Biroq “savodsizlik” tushunchasining o‘zi ham tarixiy jihatdan murakkab va nisbiy mazmunga ega edi. Chor ma’muriyati, keyinchalik esa sovet mafkurasi savodlilikni asosan o‘qish va yozishni zamonaviy davlat talablari asosida egallash mezoni bilan o‘lchagan. Ammo XIX asr oxiri – XX asr boshlarida turkiy xalqlar orasida bilim olish shakllari boshqacha bo‘lgan. O‘g‘il bolalarning katta qismi mahalla maktablarida Qur’on tilovatini va arab yozuvida o‘qishni o‘rganar, ko‘pincha matn mazmunini chuqur anglamagan holda ham ovoz chiqarib o‘qish malakasiga ega bo‘lgan. Ayrim qatlam vakillari chig‘atoy yoki o‘zbek tilidagi diniy va axloqiy risolalarni o‘qiy olgan. Qizlar uchun bu imkoniyatlar ancha cheklangan bo‘lsa-da, ayrim hududlarda uy sharoitida, qo‘lyozma risolalar va xattotlik an’analari orqali diniy savod berilgan.

Chor Rossiyasi davrida tuzilgan rasmiy statistik ma’lumotlar mahalliy aholi orasida mavjud bo‘lgan savod shakllarining muhim qismini e’tibordan chetda qoldirgan. Buning asosiy sababi shundaki, imperiya ma’muriy tizimi savodlilikni, avvalo, rus tilida yoki kamida rus ma’muriy yozuvi asosida o‘qish va yozishni bilish mezoni orqali belgilagan. “Har bir xalqning oyinayi hayoti” (Avloniy) [5,34] bo‘lgan ona tili va u bo‘yicha savodxonlik maqsadli tarzda e’tibordan chetga surilgan. Shu bois, musulmon aholining an’anaviy diniy-islomiy savodi – xususan, arab yozuvida o‘qish malakasi – Rossiya rasmiy hisobotlarida savodlilik ko‘rsatkichi sifatida tan olinmagan. Natijada statistik ma’lumotlar ongli ravishda pasaytirilgan holatda aks ettirilgan.

Bu holat tarixiy manbalarni tahlil qilishda muhim metodologik masalani yuzaga keltiradi. Masalan, manbalarda uchraydigan “aholining 5–7 foizi savodli edi” kabi ko‘rsatkichlar, odatda, rus tilida o‘qiy oladigan yoki davlat ta’lim tizimi talablari darajasida savodli bo‘lgan qatlamni anglatadi. Arab yozuvida Qur’on tilovatini bajara oladigan, diniy matnlarni o‘qiy olgan aholi esa bu hisob-kitoblarga kiritilmagan. Jadid ziyolilari aynan shu nomutanosiblikni teran anglagan edilar. Ular xalq orasida diniy savod mavjudligini tan olgan holda, bu savod faqatgina diniy doira bilan cheklanib qolayotganini, kundalik hayotda zarur bo‘lgan huquqiy, iqtisodiy va ilmiy matnlarni tushunishga xizmat qilmayotganini muammo sifatida ko‘taradilar.

Rossiyalik rasmiy sharqshunoslar – turkshunoslar, arabshunoslar va etnograf-amaldorlar – o‘z asarlarida Turkiston xalqlarini ko‘pincha “omi”, “ilmiy taraqqiyotdan chetda qolgan”, “global rivojlanish jarayonlaridan uzilib qolgan” jamiyat sifatida tasvirlaganlar. Bu qarash rus byurokratik va harbiy doiralarida keng tarqalgan umumiy kayfiyatni aks ettirar edi. Mazkur muhitda Turkiston musulmonlari “taraqqiyotga qodir emas”, “diniy e’tiqodi sababli yangilanishdan to‘silgan” degan stereotiplar orqali talqin qilindi.

Imperiya ma’muriy tilida musulmon maktablari ko‘pincha faqat Qur’on yodlash bilan cheklanadigan, dunyoviy jihatdan foydasiz bilim beradigan, bolalarni mexanik takrorlashga o‘rgatadigan muassasalar sifatida tasvirlandi. Bu tasvirlar rus maktablari va ayniqsa “rus-tuzem maktablari”ni targ‘ib qilgan siyosiy doiralar tomonidan keng yoyildi. Rus-tuzem maktablari mahalliy bolalarga rus tilini o‘rgatish va imperiyaga sodiq qarashlarni singdirish maqsadida tashkil etilgan bo‘lib, ularda diniy ta’limdan ko‘ra imperiya uchun zarur bo‘lgan fuqarolik intizomi, til va bo‘ysunuv madaniyati ustuvor edi. Rossiya amaldorlari nazarida haqiqiy savodlilik aynan shu maktablar orqali beriladigan ta’lim bilan o‘lchangan.

Shu bilan birga, imperiya ma’muriy apparati uchun savod tushunchasi faqat madaniy yoki ta’lim jihatidagi hodisa emas, balki siyosiy-iqtisodiy qulaylik mezoni sifatida ham talqin qilingan. Savodli aholi deganda soliqlarni tushuna oladigan, bozor munosabatlariga moslasha oladigan, harbiy xizmat buyruqlarini anglaydigan hamda temir yo‘l va sanoat iqtisodiyotiga integratsiyalasha oladigan qatlam nazarda tutilgan. Demak, chor ma’muriyatining “mahalliy aholi savodsiz” degan da’vosi ikki tarkibiy qismdan iborat bo‘lgan: birinchisi statistik-

texnik mazmunda bo‘lib, “rus tilida o‘qiy olmaydi” degan qisman faktga tayanadi (ayniqsa, ayollar va qishloq aholisi orasida); ikkinchisi esa mafkuraviy xarakterga ega bo‘lib, “shu sababli ular bo‘ysunishi lozim” degan siyosiy xulosani ilgari suradi.

Mazkur ritorikaning ichki vazifasi mustamlakachilik siyosatini axloqiy jihatdan oqlashdan iborat edi. Mahalliy aholi siyosiy balog‘atga yetmagan, “bola” holatidagi jamiyat sifatida ko‘rsatilib, ularning o‘zini o‘zi boshqara olmasligi g‘oyasi shakllantirildi [2,7]. Shu asosda imperiya o‘z hukmronligini zarur va muqarrar holat sifatida taqdim etdi.

Biroq bu jarayon kutilmagan yana bir oqibatni ham yuzaga chiqardi. Mahalliy ziyolilar, keyinchalik jadidchilik harakatining asosiy vakillariga aylangan qatlam, o‘zlariga nisbatan ilgari surilgan “qoloqlik” aybini ichki savolga aylantira boshladilar: “Haqiqatan ham biz zamon ilm-fanidan ortda qolmadikmi? Bizning maktablarimiz yangi davr talablariga javob bera olmayaptimi?” degan savollar aynan shu davrda shakllandi [1,4]. Ana shu ichki uyat hissi va o‘z-o‘zini tanqid qilish jarayoni jadidchilik harakatining psixologik boshlanish nuqtasiga aylandi. Jadidlar tashqi tomondan yuklangan aybni ichki chaqiriqqa aylantirib, uni o‘z-o‘zini o‘qitish, ongni yangilash va jamiyatni isloh qilish g‘oyasiga yo‘naltirdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qosimov B. O‘zbek ma’rifatparvarligi tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019.
2. Khalid, A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998.
3. Brower, D. Turkestan and the Fate of the Russian Empire. – London: Routledge, 2003.
4. Abdullaev S. Jadid maktablari va yangi pedagogik tafakkur. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
5. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1913.
6. Allworth, E. A. Central Asia: One Hundred Thirty Years of Russian Dominance. – Duke University Press, 1994.
7. Carrère d’Encausse, H. Islam and the Russian Empire: Reform and Revolution in Central Asia. – University of California Press, 1988.
8. Ostroumov N. P. Russkaya shkola v Turkestane. – Toshkent, 1895.
9. Kamp, M. The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism. – University of Washington Press, 2006.

SCIENCE & EDUCATION
IN THE 21ST CENTURY

BIRINCHI KURS QIZ TALABALARINING JISMONIY RIVOJLANISHINING ANTROPOMETRIK KO‘RSATKICHLARI (M.V.LOMONOSOV NOMIDAGI MOSKVA DAVLAT UNIVERSITETINING TOSHKENT SHAHRIDAGI FILIALI MISOLIDA)

Shelyagina Irina Nikolayevna

Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universitetining
Toshkent shahridagi filiali,
pedagogika fanlari doktori, dotsent v.b.
Shelyaginai@list.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.18978658

ANNOTATSIYA

Maqolada Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filialining to‘rtta fakultetining birinchi kurs talaba-qizlarining antropometrik tadqiqotlari natijalari keltirilgan. Tana vazni indeksi (TVI), jismoniy rivojlanishning mutanosibligi va nafas olish tizimi hamda yuqori oyoq-qo‘l mushaklarining funksional holatining qiyosiy tahlili o‘tkazildi. Baholash vositalariga tuzatishlar kiritildi va talabalarning bo‘sh vaqtlarida mustaqil o‘rganishlari uchun turli dasturlar ishlab chiqildi.

KALIT SO‘ZLAR

tana uzunligi, tana og‘irligi, tana vazni indeksi, jismoniy rivojlanish, antropometrik parametrlar, sog‘liq, nafas olish tizimi, jismoniy faollik, talabalar.

ANTHROPOMETRIC INDICATORS OF PHYSICAL DEVELOPMENT OF FIRST-YEAR FEMALE STUDENTS (CASE STUDY: THE TASHKENT BRANCH OF LOMONOSOV MOSCOW STATE UNIVERSITY)

Shelyagina Irina Nikolayevna

Tashkent Branch of Lomonosov Moscow State University
PhD in Pedagogical Sciences, acting associate professor

ABSTRACT

This paper presents the results of anthropometric studies of first-year female students from four faculties of the Tashkent branch of Lomonosov Moscow State University. A comparative analysis of BMI, physical development proportionality, and the functional state of the respiratory system and upper limb muscles was conducted. Adjustments to the assessment tools have been made, and various programs for independent study by students during their free time been developed.

KEYWORDS

body length, body weight, body mass index, physical development, anthropometric parameters, health, respiratory system, physical activity, students.

АНТРОПОМЕТРИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ СТУДЕНТОК ПЕРВЫХ КУРСОВ (НА ПРИМЕРЕ ФИЛИАЛА МГУ ИМ. М.В. ЛОМОНОСОВА В ТАШКЕНТЕ)

Шелягина Ирина Николаевна

Филиал МГУ им М.В.Ломоносова в г. Ташкенте
к. пед.н., и.о.доцента

АННОТАЦИЯ

В работе представлены результаты антропометрических исследований студенток первых курсов 4-х факультетов Филиала МГУ им. М.В.Ломоносова в г. Ташкенте. Проведен сравнительный анализ индекса массы тела(ИМТ), пропорциональности физического развития, функционального состояния дыхательной системы, мышечной системы верхних конечностей. Внесены коррективы в оценочные средства и разработаны различные виды программ для самостоятельных занятий студентками в свободное от учебы время.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

длина тела, масса тела, индекс массы тела, физическое развитие, антропометрические пара¬метры, здоровье, дыхательная система, двигательная активность, студенты.

Введение. Морфологические особенности тела важный аспект, которым пользовались в античные времена и средние века. Знания древних греков, дошедшие до нас, свидетельствовали о конституционном строении тела, который подходил для занятий определенным видом спорта и выводил в победители на олимпийских играх. Обоснование ведущей роли антропометрии происходит лишь в XX веке, первой его половине.

Антропометрия от греч. soma – тело и лат. status – состояние, иными словами, означает телосложение и его особенности - различные параметры тела, которые выражаются в различных антропометрических показателях и индексах. В последние 15-20 лет в спортивной науке сформировалось самостоятельное направление – спортивный отбор, где происходит изучение особенностей строения тела атлетов, а также изменений морфологического и функционального состояния. Применение методов математического анализа используется для определения уровня различных качеств, свойств новичков и сопоставления с данными выдающихся спортсменов.

Помимо отбора в различные виды спорта, антропометрия применяется и в военно-образовательных организациях. Так, специалистами медицинской комиссии принимается решение о пригодности абитуриента к поступлению в военный вуз. Одним из пунктов непригодности считаются молодые люди с дистрофией и ожирением II-III степени, с низким уровнем функционального состояния и признаками отставания в физическом развитии [1].

Исследования оценки морфофункциональной системы студенческой молодежи единичны и носят фрагментарный характер [2]. Антропометрические измерения позволяют значительно улучшить уровень физического развития под целенаправленным воздействием физических упражнений и занятий различными видами спорта.

Цель исследования - изучить антропометрические характеристики и физическое развитие студенток первых курсов для корректировки образовательного процесса, отбора в учебно-тренировочные секции и самостоятельных занятий в свободное время.

Материалы и методы исследования. В исследованиях приняли участие 125 студенток первых курсов факультетов Филология, Психология, Менеджмента, Реклама и связь с общественностью (РИСО) в возрасте 18-20 лет.

Исследования были проведены в начале 2025-2026 учебного года. Измерение антропометрических параметров осуществлялось на занятиях «Физическая культура».

Методика проведения стандартная и информативная. Регистрировались следующие параметры: масса тела, длина тела стоя, охватные размеры (грудной клетки: в покое, на вдохе, выдохе, экскурсия; талии; окружность левого и правого плеча в покое и напряжении; окружность шеи, индекс талия/рост); определяли индекс массы тела (ИМТ) разработанный социологом и статистом Адольфом Кетле в 1869 году, соответствие массы тела и роста, для характеристики пропорциональности тела

применялся индекс пропорциональности Пирке [3;4].

Таблица 1

Сравнительный анализ показателей веса, роста, ИМТ у студенток первых курсов различных направлений

Показатели	Психология	Филология	Менеджмент	РИСО
Масса тела (кг)	60,1±2,8	62,4±1,4	59,5±2,9	63,2±1,2
Рост-длина тела (см)	162,7±3,6	165,3±1,3	161,9±2,7	163,8±1,5
ИМТ (кг/м2)	22,9±1,8	22,7±2,1	23,7±1,1	23,5±1,2

Согласно классификации ВОЗ, показатели ИМТ:

- менее 18,5 соответствуют дефициту массы тела;
- 18,5-24,9 – норма;
- более 25 – избыток массы (пред ожирение, ожирение - I, II, III степеней).

Сравнительный анализ показателей ИМТ среди студенток различных специальностей, находится в пределах нормы 22,7 – 23,7, достоверных различий между группами не наблюдался. Имелись единичные случаи дефицита массы тела у 5 студенток, и ожирения 1-й степени у 9 студенток.

Пропорциональность телосложения определялась с использованием индекса Пирке, соотношение длины ног и туловища:

менее 87% - малая длина ног, низкий центр тяжести;

87-92% - пропорциональное,

свыше 92% - большая длина ног, высокое расположение центра тяжести.

Таблица 2

Сравнительный анализ пропорциональности развития студенток курсов различных направлений

Показатели	Психология	Филология	Менеджмент	РИСО
Рост-длина тела (см)	162,7±3,7	165,3±2,1	161,9±3,5	163,8±2,8
Рост сидя (см)	77,5±1,6	79,7±1,4	76,9±1,7	78,5±1,4

Проведенный анализ пропорциональности развития по соотношению длины ног и туловища (индекс Пирке) позволил констатировать пропорциональность телосложения у большинства студенток. В исследовании зафиксированы результаты большой длины ног у - 20%, малой длины у 8%, остальные 72% обладают пропорциональной длиной.

Одним из важных физиологических показателей физического развития является функциональное состояние дыхательной системы. Измерения грудной клетки производилось: в спокойном состоянии, на вдохе, на выдохе. Экскурсия грудной клетки – по разности показателей максимального вдоха и выдоха.

Таблица 3

Сравнительный анализ функционального состояния дыхательной системы студенток

Показатели	Психология	Филология	Менеджмент	РИСО
В состоянии покоя	83,9±1,9	86,4±1,2	81,5±2,9	85,8±1,3
вдох	87,2±2,2	89,6±1,4	86.3±2,4	90,3±1,3
выдох	82,1±1,5	83,1±2,3	80,2±2,7	84,5±1,1
экскурсия	5,1±1,5	6,5±1,1	6,1±1,4	5,8±1,3

Анализ функционального состояния дыхательной системы по результатам экскурсии грудной клетки находится у большинства студенток в пределах физиологической нормы, но есть единичные случаи низкой экскурсии: – менее 4 см.

У 7% студенток зафиксирован результат экскурсии грудной клетки более 8-9 см; 80% показали - 5-6 см; у 13% результат - 3-4 см.

Мышечную силу кистей рук определяли с помощью электронного ручного динамометра (ДМЭР). Методика проведения стандартная: отвести выпрямленную руку с динанометром в сторону под прямым углом к туловищу, другая рука – опущена вдоль тела. Сжать с максимальной силой пальцами кисти динамометр поочередно правой и левой рукой.

Таблица 4

Сравнительный анализ мышечной силы кистей рук студенток

Показатели	Психология	Филология	Менеджмент	РИСО
Правая рука	28,1±2,1	27,6±2,8	25,9±2,6	29,2±2,2
Левая рука	23,4±3,2	22,8±3,4	21,6±4,1	26,4±3,3

Проведенный сравнительный анализ динамометрии правой и левой кистей рук студенток показал средние результаты: правой кисти руки 27,7± 2,4; левой кисти руки – 23,5 ± 3,5. При проведении тестирования было выявлено, что 11% девушек «левши», 89% - «правши». Так же необходимо отметить, что высокий результат силы кисти наблюдался у 21% обследованных студенток, средний показатель отмечен у 69%, а низкие значения выявлены у 10%.

Мышечный объем предплечья рук измеряли с использованием сантиметровой ленты, накладыванием ее на серединную часть предплечья в расслабленном состоянии. Затем руку сгибали с максимальным напряжением. Фиксировались показатели в состоянии покоя и напряжения.

Таблица 5

Сравнительный анализ окружности плечевого сустава студенток

Показатели	Психология	Филология	Менеджмент	РИСО
Правый плечевой сустав в покое	26±3,1	25±0,41	26±0,3	24±1,9
Правый плечевой сустав напряженный	28±2,8	27±0,23	28±0,42	25±3,4
Левый плечевой сустав в покое	26±2,1	25±0,42	24,6±4,1	24±2,1
Левый плечевой сустав напряженный	27±3,2	26±0,54	26±0,54	26±3,3

При изучении обхватных размеров плечевых суставов было обнаружено, что максимальное значение в напряжении правого плечевого сустава составляет 28 ± 2,8 см, а минимальное значение 24±1,9 см. Левый плечевой в покое 24±2,1, а в напряжении 27±3,2.

Заключение. Проведенное исследование антропометрических показателей физического развития студенток первого курса факультетов Психология, Филология, Менеджмент, Реклама и связь с общественностью является критерием здоровья.

Получены антропометрические показатели: роста, веса, ИМТ и их сравнительный анализ. Длина тела в среднем составила 163,4±0,61 см, масса 61,3±1,03 кг, ИМТ находится в пределах нормы 23,2. Достоверных различий между факультетами не наблюдается. Выявлены единичные случаи дефицита массы тела у 5 студенток, и ожирения 1-й степени у 9 студенток.

Анализ пропорциональности развития (индекс Пирке) позволил констатировать пропорциональность телосложения у большинства студенток. В исследовании зафиксированы результаты большой длины ног у 20%, малой у 8%, и пропорциональной длины у оставшихся 72%.

Функциональное состояние дыхательной системы – экскурсия грудной клетки у большинства студенток в пределах физиологической нормы (8-9см -7%, 5-6см -80%; 3-4см -13%).

Динамометрия правой и левой кистей рук выявила высокий результат у 21% девушек, средний у 69%, низкий у 10%. Следует отметить, что 11% девушек оказались «левшами», 89% - «правшами».

При измерении обхватных размеров плечевых суставов было установлено, что максимальное значение в напряжении составляет 28 ± 2,8 см, а минимальное значение 24±1,9 см.

Выявленные в ходе проведенного исследования низкие показатели дыхательной системы и обхватные размеры плечевых суставов корректируются в учебном процессе и в самостоятельных занятиях студенток.

Для улучшения функционального состояния дыхательной системы и увеличения экскурсии грудной клетки выполняются диафрагмальное дыхание, различные растяжки, вращения и прогибы туловищем, силовые упражнения на укрепление мышц, а также аэробные упражнения (ходьба, бег, плавание).Укрепление верхнего плечевого пояса, тренировка мышц и тонуса кожи возможны с помощью упражнений в спортивном зале и/или дома, в числе которых все

виды отжиманий (от пола, стены, скамьи, стула), отведение согнутых рук с прогибом туловища назад, разведение гантелей через стороны, разгибания рук из-за головы, горизонтальное разведение; выпрямление рук из планки на локтях.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Бочарин И.В., Гурьянов М.С. Особенности антропометрических показателей студентов младших курсов Карельский научный журнал. 2023. Т. 12. № 2(43) С. 5-9
2. Гайворонский И.В., Семенов А.А. Компонентный состав тела как один из показателей физического развития. // Анатомия –фундаментальная медицина. 2022: 87–92
3. Калмин О.В., Фрунзе Е.М. Сравнительная характеристика уровня физического развития девушек гуджратской народности и некоторых регионов России / О.В. Калмин, Е.М. Фрунзе // Известия высших учебных заведений: Поволжский регион: Медицинские науки. – 2021. – №1 (57). – С. 86–93
4. Пашкова И.Г., Гайворонский И.В., Никитюк Д.Б. Соматотип и компонентный состав тела взрослого человека. Санкт-Петербург: Спец Лит, 2019. 159 с.

SCIENCE & EDUCATION IN THE 21ST CENTURY

MURABBIY-O‘QITUVCHINING JISMONIY TARBIYADAGI ROLI: SPORTCHI-SHOGIRD O‘RTASIDAGI O‘ZARO MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI

Zakirova Renata Rinatovna

M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiali, katta o‘qituvchi
renik_zaki@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.18978715

ANNOTATSIYA

Maqolada murabbiy-o‘qituvchining sport faoliyati tizimidagi asosiy shaxs sifatidagi roli va uning talaba-sportchi shaxsni shakllantirishdagi ahamiyati o‘rganiladi. “Murabbiy-o‘qituvchi-sportchi-shogird” diadasidagi o‘zaro ta'sirning psixologik jihatlariga va shaxslararo munosabatlarning motivatsiya, hissiy barqarorlik va sport natijalariga ta'siriga alohida e'tibor qaratiladi.

KALIT SO‘ZLAR

murabbiy, o‘qituvchi, talaba, sportchi, sport psixologiyasi, motivatsiya, ishonch, hissiy qo‘llab-quvvatlash, sport faoliyati.

THE ROLE OF THE COACH-TEACHER IN PHYSICAL EDUCATION: THE PSYCHOLOGY OF ATHLETE-STUDENT INTERACTIONS

Zakirova Renata Rinatovna

Tashkent Branch of Lomonosov Moscow State University, Senior Lecturer

ABSTRACT

The article examines the role of a coach-teacher as a key figure in the system of sports activities and its importance in the formation of personality student-athlete. Particular attention is paid to the psychological aspects of interaction in the "coach-teacher-athlete-student" dyad, and the influence of interpersonal relationships on motivation, emotional stability, and athletic performance.

KEYWORDS

coach, teacher, student, athlete, sports psychology, motivation, trust, emotional support, sports activities.

РОЛЬ ТРЕНЕРА-ПРЕПОДАВАТЕЛЯ В ФИЗИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ: ПСИХОЛОГИЯ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ СО СТУДЕНТОМ-СПОРТСМЕНОМ

Закирова Рената Ринатовна

Филиал МГУ им. М.В. Ломоносова в г.Ташкенте, старший преподаватель

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается роль тренера-преподавателя как ключевой фигуры в системе спортивной деятельности и его значение в формировании личности студента-спортсмена. Особое внимание уделяется психологическим аспектам

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

тренер, преподаватель, студент, спортсмен, спортивная психология, мотивация, доверие, эмоциональная

взаимодействия в диаде «тренер–преподаватель-спортсмен-студент», влиянию межличностных отношений на мотивацию, эмоциональную устойчивость и спортивные результаты.

поддержка, спортивная деятельность.

Граждане Республики Узбекистан имеют право заниматься любительским, массовым, индивидуальным, женским и профессиональным спортом в качестве спортсмена, студента, тренера или судьи.

Порядок создания и условия функционирования предприятий учреждений и организаций в области профессионального спорта определяются законодательством.

Квалификационные требования к профессиям студента, спортсмена, тренера и судьи по виду спорта определяются уполномоченным органом государственного управления физической культурой и спортом. Любительский и профессиональный спорт условиях высокой соревновательной напряжённости и ориентации на достижение максимальных результатов особое значение приобретает качество взаимодействия между тренером, преподавателем, спортсменом и студентом. В современном спорте тренер-преподаватель выступает одной из ключевых и наиболее ответственных фигур, определяющей стратегию спортивного развития, формирующей устойчивую мотивацию и оказывающей существенное влияние на становление личности спортсмена, студетнта. Уровень профессиональной компетентности и личностные особенности тренера-педагога во многом определяют не только успешность спортивной деятельности, но и психологическое благополучие спортсмена.

Межличностные отношения в системе «тренер-преподаватель–спортсмен-студент» оказывают значимое влияние на эмоциональное состояние и динамику личностного развития. Поддерживающее взаимодействие способствует формированию эмоциональной устойчивости, развитию навыков саморегуляции, укреплению внутренней мотивации к достижению целей, а также становлению гармоничной и зрелой личности в целом. Таким образом, тренер-преподаватель выполняет не только функцию технического наставника, но и становится важным агентом социализации и психологической поддержки.

Профессиональная деятельность тренера-преподавателя достаточно чётко определена - обладание специализированными знаниями и навыками, необходимыми для воспитания спортсмена-студента и его подготовки к соревновательной деятельности — это сложный, длительный и многоплановый педагогический процесс, который включает в себя планомерное развитие физических способностей, формирование волевых качеств, регулирование эмоциональной сферы и стимулирование интеллектуального роста спортсмена. Фактически, тренер создаёт условия для всестороннего развития личности спортсмена-студента, направляя его как в физической, спортивной культуре, так и в психологической сфере. Благодаря этому взаимодействие преподавателя-тренера и спортсмена-студента выступает одним из ключевых факторов успешности в спортивной деятельности, определяющим устойчивость к стрессу, способность к преодолению трудностей и достижению высоких результатов.

Работа специалиста требует не только глубоких специализированных знаний в области теории и методики спорта, физической культуры, физического воспитания, физиологии, психологии, педагогики, но и развитых коммуникативных навыков, способности к эмпатии, гибкости, самоконтролю и высокой ответственности. Современный тренер-преподаватель выступает не просто наставником, психологом, мотиватором, стратегом, способным создавать условия для раскрытия потенциала каждого учащегося.

Выделяется ряд психологических особенностей тренерско-педагогической деятельности, которые отличают ее от других педагогических профессий:

1. Работа специалиста предполагает постоянное, систематическое взаимодействие со спортсменами-студентами на учебно-тренировочных занятиях, соревнованиях. Тем самым, это создаёт условия для глубокого изучения индивидуально-психологических особенностей и систематического воспитательного воздействия, накладывает значительную ответственность за физическое и личностное развитие.

2. Тренерская-педагогическая деятельность сопряжена с выраженным «профессиональным риском»: высоких результатов нередко приходится ждать годами, не имея гарантий на их достижение. Это требует терпения, устойчивой мотивации и нравственной ответственности перед спортсменами.

3. Стрессогенность периода соревнований.

Тренеру также необходимо поддерживать коммуникацию с широким кругом лиц, участвующих в обеспечении учебно-

тренировочного процесса - родителями спортсменов-студентов, администрацией, судьями, журналистами, медицинскими специалистами. Это требует развитых коммуникативных навыков и сильной эмоциональной выдержки.

Дополнительной психологической особенностью является неизбежность колебаний профессионального статуса: периоды успехов сменяются недочётами, что создает ощущение нестабильности и неопределённости.

Рассмотрим межличностные отношения между тренером-преподавателем и спортсменом-студентом, опираясь на фундаментальное понимание роли специалиста в сфере спортивной деятельности. Эффективное взаимодействие между ними играет ключевую роль в формировании успешной спортивной и разноплановой карьеры. Оптимальные отношения строятся на взаимном доверии, уважении и поддержке, что позволяет спортсмену раскрывать свой потенциал, а тренеру-педагогу - целенаправленно и гибко выстраивать процесс подготовки. Такие отношения предполагают не только совместное постановление целей и контроль их выполнения, но и обеспечение психологической поддержки, конструктивной обратной связи, умение сочетать требовательность с заботой. Гармоничное взаимопонимание между тренером и спортсменом становится психологическим фундаментом стабильного прогресса и достижения высоких результатов.

Тренер и спортсмен являются единой комплектацией, одним механизмом, это относится не только к спортивным единоборствам, но и к спортивным командным играм. Утверждение «старательно заслужить доверие и его поддерживать» отражает ключевую психологическую особенность успешного спортивного взаимодействия: доверие и взаимоуважение являются фундаментом отношений «спортсмен–тренер». Взаимосвязь тренера и спортсмена как динамическая система, основанная на взаимодействии чувств, мыслей и поведенческих проявлений обеих сторон представляет собой всеобъемлющую концепцию, которая описывает природу этих отношений. Психологическая эффективность сотрудничества формируется посредством ряда взаимодополняющих компонентов.

Первым элементом модели является эффективная составляющая, описывающая уровень эмоциональной поддержки между тренером и спортсменом. Она включает в себя такие аспекты как поддержка, доверие и взаимное уважение. Эта часть взаимодействия отражает качество эмоционального контакта, который становится основой для формирования устойчивых отношений.

Второй компонент – приверженность, «совместная работа как единое целое», сотрудничество, развитие партнёрских отношений и сохранение стабильности взаимодействия на протяжении определённого времени. Приверженность тесно связана с когнитивными представлениями спортсмена и тренера друг о друге и с тем, насколько осознанно они воспринимают ценность совместной работы.

Третий компонент — комплементарность, которая описывает поведенческий аспект взаимодействия. Она проявляется в умении сторон эффективно координировать совместные действия, поддерживать рабочий ритм учебно-тренировочного процесса, демонстрировать отзывчивость, инициативность готовность сотрудничать. Элемент отражает согласованность поведения и уровень межличностной адаптации.

Другой важный компонент — совместная ориентация. Эта модель обозначает степень согласованности взглядов тренера-преподавателя и спортсмена-студента на цели, стиль взаимодействия и на то, каким образом стороны видят качество своих отношений.

Исследования показывают, что высокий уровень развития всех перечисленных компонентов связан с большей удовлетворённостью спортсменов-студентов взаимодействием с преподавателем-тренером а также высоким уровнем командной сплочённости и формированием гармоничной, а не навязчивой спортивной мотивации. Успешные атлеты характеризуются именно теми типами взаимодействия, в которых присутствуют социальная поддержка, доверие, взаимопонимание и устойчивое чувство партнёрства.

В нациальной спортивной психологии, роль и отношения «тренер–спортсмен» рассматриваются как многогранная и личностная система взаимодействия. Спортивная подготовка не ограничивается техническими или физическими аспектами: её эффективность определяется качеством психологического и социально-педагогического партнёрства между тренером и спортсменом. Такое партнёрство предполагает взаимное доверие, уважение, поддерживающую коммуникацию и эмоциональную включённость обеих сторон, что значительно расширяет роль тренера-преподавателя в подготовительном процессе.

Формирование личности студента-спортсмена происходит не только под влиянием тренировочных нагрузок, но и в результате целенаправленного психологического сопровождения. Особое значение придается развитию мотивации, волевых качеств, эмоциональной устойчивости и способности к саморегуляции — тех характеристик, которые обеспечивают студенту возможность эффективно справляться с профессиональными трудностями и стрессовыми ситуациями, связанными с соревнованиями и высокими ожиданиями.

Психологическая совместимость тренера и спортсмена служит фундаментом для гармоничного развития студента-спортсмена, укрепления его мотивационной сферы и повышения эффективности тренировок. Такой подход полностью соответствует традициям отечественной психологической школы, ориентированной на целостное развитие личности и тесное соединение педагогических и психологических методов воздействия.

Для того чтобы лучше понять, как строятся отношения между спортсменом-студентом и тренером-преподавателем, выделим следующие компоненты: контакт, ко-ориентацию и комплементарность.

Эмоциональный аспект взаимоотношений - когда спортсмен чувствует, что тренер в него верит, ему легче раскрывать свой потенциал, делиться переживаниями и принимать трудные решения.

Ко-ориентация демонстрирует и определяет то, насколько спортсмен и тренер «смотрят в одну сторону». Она содержит общие цели, согласованные представления о тренировочном процессе, ценности и подходы. Открытое общение помогает лучше понимать друг друга, согласовывать ожидания и обсуждать проблемы, что делает совместную работу более продуктивной.

Комплементарность описывает распределение ролей и то, насколько стороны дополняют друг друга. Тренер-преподаватель предоставляет знания, опыт и стратегии, которых нет у спортсмена, а спортсмен реализует их на практике, проявляя дисциплину, усилия и мотивацию. Чем лучше согласованы эти роли, тем эффективнее тренировочный процесс.

Когда один или несколько компонентов отсутствуют, отношения становятся напряжёнными: возникают недоверие, расхождение целей, конфликты или недопонимание, что снижает качество взаимодействия и отражается на спортивных результатах.

В итоге профессиональная деятельность тренера-преподавателя представляет собой сложную динамическую систему, где психологические, педагогические и социальные аспекты тесно переплетены. Эффективность спортивной подготовки определяется не только физическими и техническими параметрами, но и качеством межличностного взаимодействия, уровнем эмоциональной поддержки и способностью тренера строить доверительные, конструктивные и мотивирующие отношения со спортсменами-студентами. Поэтому подготовка специалистов должна включать не только освоение методики спорта, физиологии и педагогики, но и обучение психологии, навыкам коммуникации, эмоциональной регуляции и стратегическому планированию межличностных отношений.

Заключение. Отношение «тренер–преподаватель-спортсмен» выступают фундаментом успешного развития спорта как профессионала, так и личности. Качество определяет эффективность учебно-тренировочного процесса, психоэмоциональное благополучие, мотивацию и устойчивость к стрессу, а также формирует условия для достижения высоких спортивных результатов и гармоничного личностного роста. Взаимодействие, построенное на доверии, уважении и взаимопомощи, становится ключевым ресурсом, позволяющим спортсмену-студенту раскрывать потенциал, тренеру-преподавателю — эффективно управлять процессом подготовки и поддерживать высокий уровень профессионализма.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Закон Республики Узбекистан «О физической культуре и спорте», 2000г.
2. Ильина Н. Л. Психология тренера: учеб. пособие. — СПб.: Изд-во С.-Петерб. 2016.
3. Brett Bartolomew, Conscious Coaching: The Art and Science of Building Buy-In, 2017
4. Jowett, S.& Cockerill, I. M. (2003). Olympic medalists’ perspective of the athlete– coach relationship. Psychology of Sport and Exercise.
5. Коломейцев Ю.А. Исследование влияния межличностных отношений на эффективность спортивной деятельности:

Автореф. Дисс. …канд. психол. наук. Тарту, 1974.
6. Родионов А.В. Влияние психологических факторов на спортивный результат. – М.: Физкультура и спорт, 1987.
7. Физическая культура студента. /Под редакцией В. И. Ильинича.- М.: Гардарики, 2000г.

SCIENCE & EDUCATION
IN THE 21ST CENTURY





“BUYUK IQTISODCHILAR: NOBEL MUKOFOTI

Bu sonda Iqtisodiyot sohasida Xalqaro Nobel mukofoti sovrindori bo‘lgan JON RICHARD XIKS haqidagi ma’lumotni taqdim etamiz

SCIENCE & EDUCATION
IN THE 21ST CENTURY

Abduhakim Mamanazarov
iqtisodiyot fanlari nomzodi, pedagogika fanlari doktori, dotsent
Mansur Mamanazarov
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha Falsafa doktori (PhD)

KIRISH SO‘ZI


Iqtisodiy tafakkur insoniyat taraqqiyotining muhim ustunlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiyot sohasidagi ilmiy izlanishlar nafaqat nazariy bilimlar rivojiga xizmat qiladi, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, davlat siyosati samaradorligi va global taraqqiyot yo‘nalishlarini belgilashda ham muhim o‘rin tutadi. “Science and Education in the 21st Century” jurnali tomonidan yo‘lga qo‘yilgan “Buyuk iqtisodchilar: Nobel mukofoti laureatlari” rukni ana shu yuksak maqsadga xizmat qilib, zamonaviy iqtisodiy tafakkur rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk olimlar hayoti va ilmiy merosini yoritishda davom etmoqda.

Avvalgi sonlarimizda biz iqtisodiyot fanining buyuk namoyandalari — Ragnar Frish, Yan Tinbergen, Pol Samuelson hamda Saymon Kuznetsning hayoti, ilmiy faoliyati va ularning iqtisodiy tafakkur rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi bilan tanishgan edik. Ushbu sonimizda esa ilmiy sayohatimizni davom ettirib, XX asr iqtisodiyot fanining eng yirik nazariyotchilaridan biri, umumiy iqtisodiy muvozanat va makroiqtisodiy modellashtirish rivojiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk britaniyalik olim — Jon Richard Xiks hayoti va ilmiy faoliyatini ko‘rib chiqamiz.

Jon Richard Xiks iqtisodiy nazariyani yangi bosqichga olib chiqqan olimlardan biri sifatida tanilgan. Ayniqsa, uning umumiy iqtisodiy muvozanat nazariyasini rivojlantirish, IS-LM modeli orqali makroiqtisodiy tahlilga yangi yondashuv olib kirish hamda farovonlik iqtisodiyoti sohasidagi tadqiqotlari zamonaviy iqtisodiyot fanining ajralmas qismiga aylandi. Uning ilmiy ishlari iqtisodiy siyosatni shakllantirish, iqtisodiy jarayonlarni tushuntirish va prognoz qilishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ushbu maqola orqali o‘quvchilarimiz nafaqat Jon Richard Xiksning hayoti va ilmiy faoliyati bilan tanishadilar, balki uning nazariyalari bugungi zamonaviy iqtisodiyot rivojida qanday muhim o‘rin tutayotganini ham chuqurroq anglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

JON RICHARD XIKS



1972-yilda amerikalik iqtisodchi **Kennet Jozef Errou** bilan birgalikda *«Muvozanat nazariyasiga va farovonlik nazariyasiga qo‘shgan novatorlik hissalari uchun»* Iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti laureati bo‘lgan ingliz iqtisodchisi, keynschilik ta’limoti davomchisi, XX asr G‘arb iqtisodiy tafakkurining atoqli va mashhur namoyandasi ser Jon Richard Xiks 1904–1989-yillarda yashagan. Butun dunyoda, G‘arb va Sharq iqtisodchilari ilmiy va ommabop asarlarida Jon Richard Xiks yakdillik bilan ulkan nazariyotchi-iqtisodchi olim sifatida e’tirof etiladi. Allomaning 30 ga yaqin kitoblari va 100 ga yaqin mustaqil maqolalarida iqtisodiy nazariyaning o‘ta muhim muammolari – qiymat, talab va narx, ish haqi, kapital va foyda, xo‘jalik rivojlanishi, sanoat sikllari, inflyatsiya va hokazolar ko‘p hollarda tadqiqot markazida bo‘lib keldi.

Jon Richard Xiks 1904-yil 8-aprelda Birmingem shahridan uncha uzoq bo‘lmagan Uorik qo‘rg‘onchasida tavallud topdi. Bo‘lg‘usi allomaning otasi Edvard Xiks mahalliy gazeta tahririyatida jurnalist bo‘lib ishlagan. Bolalikdagi kuchli matematik layoqati tufayli Jon Qirolicha stipendiyasini olishga muyassar bo‘lgani bois, 1917–1922-yillarda Birmingemdagi Klifton kollejida, 1922–1926-yillarda esa Oksford universitidagi Beyllioz kollejida tahsil ko‘rdi.

Oksford universitetida bir yil davomida matematikani o‘rganganidan so‘ngra Jon Xiksning qiziqishlari siyosat, falsafa va ayniqsa iqtisodiyot sari siljiyotgani ma’lum bo‘la boshladi. Oksfordda Jon Richard Xiksning «ustozi va murabbiysi» yaqindagina ana shu universitetni bitirib chiqqan, fabianchilik harakatining taniqli arbobi **Jeyms Koulz** (1889–1959) bo‘lgan. Jon Xiksning akademik bilim olish layoqati xarakteristikasi bo‘lg‘usi alloma erishadigan yutuqlardan hali dalolat berolmasdi, o‘zi e’tirof etganidek, «o‘qishni ikkinchi darajali stipendiya va o‘rganilgan fanlar bo‘yicha yetarli bo‘lmagan, o‘zimni qoniqtirmaydigan qanaqadir bir navi bilimlar bilan bitirib» chiqqan ekan.

1926-yilda Jon Richard Xiks London Iqtisodiyot maktabida vaqtinchalik ma’ruzalar kursini yuritish imkoniyatini qo‘lga kiritdi. Avvaliga «Mehnat iqtisodiyoti» bo‘yicha ixtisoslashdi, ko‘p o‘tmay «Iqtisodiyot nazariyasi»ga ko‘chib o‘tdi, bunda esa uning matematik iqtidori nihoyatda samarali bir qurol ekanligi oydinlashdi. Bir ozdan so‘ng qahramonimiz «Yalpi muvozanat nazariyasi»ni yaratgan XIX asr shveysariyalik fransuz iqtisodchisi **Leon Mari Esperi Valras** (1834–1910) va «Farovonlik iqtisodiyoti ta’limoti» asoschisi bo‘lmish XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari italyan iqtisodchisi, psixologi va sotsiologi **Valfredo Pareto** (1856–1923) qarashlari ta’siriga tushib qoladi. 1931-yilda London Iqtisodiyot maktabiga ishga ko‘chib kelgan avstriyalik **Fridrix Avgust Xayek**ning (1899–1992, 1974-yilda Nobel mukofoti laureati bo‘lgan) ilmiy asarlari Jon Richard Xiksni Makroiqtisodiyot muammolariga oshino qilgan edi.

Jon Xiks London Iqtisodiyot maktabida 1935-yilga qadar qoldi, shu yili esa Kembrijdagi Gonvill end Kingz kolleji o‘qituvchilari sirasiga kiritilgan edi. 1928–1931-yillarda buyuk Jon Meynard Keyns bosh muharriri bo‘lgan «Iqtisodiyot» jurnalida qurilish sohasida ish haqini shakllantirish shart-sharoitlariga (yozib qo‘yilgan dissertatsiya materiallari), kapitalistik foyda tadbirkorlik operatsiyalarini xarakterlovchi bevosita bog‘liqliklardan kelib chiqishini yorituvchi nazariy konsepsiyalarga va boshqa mavzularga bag‘ishlangan bir qator maqolalari e’lon qilindi.

1932-yilda Jon Richard Xiks o‘zining **«Ish haqi nazariyasi»** degan birinchi kitobini nashr etdi.

Hali o‘ttizga ham to‘lmagan navqiron ingliz olimi bu asarida iqtisodiyotning umumiy masalalariga, eng avvalo, «qiymat» kategoriyasiga zo‘r qiziqishini namoyish etgandi.

«Erkin bozor sharoitida ish haqini belgilash nazariyasi – qiymat umumiy nazariyasining xususiy va juz’iy bir ko‘rinishidir» degan jumladan boshlangan mazkur asarda bayon etilgan ish haqi miqdorini ishchi mehnati pirovard mahsuli kattaligi bilan bog‘liq holda tushuntirib beruvchi Konsepsiya kitob bosmadan chiqqan kezlarda allaqachon yarim asrlik tarixga ega chiqib bo‘lgan edi. Shuning uchun ham muallif **Jon Beyts Klark**ning (1847–1938) «Boylikning taqsimlanishi» va **Alfred Marshall**ning (1842–1924) «Siyosiy iqtisodiyot tamoyillari» asarlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilaveradi. Biroq bu davrga kelib, muhokama markaziga «mukammal raqobat» deb ataluvchi shartlar turkumi barbod bo‘lgan bir sharoitda bozorlarning ishlab turishi xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar ilgari surilayotgan edi.

1939-yilda Jon Richard Xiks o‘zining «klassik asar» maqomiga ega bo‘lgan **«Qiymat va kapital»** deb nomlangan asosiy ilmiy ishini bosmadan chiqardi. Ana shu asar Iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti laureati **Pol Entoni Samuelson**ning **«Iqtisodiy tahlil asoslari»** (1947) degan asarining ilk britaniyalik versiyasi deb ham hisoblanadi *(yana qarang: «Pol Entoni Samuelson» va mavzuga oid*

boshqa maqolalar).

«Qiymat va kapital» asarida mikroiqtisodiy nazariya masalalari markaziy o‘rin tutadi. Tahlil esa yaqqol ifodalangan individual xarakterga ega. Barcha nazariy modellarda iste’molchi o‘z maqsadli funksiyasi (ordintalistik foydadorlik funksiyasi) eng katta ko‘rsatkichini ta’minlash yo‘lida, tadbirkor esa olinayotgan foydani maksimallashtirish maqsadida ish ko‘rishi nazarda tutilgan.

Mazkur asarning ko‘pgina qoidalari va jihatlari neoklassiklar Pareto, Ejuort, Viksell g‘oyalarini yanada rivojlantirishdan dunyoga kelgan. Ana shu kitobda yangicha masalalar qo‘yilishi esa umumiy yalpi muvozanat tizimidagi xo‘jalik yuritishni ko‘rib chiqishga Jon Richad Xiks neoklassiklarga qaraganda ko‘proq e’tibor qaratganligi bilan belgilanadi. U bozorlarning to‘rt guruhini alohida ajratib ko‘rsatgan: tayyor tovarlar va mahsulotlar bozori, ishlab chiqarish omillari bozori, xizmatlar bozori, oraliq mahsulotlar bozori.

Xo‘jalik yuritish tizimi barqarorligiga qarshi qaratilgan asosiy xavf-xatar esa ishlab chiqarish omillari bozoridagi daromad effektidan kelib chiqadi, ish haqining yetarlicha moslashuvchan bo‘lmasligi ishsizlikning qo‘shimcha ortib ketishiga olib keladi.

Kitobning dastlabki boblarida bugungi kunda iste’molchilar va ishlab chiqaruvchilarning xulq-atvori hamda uning oqibatlari to‘g‘risidagi otrodoksal nazariya deb atalayotgan g‘oyalar ilgari surilgan. Jon Richard Xiks ta’kidlashicha, tovarlar narxlarining o‘zgarishi hamma vaqt salbiy xarakterga ega bo‘luvchi “almashuvchi ta’sir”ni (substitution effect) ko‘rsatadi, ayni mahalda ham salbiy, ham ijobiy xarakterga ega bo‘lmish “daromad effekti”ni yuzaga keltiradi.

Jon Richard Xiks neoklassik nazariyada hukmronlik qilib kelgan xo‘jalik yuritish muvozanati statistik sxemalarini bartaraf etishga harakat qilgan. Muallif iqtisodiy dinamika – barqaror rivojlanib borish tahlilini ham amalga oshirgan. Ana shu jarayonda asosiy «dinamik tus beruvchi» unsur roli esa xo‘jalik yuritish jarayoni qatnashchilarining individual kutilma va umidvorligiga ajratilgan. Individual kutilma va umidvorlikning xo‘jalik rivojlanishi real natijalariga mos kelmasligi, Xiks fikricha, tizimni muvozanat holatidan nariga surib tashlashga qodir bo‘lgan «norozi bo‘lib do‘ng‘illash» kayfiyatini muqarrar ravishda dunyoga keltiradi.

«Qiymat va kapital» asari orqali kapitalistik iqtisodiyotga tabiatan ko‘rinmas tarzda xos bo‘lgan beqarorlik to‘g‘risida tezis «alvon ip» bo‘lib o‘tgan. Noturg‘unlik va beqarorlik manbai esa, Jon Richard Xiks fikricha, muomala sohasida, eng avvalo, pul bozori va qimmatli qog‘ozlar bozorlari ishlab turishi zamirida yashirinib yotgan bo‘ladi. Bunda esa narxlardan umidvorlik va boshqacha foiz stavkalariga o‘tilishini kutish ham muhim rol o‘ynaydi.

«Qiymat va kapital» asari shuningdek sarf-xarajatlar va natijalar nisbati tahlilida «kompensatsion tamoyil» keyinchalik tadqiq etilishi uchun poydevorni tashlab berdi.

Erkin savdo siyosati, masalan, Yaponiyada ishlab chiqarilgan avtomashinalarni sotib oluvchi qo‘shma shtatlik xaridorlarga foyda keltirishi, ammo avtomobilsozlik sanoati kasaba uyushmalariga zarar yetkazishi mumkin. Xaridorlarning foydasi ishchilarning foydasidan ortiq bo‘lar ekanmi, demak, iste’molchilar ishchilarga kompensatsiyalar berishi (ya’ni, ularga o‘z daromadlarining bir qismini berishi), bu bilan esa foydadan hamma naf ko‘rishini ta’minlashi zarur. Dollardagi foyda va naf «iste’molchilikdagi ortiqchalik» bilan o‘lchanadi (ya’ni, xaridor to‘lashga tayyor bo‘lgan narx bilan amalda u to‘lashi zarur bo‘lgan baho – to‘lov o‘rtasidagi farq bilan). Ammo, Jon Richard Xiks, bunda qat’iy xulosaga teskari bo‘lgan qo‘shma’nolik mavjud bo‘lishini ham e’tirof etgan. Garchand Jon Richard Xiksning «kompensatsiya tamoyili», keyinchalik Pol Entoni Samuelson va boshqa iqtisodchilar tomonidan Xiks taqsimot muammolariga e’tibor qaratmagani uchun tanqid qilingan bo‘lsa-da, «xarajatlar-natijalar» nisbatini tahlil qilish uchun bir instrument – qurol sifatida mazkur tamoyil foydali ekanligi isbotlandi.

«Qiymat va kapital» asari mantig‘i umumiy yalpi muvozanat modellaridagi dinamik barqarorlikka nisbatan yangicha munosabat iqtisodiyot nazariyasiga kiritilishida namoyon bo‘ldi. Mazkur sohada Jon Richard Xiks balanslashtirilmagan iqtisodiy tizim balanslashgan holatga qaytish imkoniyatiga ega bo‘ladigan shart-sharoitlarni tushuntirib va aniqlab berishga harakat qilgan edi. Ana shu shartlar, keyinroq Pol Entoni Samuelson tomonidan ko‘rsatib o‘tilganidek, dinamik barqarorlik uchun yetarli ham, zarur ham bo‘lmaganidek, ularning qimmati baribir Nobel mukofoti laureatlari **Jerar Debryo** va **Kennet Jozef Errou** tadqiqotlarida isbotlab berildi.

Jon Richard Xiks «dinamika konsepsiyasi»ning o‘ta muhim tushunchalaridan biri bo‘lmish «muvaqqat muvozanat» hozir ham nazariy makroiqtisodiyotda nihoyatda keng foydalaniladi. Umuman olganda, Xiksning Jahon iqtisodiy tafakkuri rivojiga ta’siri uning tahlil metodikasi, masalan, iqtisodiy o‘sish va savdo sikllari natijalariga qaraganda qiyosiy statistikadan foydalangan va dinamik tahlilni qo‘llagan holda amalga oshirilgani bilan ko‘proq darajada bog‘liq ekanligi ko‘zga tashlanadi.

Jon Richard Xiks Alfred Marshall kabi bozor talabining narxlar o‘zgarishiga ta’sirini tahlil etdi.

Alfred Marshall g‘oyalarini qo‘llab-quvvatladi, lekin uning ayrim qoidalarini «taftish» qildi, ayniqsa naf (foydalilik) ko‘rsatkichini (miqdori) o‘lchash masalalariga e’tiroz bildirdi. Uningcha, bozor hodisalarini tushuntirish uchun naf (foyda) konsepsiyasining miqdoriy ko‘rsatkichlarini e’tiborga olish shart emas. Bozor mo‘tadilligi nazariyasida foydadorlik funksiyasi ko‘p hollarda hisobga olinmaydi.

Jon Xiks fikricha, asosiy masala iste’molchining bozor sharoitidagi o‘zgarishlarga reaksiyasini boshqaruvchi qonunlarda mujassamlashgan. Bunda loqaydlik egri chiziqlari apparati nazariy asos qilib olinadi. Bu apparat XIX asr oxirida ingliz iqtisodchisi Ejuort tomonidan kiritilgan bo‘lib, u nafdorlikning bir xil darajasini ifodalaydigan nuqtalar geometrik majmuasidir. Ammo Ejuort nafdorlikning absolyut miqdorini o‘lchash mumkin degan qoidaga amal qiladi. Xiks (Valrasdan so‘ng) o‘z modelida quyidagi bozor ko‘rinishlarini ajratadi: **1)** xususiy iste’mol bilan bog‘liq bo‘lgan talabni qondiruvchi mahsulotlar bozori; talabi firmalar tomonidan ilgari suriladigan, taklifi esa xususiy shaxslar va ishbilarmonlar tomonidan qondiriladigan omillar bozori; **2)** talab, xuddi shuningdek, taklif ham xususiy shaxslar va ishbilarmonlar tomonidan ta’minlanadigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xizmatlar bozori; **3)** oraliq mahsulotlar bozori, bunda ular bir firma uchun omil bo‘lib xizmat qiladi, ularga bo‘lgan talab va taklif mos ravishda firmalar tomonidan qondiriladi.

Jon Richard Xiksning fikricha, umumiy mo‘tadillik o‘zgarishi iste’molchilar didi va ishlab chiqarish ko‘lamiga bog‘liq bo‘ladi. Umuman, iqtisodiy tizimda stabillikka (mo‘tadillik va barqarorlik) erishish mumkin, ammo daromadlarning asimmetrik samarasi va omillarining yuqori darajada o‘zaro to‘ldira olishlari tufayli bu mo‘tadillik buzilishi mumkin. Masalan, ishlab chiqarish hajmlarining o‘sishi tufayli talab va taklifni baravarlashtirish narxlarning keskin pasayishi bilan bog‘liq bo‘lishi kutiladi.

Jon Richard Xiksning yana bir muhim xizmati shundaki, u statik (turg‘un) neoklassik sistema bilan dinamik (harakatdagi) model o‘rtasiga «ko‘prik» yasadi. U statikadan dinamikaga o‘tish davridagi balansning yo‘qolish manbai asosan odamlarning bo‘lajak o‘zgarishlar qonuniyatini «ko‘ra bilishi mukammal emasligi»dan izlash kerak, deb hisoblaydi. Individual kutilmalar, xususan, narxlardagi, foiz stavkalari o‘zgarishini kutish, ishbilarmon va iste’molchilar rejalarining bir-biriga mos kelavermasligi dinamik sistemaning asosi bo‘lib hisoblanadi.

«Buyuk iqtisodchilar» turkumiga kiruvchi boshqa maqolalar, jumladan, mazkur maqola boshida aytib o‘tganimizdek, 1930-yillarning oxirida Jon Meynard Keyns ilmiy ijodi negizida «keynschilik inqilobi»ga poydevor qo‘yilgan, xuddi boshqa iqtisodchilar singari keynschilik bilan qattiq qiziqib qolgan Jon Richard Xiks «Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi»ga oid ikkita taqriznoma ham yozgan edi. Ulardan bittasi deyarli unutib yuborilgan, boshqasi esa **«Janob Keyns va klassiklar»** degan sarlavha ostida 1937-yil «Ekonometrika» jurnalida e’lon qilingan, iqtisodiy tafakkurda sezilarli va salmoqli iz qoldirgan edi.

Mazkur taqriznomada Jon Richard Xiks ikkita egri chiziqni ko‘rib chiqishni taklif etgandi, chunonchi: ulardan biri – kapital bozorida vujudga keluvchi yalpi mahsulot (daromad) jismoniy hajmi *(Y)* va ssuda foizi *(I)* o‘rtasida nisbat muvozanatini xarakterlaydi *(LM* (mahsulot-pul) egri chizig‘i), boshqasi esa kapital bozorida vujudga keladigan aynan shunga o‘xshash egri chiziqdir (*IS*) (investitsiyalar – savdo egri chizig‘i). Ana shu egri chiziqlarning kesishmasi esa daromadning muvozanatlashgan hajmini belgilab beradi. Bu model esa iqtisodiy nazariyaga «Xiks xochi» (keyinchalik Xansen-Xiks modeli) degan nom bilan kirdi. Xiks chizma–sxemasi Keyns yaqqol ko‘rinishda rivojlantirmagan mantiqiy aloqalar va bog‘lanishlarni nihoyasiga yetkazgan edi. 1940–1950-yillarda ham Jon Richard Xiks o‘zining nazariy qurilmalarida keynschilik konsepsiyasining ko‘plab qoidalaridan foydalangan edi. Keyingi yillarda esa Jon Richard Xiks, Jon Meynard Keyns nazariyasini modernizatsiya qilishga, uni yangicha sharoitlarga moslashtirishga, monetarizmga yaqinlashtirishga harakat qilib ko‘rgan edi.

Jon Richard Xiksning «kapital sarf-xarajat maqsadida omonatlar – pul bozori» diagrammasi *(IS–LM)* keyinchalik makroiqtisodiyotga oid ko‘plab darsliklarga kiritildi. *LM* egri chizig‘i pulga bo‘lgan talab va pul taklifi o‘rtasidagi tenglik vaziyatiga mos keluvchi milliy daromad va foiz stavkalarining barcha kombinatsiyalarini aks ettiradi va ifodalaydi, *IS* egri chizig‘i esa omonatlarning kapital sarf-xarajatlar bilan teng bo‘ladigan vaziyatga to‘g‘ri keluvchi milliy daromad va foiz stavkalarining barcha kombinatsiyalarini namoyish etadi. Ana shu ikki egri chiziqning kesishmasi foiz stavkasi va milliy daromad muvozanat holatida bo‘lib turgan nuqtani ko‘rsatib beradi.

Jon Richard Xiksning pul va *LM* egri chizig‘idan chetga og‘ishlar to‘g‘risidagi nazariyasi keyinchalik **Jeyms Tobin** (Nobel mukofoti laureati) tomonidan ishlab chiqilgan qimmatli qog‘ozlar portfeli va bitimlar turkumi bilan belgilanuvchi pulga bo‘lgan talab to‘g‘risidagi hozirgi zamon nazariyasidan qariyb 45–50 yil avval dunyoga kelgani ham maroqlidir. Xiks ayni mahalda hukumat xarajatlarining mustaqil ravishda oshirilishi *IS* egri chizig‘ini o‘ng tarafga surib siljitishini, bu narsa

milliy daromad oshishini anglatishini ham isbotlab bergan edi. Shuningdek, *LM* egri chizig‘i bir tekis – sidirg‘a bo‘lib qoladigan hollarni istisno qilganda, foiz stavkasi ham o‘sadi (bu hodisani Jon Meynard Keyns «likvidlik tuzog‘i» deb atagani ma’lum). Binobarin, «likvidlik tuzog‘i» deganda 1929–1933-yillar iqtisodiy inqirozi davridagi pul bozorlari holati xarakterlangan deb hisoblagan ko‘plab keynschilar yalpi talabni rag‘batlantirish uchun fiskal siyosatdan foydalanish kerak deya oyoq tirab olishgan edi.

Bir qator iqtisodchilarning fikricha, 1950–1960-yillarda keynschilik makroiqtisodiyotidagi juda ko‘p narsalar atigi Jon Richard Xiks g‘oyalarining turli-tuman variantlaridan – davom ettirilishidan iborat bo‘lgan, xolos. Ana shu o‘nyilliklarda monetar vositalarning samaradorligi fiskal siyosat vositalariga qarama-qarshi qo‘yilgan iqtisodiy siyosat sohasidagi bahs-munozaralar ko‘p hollarda *IS–LM* diagrammasi doirasida olib borildi. 1970-yillarning boshlarida esa Xiks diagrammasi bir qator keynschilar, jumladan, Jon Richard Xiksning sobiq talabasi Robert Lourens Klouer tomonidan hamlalar obyektiga aylanib qoldi. Xiksning opponentlari *IS–LM* diagrammasi o‘zining statik (turg‘un, harakatsiz) va muvozanatlashgan xarakteri bilan Jon Meynard Keynsning mohiyatan dinamik va muvozanatdan mahrum bo‘lgan nazariyasi tabiatini buzib bejab ko‘rsatadi deya ta’kidlay boshlashdi.

Amalda esa Jon Richard Xiks o‘zining savdo sikli nazariyasida qisqa muddatli, ayniqsa, investitsiyalar miqdorlariga nisbatan qisqa muddatli rivojlanishning dinamik xarakterini ko‘rsatib bergan edi. *IS–LM* diagrammasi, basharti, to‘g‘ri qo‘llangudek bo‘lsa, ishonarli dastak va vosita bo‘lib qolmoqda. Xo‘jalik yuritish taraqqiyoti tarixchisi Temin, misol uchun, Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi Buyuk depressiyaning monetaristik sabablarini tushuntirib berishda ana shu diagrammadan foydalangan: pul taklifining keskin pasayib ketishi – foiz stavkalari va milliy daromad to‘g‘risidagi ma’lumotlar – empirik dalolatlar bilan rad etilgan.

1939–1946-yillarda Jon Richard Xiks Manchester universitetida iqtisodiyot professori bo‘lib ishlagan edi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida u o‘z rafiqasi **Ursula Xiks** va ingliz iqtisodchisi **Leopold Rostes** bilan hammualliflikda **«Harbiy boylikka soliq solish»** (1941), Ursula Xiks bilan hammualliflikda **«Mahalliy hokimiyat organlari sarf-xarajatlari mezonlari»** (1943), **«Buyuk Britaniyada mahalliy hokimiyat idoralari tomonidan undirib olinuvchi soliqlar yuki»** (1945) ilmiy asarlarini yaratdi. Aytib o‘tilgan asarlarda harbiy va urush sharoitida Buyuk Britaniyada mahalliy budjetlarning ishlab turishi masalalari va muammolari ko‘rib chiqilgan.

1946-yilda Oksforddagi Naffild kolleji professori vazifasiga tayinlangan, 1952-yilda Oksford universiteti siyosiy iqtisod professori martabasiga ko‘tarilgan Jon Richard Xiks 1965-yilda iste’foga chiqquniga qadar shu lavozimda qoldi.

Ikkinchi Jahon urushi yillarida boshlab qo‘yilgan ishlarni davom ettirgan Jon Richard Xiks va kasbi iqtisodchi bo‘lmish rafiqasi Ursula Xiks Buyuk Britaniya hukumatining soliqlar masalalari bo‘yicha maslahatchilari vazifasini ham o‘tashgan. Bundan tashqari, er-xotin iqtisodchi olimlar Britaniya Millatlar Hamkorligining bir qancha sobiq a’zolariga, masalan, Hindiston va Yamayka singari eski mustamlakalar rasmiy doiralariga mustaqillik qo‘lga kiritilganidan so‘ngra yuzaga kelgan ayrim iqtisodiy muammolarni tartibga solishda ham yordam ko‘rsatgan edi.

Jon Richard Xiks, «Qiymat va kapital» asaridan so‘ngra yaratgan ko‘p narsalarni iqtisodiy tafakkurning asosiy o‘zaniga o‘ngarib qo‘yish vazifasi turgan bo‘lsa ham, iqtisodiy nazariyani rivojlantirishga intensiv ko‘mak beraverdi. Uning 1965-yilda e’lon qilingan **«Kapital va o‘sish»** asarida qiyosiy dinamika tushunchalaridan barqaror va optimal rivojlanish yo‘llarini o‘rganish uchun foydalanilgan edi. Ana shu kitobda u «qat’iy belgilangan narxlar» va «moslashuvchan (o‘zgaruvchan) narxlar» hukm suradigan bozorlar konsepsiyasini ilmiy muomalaga kiritdi, ana shu ikki bozor o‘rtasidagi tafovut esa makroiqtisodiyotdagi samaradorlik va unumdorlikni belgilab berishi ko‘p o‘tmasdanoq ma’lum bo‘ldi.

Jon Richard Xiks iqtisodiy o‘sish modelida yangi ish o‘rinlari yaratish va bandlik darajasini oshirishga xarajatlar ortib borishiga asosiy urg‘u berilgan. Ayni mahalda texnikaviy progress – texnik taraqqiyot istisno tariqasida mehnatni tejash xarakteriga ega bo‘ladi, ishlab chiqarish quvvatlarini yanada kengaytirish esa kapitaldagi jamg‘arilish sur’atlaridagi qat’iy proporsiya bilan bog‘liq bo‘ladi. Natijada esa bandlikning ham ilgari siljishiga foydaning eng yuqori normasini ta’minlashi mumkin bo‘lgan yangilanishlar nihoyatda ijobiy va qulay ta’sir o‘tkazadi. Ana shu nazariy konstruksiya ishchilar va sarmoyadorlar manfaatlarining uzoq muddat davom etadigan «uyg‘unligi» (o‘zaro manfaatdorlik uzoq muddatli garmoniyasi) deb ataluvchi mashhur tezisga yaqinlashib keladi.

1950-yilda Jon Richard Xiks **«Savdo sikli nazariyasiga qo‘shilgan hissa»** degan monografiyasini e’lon qilgandi. Uning sikllar konsepsiyasi Xarrodning xo‘jalik o‘sishi modeliga asoslangan edi. Siklli harakatlanishning o‘ziga xos jihatlari ana shu konsepsiyasida mohiyat e’tibori bilan ishlab chiqarishni kengaytirishning trendsimon traektoriyasidan chetga og‘ishlaridan iborat qilib ko‘rsatilgan.

1939-yilda Pol Entoni Samuelson tomonidan

taklif etilgan multiplikatorlar va akselatorlar o‘zaro ta’sirini ko‘rib chiqqan Jon Richard Xiks uni sezilarli va jiddiy tarzda modifikatsiyalashtiradi. Ishlab chiqarishni kengaytirish jarayoni muqarrar bir ravishda to‘qnash keladigan obyektiv cheklanishlar va cheklashlar nazariy sxemasiga kiritilishi esa prinsipial muhim bir hodisa bo‘ldi. Barqaror iqtisodiy rivojlanib boruvchi iqtisodiyot sharoitida cheklovchilar va cheklanishlarning o‘zi ham jiddiy o‘zgarishlarga uchraydi, shunday bo‘lsa-da, ishlab chiqarish omillariga mos tushuvchi talab baribir siklli yuksalish sharoitida taklifga qaraganda ancha tez va shiddat bilan kengayib boraveradi. Shu tariqa **«Samuelson-Xiks modeli»** faqatgina ne’matlar bozorini o‘z ichiga oladi. Keynschilik ta’limoti konsepsiyalariga muvofiq taklif hajmlari butunlay elastik – moslashuvchan va o‘zgaruvchan bo‘lishi nazarda tutiladi.

Sikl sxemasini tuzayotganida, Jon Richard Xiks quyidagi to‘rtta fazani alohida ajratib ko‘rsatgan:

a) ishlab chiqarish quyi muvozanat nuqtasidan boshlab to cheklashlar va cheklanishlar «shiftiga» boshi tegib qolguniga qadar kengayib boradigan bir yuksalish va ko‘tarilish (ya’ni depressiya fazasiga qadar);

b) ishlab chiqarish cheklovchi trayektoriya bo‘ylamasiga harakatlanadigan eng avj palla – «bum» hodisasi;

v) ishlab chiqarishning pasayishi (Xiks «siklli krizis» atamasi va tushunchasini atayin qo‘llamagan);

g) uzoq davom etadigan ishlab chiqarish pasayishi eng quyi va eng chekkaga yetib borganidan so‘ngra depressiya fazasi boshlanadi, bunda pirovardida iqtisodiy muvozanat qaror topadi («depressiya» mohiyatan «turg‘unlik»ka yaqin bo‘lsa-da, aynan uning o‘zi emas, «depressiya» tashqi omillarga bo‘ysunuvchanligi bilan «krizis»dan ham farq qiladi).

Jon Richard Xiksning inflyatsiya konsepsiyasi ham jahon miqyosida va xususan Buyuk Britaniya kolonial imperiyasida «oltin standarti» taxtdan ag‘darilishi va barbod bo‘lishi sharoitida bir qancha realistik kuzatishlar va qarashlarni o‘zida aks ettirgan edi. Ammo butun nazariy konstruksiyaning zamonaviy inflyatsiya asosiy va birdan-bir sababi ish haqi «haddan tashqari» oshib ketgan ekanligini ta’kidlovchi markaziy tezisi yolg‘on ekanligi o‘z-o‘zicha ko‘rinib turibdi. Xiks inflyatsiya vujudga kelishi va avj olishida monopoliyalarning rolini mutlaqo ko‘rib ham chiqmagan. «Pul nazariyasi»ni tahlil qilganida esa ichki va xalqaro hisob-kitoblar mexanizmlaridagi o‘zgarishlarga ko‘proq e’tibor qaratgan.

Jon Richard Xiks nazariyasida «kapital jamg‘arilishi» ham salmoqli o‘rin egallaydi. Alfred Marshall singari uning ilmiy ishlarida ham «kapital» sifatida ko‘pincha sanoat maqsadidagi tovarlar va mahsulotlar namoyon bo‘ladi. Kapital mohiyatini va uning ishlab turishi muammolarini tahlil qilish esa o‘z daromadlarini maksimallashtirishga harakat qilayotgan firma faoliyati xarakteristikasi yoki mikrodaraja bilan cheklanib qolgan.

1965-yilda iste’foga chiqqanidan keyin Jon Richard Xiks 1971-yilga qadar Oksforddagi Ol-Soulz (All Souls) kollejining ilmiy xodimi bo‘lib ishladi. Umrining so‘nggi yillarida esa **«Keynschilik iqtisodiyotining inqirozi» (1974), «Iqtisodiyot istiqbollari: pul va o‘sish nazariyasining keyingi tadqiqotlari» (1977), «Boylik va farovonlik» (1982), «Klassiklar va zamondoshlar» (1983), «Dinamik iqtisodiyot metodlari» (1985)** singari yirik kitoblar va tadqiqotlar yaratdi.

Iqtisodiyot sohasidagi Nobel mukofotidan tashqari Jon Richard Xiks ko‘plab faxrli ilmiy unvonlar va mukofotlar bilan ham taqdirlangan. U Buyuk Britaniya Fanlar akademiyasi, Shvetsiya Qirolligi Fanlar akademiyasi, Italiya Milliy Fanlar akademiyasi akademigi, Amerika Qo‘shma Shtatlari San’at va fanlar akademiyasining haqiqiy a’zosi, Glazgo, Manchester, Lester, Uorik va boshqa universitetlarning faxriy doktori, Lissabon Texnika universiteti faxriy professori bo‘lgan. 1960–1962-yillarda Buyuk Britaniya Qirolligi Iqtisodiyot jamiyatining prezidenti bo‘lib ham ishlagan.

(Davomi bor. Kelgusi sonda umumiy iqtisodiy muvozanat nazariyasi, ijtimoiy tanlov nazariyasi hamda farovonlik iqtisodiyoti rivojiga ulkan hissa qo‘shgan, zamonaviy iqtisodiy tafakkur tarixida alohida o‘rin tutgan buyuk olim — Kennet Josef Errou faoliyatiga ilmiy sayohat qilamiz).

“SCIENCE AND EDUCATION IN THE 21ST CENTURY”

Xalqaro ilmiy-metodik jurnali
3/2026 (№1)

Tahririyat manzili:
Toshkent shahri, Amir Temur shoh ko‘chasi, 22, 100060

Bosh muharrir	A.Mamanazarov
Muharrir-musahhih:	A.Ayizov, M.Mamanazarov
Koordinator:	A.Xaydaraliyeva, N.Karimova
Sahifalovchi-dizayner:	K.Ergashev

“Science and Innovation” nashriyoti
Nashriyot tasdiqnomasi №:455168 21.11.2024
Bosmaxonaga berildi: 10.03.2026. Bosishga ruxsat etildi: 13.03.2026.
Bichimi 60x84 1/8. “Times New Roman” garniturasi,
Ofset bosma. Adadi: 200 dona.
Manzil: 100121, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shota Rustaveli 150,
“Vega” biznes markazi, 6-qavat, 2-xona.
www.scientists.uz, info@scientists.uz, T.: +998901259654.

“Science and Innovation” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: 100155, Toshkent shahri, Sergeli tumani, Quruvchi dahasi, 22/43.

MAQOLA CHOP ETISH NIYATIDAMISIZ?

NASHR QILISH TALABLARI:

- Maqola hajmi: 5-12 bet
- Bezak: Times New Roman, shrift o‘lchami 12, satrlararo interval 1,5
- Mazmun: dolzarb mavzu, ilmiy tahlil, amaliy tavsiyalar

MAQOLALARNI YUBORISH:

- Telegram orqali: **https://t.me/science_and_education21century**
- E-mail: **info@science-city-abm.uz**

SAVOLLAR YUZASIDAN

Quyidagi raqam bilan bog‘laning: +998947080800 /Asila Xaydaraliyeva/

КАК ОПУБЛИКОВАТЬСЯ?

ТРЕБОВАНИЯ К ПУБЛИКАЦИЯМ:

- Объем: 5-12 страниц
- Оформление: Times New Roman, 12 пт, интервал 1,5
- Содержание: актуальная тема, научный анализ, практические рекомендации

ПОДАЧА МАТЕРИАЛОВ:

- Через Telegram: **https://t.me/science_and_education21century**
- По e-mail: **info@science-city-abm.uz**

ЕСТЬ ВОПРОСЫ?

Звоните:: +998947080800 /Asila Xaydaraliyeva/

HOW TO PUBLISH?

Publication requirements:

- The volume of the article: 5-12 pages
- Design: Times New Roman, 12 font size, line spacing 1.5
- Content: current topic, scientific analysis, practical recommendations

Proceedings submission:

- Via Telegram: **https://t.me/science_and_education21century**
- E-mail: **info@science-city-abm.uz**


ANY QUESTIONS?

Call: +998947080800 /Asila Xaydaraliyeva/

science-city-abm.uz

SE21

SCIENCE & EDUCATION IN THE 21ST CENTURY



Google Scholar
НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU
zenodo
IOI WORLD of JOURNALS
SLIB.UZ Scientific library of Uzbekistan

science-city-abm.uz

facebook.com/journal.se21

t.me/science_and_education21century

journal.se21